

U30.2
49
P-29

ABDUROZIQ RAFIYEV
JAHONGIR QO'NISHEV

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI

- ✓ *O'qituvchi-filologlar*
- ✓ *O'quvchi va talabalar*
- ✓ *Abituriyentlar*
uchun
qo'llanma

930.2
49
D-29

149
O'zbek filologiyasi
fakulteti
O'QUV ZAL

Mugaddas

ABDURØZIQ RAFIYEV
JAHONGIR QO'NISHEV

Muraqibxon

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI

O'qituvchi-filologlar, o'quvchi va
talabalar hamda abituriyentlar uchun
o'qilganma

434.322.450.1 (075.8)
20

O'zbek filologiyasi
fakulteti
KUTUBXONASI

TOSHKENT
«YANGI NASHR»
2012

6593

UZBEKISTON RESPUBLIKASI
TASHKENT

UDK: 811. 512. 133 (075)

KBK 81. 2 O'zb.

R 27

Rafiyev, Abduroziq.

Hozirgi o'zbek adabiy tili: o'qituvchi-filologlar, o'quvchi va talabalar hamda abituriyentlar uchun qo'llanma / Mualliflar: A. Rafiyev, J. Qo'nishev. G'oya muallifi J. Qo'nishev. – Toshkent: Yangi nashr, 2012. – 164 bet.

I. Qo'nishev, Jahongir

Taqrizchilar:

H. Dadaboyev, *filologiya fanlari doktori, professor*

R. Sayfullayeva, *filologiya fanlari doktori, professor*

Hozirgi o'zbek adabiy tilidan o'quv qo'llanma maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurti o'quv dasturlari hamda oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlaridagi ona tili fanidan bo'ladigan test sinovlari talablaridan kelib chiqib tayyorlangan. Unda mavzularni o'zlashtirish va esda saqlab qolishni osonlashtirish maqsadida ona tiliga oid barcha ma'lumotlar uzviy ketma-ketlikda, jadval tarzida soddalashtirib berilgan, kitob so'ngida esa tilshunoslikka oid atamalarning izohli lug'ati keltirilgan.

O'quv qo'llanma o'quvchilar, abituriyentlar, oliy o'quv yurti talabalari hamda soha mutaxassislari uchun mo'ljallangan.

Ushbu qo'llanmadan nusxa ko'chirib ko'paytirish va mualliflarning roziligisiz undagi jadvallardan foydalanib chop etish taqiqlanadi.

KBK 81. 2 O'zb. ya 7

ISBN: 978-9943-22-056-0

© A. RAFIYEV, J. QO'NISHEV

© «YANGI NASHR», 2012

MUNDARIJA

KIRISH.....	14
-------------	----

TIL HAQIDA MA'LUMOT

Dunyo tillari.....	11
Turkiy tillar.....	11
O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari.....	11
O'zbek umumxalq tili lahjalari.....	13

FONETIKA. GRAFIKA

Nutq turlari.....	14
Nutq tovushi va harf.....	14
Nutq tovushlari.....	14
Nutq a'zolari.....	14
Nutq a'zolarining harakati va ishtirokiga ko'ra unli tovushlar tasnifi.....	15
Nutq a'zolarining ishtirokiga ko'ra undosh tovushlar tasnifi.....	15
Jarangli va jarangsiz tovushlar.....	16
Portlovchi va sirg'aluvchi tovushlar.....	16
Unli va undoshlarning farqli belgilari.....	16
O'zbek alifbosi.....	16
Yozuvlarimiz tarixi.....	17

TALAFFUZ VA IMLO ME'YORLARI (ORFOEPIYA VA ORFOGRAFIYA)

Yozuv tamoyillari.....	18
Unli tovushlar talaffuzi va imlosi.....	19
Qator kelgan unlilar talaffuzi va imlosi.....	21
Ayrim undosh tovushlar talaffuzi va imlosi.....	22
Qo'sh va qator kelgan undoshlar talaffuzi va imlosi.....	26
Tutuq belgisining ishlatilishi.....	27
Chiziqcha – imlo belgisining ishlatilishi.....	27
Tovush o'zgarishlari.....	28
Bo'g'in turlari.....	30
Bo'g'in ko'chirish.....	30
Urg'u turlari.....	31
Urg'u tushishi.....	32

LEKSIKOLOGIYA

O'zbek tilining lug'aviy qatamlari.....	33
So'zlarning tarixiy jihatdan tasnifi.....	35
Qo'llanilishi chegaralangan so'zlar.....	36
So'zlarning hissiy-ta'siriy jihatdan turlari.....	37
O'zbek tilining boyish manbalari.....	37
So'zlarning atash ma'nosiga ko'ra turlari.....	38
So'z ma'nosining turlari.....	38
So'zning tuzilishiga ko'ra turlari.....	39
Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar.....	40
So'zlarda ma'no ko'chish yo'llari.....	40
So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari.....	41
Ma'nodoshlik turlari.....	42
Zid ma'nolilik turlari.....	43
Shakldoshlik turlari.....	43
Lug'at turlari.....	43

SO'Z TARKIBI (MORFEMIKA)

So'z tarkibi.....	45
So'z va qo'shimchalarning farqli belgilari.....	45
Qo'shimchalar tasnifi.....	46
So'z turkumlarida lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar.....	46
Sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar (munosabat shakllari).....	47
Sodda so'zlarning tarkibi.....	48
So'z tarkibida tartib.....	48
Qo'shimcha ta'sirida o'zagi o'zgaradigan so'zlar.....	49

SO'Z YASALISHI

So'z yasalishi.....	50
So'z yasash usullari.....	50
So'z turkumlarida so'z yasovchi qo'shimchalar.....	51

MORFOLOGIYA

SOʻZ TURKUMLARI.....	53
MUSTAQIL SOʻZLAR.....	53
Feʼl.....	54
Feʼlning leksik-grammatik turlari.....	54
Feʼlning maʼno guruhlari.....	54
Oʻtimli va oʻtimsiz feʼllar.....	55
Feʼlning grammatik maʼno beruvchi shakllari.....	55
Feʼl nisbatlari.....	56
Feʼllarning boʻlishli va boʻlishsiz shakllari.....	56
Feʼl zamonlari.....	57
Feʼl mayllari.....	57
Feʼlning shaxs-son shakllari.....	58
Feʼlning vazifa (xoslangan) shakllari.....	58
Feʼlning harakat nomi shakli.....	59
Feʼlning sifatdosh shakllari.....	59
Feʼlning ravishdosh shakllari.....	60
Feʼllarning tuzilishiga koʻra turlari.....	61
Qoʻshma feʼl va koʻmakchi feʼlli soʻz qoʻshilmasining farqli belgilari.....	61
Feʼllarning qoʻshimchalar yordamida yasalishi.....	62
Ot.....	63
Otning maʼno turlari.....	63
Atoqli otlarning maʼnoviy guruhlari.....	63
Turdosh otlarning lugʻaviy maʼnosiga koʻra turlari.....	64
Turdosh otlarning grammatik maʼnosiga koʻra turlari.....	64
Aniq va mavhum otlar.....	64
Yakka va jamlovchi otlar.....	65
Sanaladigan va sanalmaydigan narsa otlari.....	65
Otning grammatik maʼno beruvchi shakllari.....	65
Otlarning son shakllari.....	66
Otlarning egalik shakllari.....	66
Egalik qoʻshimchali soʻzlarning imlosi.....	66
Kelishik shakllari.....	67
Kelishik shakllarining maʼnosi va imlosi.....	68
Kelishik qoʻshimchasi bilan turlangan soʻzlarning gapdagi sintaktik vazifalari.....	70
Otlarning lugʻaviy shakllari.....	70
Otlarning sintaktik (munosabat) shakllari.....	72

Otlarning tuzilishiga ko'ra turlari.....	72
Otlarning qo'shimchalar yordamida yasalishi.....	73
Sifat.....	74
Sifatning ma'no turlari.....	74
Asliy va nisbiy sifatlar.....	75
Sifat darajalari.....	75
Sifatlarning tuzilishiga ko'ra turlari.....	76
Sifatlarning qo'shimchalar yordamida yasalishi.....	77
Son.....	78
Sonning ma'no turlari.....	78
Sonning lug'aviy shakllari.....	78
Sonlarning tuzilishiga ko'ra turlari.....	79
Hisob so'zlarining ma'no guruhlar.....	80
Ravish.....	81
Ravishning ma'no turlari.....	81
Ravishlarning tuzilishiga ko'ra turlari.....	82
Ravishlarning yasalishi.....	83
Olmosh.....	84
Olmoshning ma'no turlari.....	84
Olmoshlarning tuzilishiga ko'ra turlari.....	86
YORDAMCHI SO'ZLAR.....	87
Ko'makchilar.....	87
Ko'makchilarning turlari.....	87
Ko'makchilarning ma'no turlari.....	88
Ko'makchilarning kelishik qo'shimchalari bilan ma'nodoshligi.....	88
Ko'makchilar bilan birga kelgan so'zlarning shakllari.....	89
Bog'lovchilar.....	89
Bog'lovchilarning turlari.....	89
Bog'lovchilarning ma'no turlari.....	90
Teng bog'lovchilar.....	90
Ergashtiruvchi bog'lovchilar.....	91
Bog'lovchilarning qo'llanilishiga ko'ra turlari.....	91
Yuklamalar.....	92
Yuklamalarning turlari.....	92
Yuklamalarning ma'no turlari.....	92
Yuklamalarning yozilishi.....	93
Inkor bog'lovchisi bilan inkor yuklamasining o'zaro farqi.....	93
ALOHIDA OLINGAN SO'ZLAR GURUHI.....	94
Undov so'zlar.....	95
Undov so'zlarda tinish belgilarining ishlatilishi.....	96
Undov so'zlarning tuzilishiga ko'ra turlari.....	96

Undov soʻzlarning sintaktik vazifalari.....	96
Taqlid soʻzlar.....	97
Taqlid soʻzlar tasnifi.....	97
Taqlid soʻzlarning tuzilishi va imlosi.....	97
Taqlid soʻzlarning sintaktik vazifalari.....	97
Modal soʻzlar.....	98
Modal soʻzlarning tarkibiga koʻra turlari.....	98
Modal soʻzlarning maʼno turlari.....	98
Modal soʻzlarning sintaktik vazifalari.....	99
Tasdiq va inkor soʻzlar.....	100

SINTAKSIS

ASOSIY SINTAKTIK BIRLIKLAR.....	101
SOʻZ BIRIKMASI SINTAKSISI.....	102
Soʻz birikmasining boshqa til birliklaridan farqi.....	102
Soʻz birikmasining tarkibiy qismlari.....	103
Soʻz birikmasining grammatik maʼno turlari.....	103
Teng bogʻlanish va tobe bogʻlanish.....	104
Teng bogʻlanish.....	104
Tobe bogʻlanish.....	105
Soʻz birikmasining tuzilishiga koʻra turlari.....	105
Soʻz birikmalari zanjiri.....	105
Gap.....	106
Gapning tuzilishiga koʻra turlari.....	106
Gapning ifoda maqsadiga koʻra turlari.....	106
Gapning his-hayajonga koʻra turlari.....	107
SODDA GAP SINTAKSISI.....	108
Gapning boʻlaklarga ajratilishi.....	108
Bosh boʻlaklar.....	108
Kesim.....	108
Kesim orqali ifodalanadigan hukm turlari.....	109
Kesimning ifodalanishiga koʻra turlari.....	109
Feʼl kesim.....	109
Ot kesim.....	110
Mustaqil va nomustaqil kesim.....	110
Ega.....	111
Eganing ishtirokiga koʻra gap turlari.....	111
Egali (shaxsli) gaplar.....	112
Egasi (shaxsi) maʼlum gaplar.....	112
Egasi (shaxsi) umumlashgan gaplar.....	112

Egasi (shaxsi) noma'lum gaplar.....	112
Atov gaplar.....	113
So'z-gaplar.....	113
Sodda gapning turlari.....	114
Ikkinchi darajali bo'laklar.....	114
Hol.....	114
Payt holi.....	115
O'rin holi.....	115
Ravish holi.....	115
Daraja-miqdor holi.....	116
Sabab holi.....	116
Maqsad holi.....	116
To'ldiruvchi.....	117
To'ldiruvchining turlari.....	117
Aniqlovchi.....	118
Sifatlovchi aniqlovchi.....	119
Qaratqich aniqlovchi.....	119
Izohlovchi aniqlovchi.....	120
Uyushiq bo'lakli gaplar.....	120
Uyushiq bo'laklarda umumlashtiruvchi so'z.....	121
Ajratilgan bo'lakli gaplar.....	121
Gap bo'laklari bilan grammatik bog'lanmaydigan «bo'laklar».....	122
QO'SHMA GAP SINTAKSISI.....	123
Qo'shma gapning turlari.....	123
Qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalar.....	123
Bog'langan qo'shma gaplar.....	124
Ergashgan qo'shma gaplar.....	125
Ergashgan qo'shma gap qismlari.....	125
Ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalar.....	125
Ergashgan qo'shma gaplarning turlari.....	126
Ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalariga ko'ra	
ergashgan qo'shma gaplar.....	126
Ergashtiruvchi bog'lovchili ergashgan qo'shma gaplar.....	126
Ko'makchili qurilmalar yordamida ergashgan qo'shma gaplar.....	127
so'zi yordamida ergashgan qo'shma gaplar.....	127
Shart mayli shakli vositasida ergashgan qo'shma gaplar.....	127
Ko'rsatish olmoshili ergashgan qo'shma gaplar.....	128
Nisbiy so'zli ergashgan qo'shma gaplar.....	128
Ergash gap bosh gapdagi qaysi bo'lakni izohlab kelishiga	
ko'ra ergashgan qo'shma gaplar.....	129
Kesim ergash gapli qo'shma gaplar.....	129

Ega ergash gapli qo'shma gaplar	129
Hol ergash gapli qo'shma gaplar.....	130
Hol ergash gapli qo'shma gaplarning ma'no turlari	131
To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplar	133
Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar.....	133
Ergashgan qo'shma gaplarda qismlarining o'rni	134
Bog'lovchisiz qo'shma gaplar.....	135
Qo'shma gap turlarining ma'nodoshligi	136
Murakkab qo'shma gaplar.....	137
Ko'chirma gapli qo'shma gaplar	138
Ko'chirma gapli qo'shma gapning tuzilishi	138
Qo'shma gapda ko'chirma gapning o'rni	138
Ko'chirma va o'zlashtirma gaplar.....	139

USLUBIYAT (STILISTIKA)

Nutq uslublari	140
Matn turlari	141

TINISH BELGILARINING ISHLATLISHI (PUNKTUATSIYA)

Tinish belgilarining turlari	142
Tinish belgilarining ishlatilishi.....	142
Nuqta	142
So'roq	143
Undov	143
Ko'p nuqta.....	144
Ikki nuqta.....	145
Vergul.....	146
Nuqtali vergul.....	147
Tire	148
Qavs.....	149
Qo'shtirnoq.....	150
Tilshunoslikka oid atamalarning izohli lug'ati.....	151
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	163

KIRISH

Hozirgi o'zbek adabiy tili fani respublikamizning uzluksiz ta'lim tizimida turli nomlar bilan o'qitiladi. Jumladan, o'rta umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlarida «Ona tili», akademik litsey va filologiya yo'nalishidagi oily ta'lim muassasalarida «Hozirgi o'zbek adabiy tili» tarzida joriy etilgan.

Fanni o'qitishdan asosiy maqsad o'quvchi-talabalarning og'zaki va yozma savodxonligini shakllantirish va rivojlantirish, ona tilida erkin va ijodiy fikrlay olish malakasini hosil qilish, nutq madaniyatini o'stirish hamda davlat tilida ish yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat.

Tabiiyki, bu maqsad fanni qiziqarli, izchil, chuqur o'rganish va o'rgatishni taqozo etadi. Afsuski, o'zbek tili bo'yicha chop etilayotgan ak-sariyat qo'llanma va darsliklarda til bilimi xilma-xil, tarqoq, chalkash va tizimlashtirilmagan holda talqin etilgani bois o'quvchilarning to'laqonli bilim olish imkoniyati cheklanib qolmoqda.

Ushbu qo'llanmani yozishdan asosiy maqsad, **birinchidan**, o'zbek tiliga oid barcha ma'lumotlarni interaktiv usulda aniq, lo'nda, to'liq va tizimlashtirilgan holda berish; **ikkinchidan**, til hodisalariga doir barcha katta-kichik belgi-xususiyatlarni o'quvchi ko'z oldida aniq va ko'rgazmali tarzda gavdalantirish; **uchinchidan**, til materiali va ularning xususiyatlariga xos o'xshash va farqli jihatlarni tezda ajratish va xotirada mustahkam saqlanib qolishiga ko'maklashishdan iborat.

Ushbu qo'llanmadan o'qituvchi-filologlar dars jarayonini ko'rgazmali tashkil etishda, til hodisalarini asosli misollar bilan sharhlashda keng foydalanishlari mumkin. Qo'llanma o'quvchi-talabalar va abituriyentlarga o'zbek tiliga oid barcha grammatik bilimlarni mustaqil ravishda qulay, oson hamda qolipli asosda tez va puxta o'zlashtirishlarida amaliy yordam beradi.

TIL HAQIDA MA'LUMOT

DUNYO TILLARI

Xalqaro rasmiy tillar	Tirik tillar	O'lik tillar
Ingliz, ispan, rus, xitoy, fransuz (1945- yilda) va arab (1973- yilda BMT qarori bilan rasmiy til sifatida tasdiqlangan)	O'zbek, qozoq, qirg'iz, tatar, ozarbayjon, turkman, uyg'ur, chuvash, boshqurt, rus, ingliz, nemis, koreys, yapon, xitoy va b.	Qadimgi xorazmiy, so'g'd, bulg'or, shumer tili, eski uyg'ur tili, oyrot tili, lotin, sanskrit, qadimgi arab, qadimgi slavyan, qadimgi fors tili va b.

TURKIY TILLAR

Oilasi	Tarmog'i	Guruhlari	Tillar
Oltoy tillari	Turkiy tillar	O'g'uz	turkman, gagauz, ozarbayjon, turk, qrim-tatar va bolqon turklari tili
		Qipchoq	qo'miq, bolqar, tatar, boshqird, no'g'ay, qoraqalpoq, qozoq
		Qarluq-uyg'ur	o'zbek va yangi uyg'ur tili
		Uyg'ur-o'g'uz	tuva, yoqut, xakas, shor, sariq uyg'ur
		Qirg'iz-qipchoq	qirg'iz va oltoy tili

O'ZBEK TILINING TARAQIYOT BOSQICHLARI

Davrlari	Xususiyati
Qadimgi turkiy adabiy til (miloddan oldingi davrlardan X asrlargacha)	Bu davr tiliga xos ko'plab yozma tarixiy yodgorliklar, jumladan, O'rxun-Enasoy yozma matnlari topilgan. Bular xun yozuvida, ayrimlari so'g'd va uyg'ur yozuvida bitilgan. Bu matnlarda umumturkiy so'zlar ko'pchilikni tashkil etadi. Bu davr tili qarluq-chigil tillari, shuningdek, uyg'ur tili asosida shakllangan. Tushum kelishigi <i>-g' (-ig')</i> , qaratqich kelishigi <i>-ing</i> , chiqish kelishigi <i>-tan</i> va <i>-mish, -duq</i> fe'l shakllari qo'llanilgan

Davrlari	Xususiyati
Eski turkiy til (XI asrdan XIV asrgacha)	Bu davrda tilning soʻz boyligi va grammatik shakllarida oʻzgarishlar roʻy bergan. Qadimgi turkiy tilda 8 ta unli boʻlsa, bunda 9 ta boʻlgan. Koʻpgina qoʻshimchalar isteʼmoldan chiqqan. <i>-sa</i> shart mayli, <i>-din</i> , <i>-gan</i> (<i>-gʻan</i>) qoʻshimchalari meʼyorlashgan. Soʻz boyligi keskin oshgan. Turkiy-arabiy, turkiy-forsiy soʻzlar koʻpaygan. Qoraxoniylar davrida turli til guruhleri oʻzaro aloqasi kuchayadi. «Devonu lugʻotit turk», «Qutadgʻu bilig», «Hibat ul-haqoyiq», «Oʻgʻuznoma», «Muhabbatnoma» kabilar shu davrda yaratilgan
Eski oʻzbek adabiy tili (XV asrdan XIX asrgacha)	Umumxalq oʻzbek adabiy tili tashkil topgan bu davrda badiiy yuksak mumtoz adabiyot namunalari yaratildi. Sharqiy guruh shevalarining taʼsiri kuchaydi. Fonetik ohangdoshlik, vositali kelişik qoʻshimchalarida <i>n</i> tovushini qoʻshish, kelişik shakllari <i>-guchi</i> , <i>-gan</i> va <i>-dur</i> bogʻlamasini qoʻllash faollashdi. Adabiy til taraqqiyotida Alisher Navoiyning hissasi yuksak boʻldi. Ushbu davrning soʻnggi yillarida bu til <i>chigʻatoy tili</i> deb ham nomlangan
Hozirgi oʻzbek adabiy tili (XIX asrdan)	Hozirgi oʻzbek adabiy tili uchun qarluq lahjasiga kiradigan Fargʻona–Toshkent shevasi (yaʼni Toshkent shevasi fonetik tomondan, Fargʻona shevasi morfologik tomondan) asos qilib olingan. Lekin bu qipchoq va oʻgʻuz lahjasi xususiyati adabiy tilda yoʻq degani emas. XX asr boshlarida oʻzbek tili leksikasiga rus tilining taʼsiri kuchli boʻlgan. 1929-, 1940-, 1993- yillarda oʻzbek alifbosi oʻzgargan. Bugungi kunda hozirgi oʻzbek tili yangi tushunchalarni ifodalovchi baynalmilal soʻzlar hisobiga boyib bormoqda

O'ZBEK UMUMXALQ TILI LAHJALARI

Lahja nomi	Xususiyati
Qarluq lahjasi (janubi-sharqiy guruh)	<p>Qarluq lahjasi, asosan, shahar shevasini o'z ichiga oladi (Toshkent, Andijon, Farg'ona, Samarqand, Buxoro). Bu lahja shevasining muhim fonetik va grammatik belgisi quyidagilar:</p> <p>a) so'z oxiridagi <i>k</i> tovushi <i>y</i> tarzida aytiladi: <i>elak</i> > <i>elay</i>, <i>terak</i> > <i>teray</i> kabi;</p> <p>b) <i>o</i> lashish yuz beradi: <i>aka</i> > <i>oka</i>, <i>Aram</i> > <i>Akrom</i>, <i>bahor</i> > <i>bohor</i>, <i>boramiz</i> > <i>borovuz</i> kabi;</p> <p>d) qaratqich kelishigi yo'q va uning o'rnida ham tushum kelishigi qo'shimchasi <i>-ni</i> ishlatiladi: <i>ukamni(ng) daf-tari</i> kabi</p>
Qipchoq lahjasi (janubi-g'arbiy guruh)	<p>Qipchoq lahjasi shevasi O'zbekistonning barcha viloyatlarida mavjud, asosan, qishloqlarda keng tarqalgan (Samarqand, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo, Qoraqalpog'iston, Shimoliy Xorazm viloyati, Turkmanistonning Toshovuz viloyati shevasi). Belgilari:</p> <p>a) <i>y</i> o'rnida <i>j</i> ishlatiladi: <i>yo'l</i> > <i>jo'l</i>, <i>yo'q</i> > <i>jo'q</i> kabi;</p> <p>b) <i>g'</i> o'rnida <i>v</i> ishlatiladi: <i>tog'</i> > <i>toy</i>, <i>sog'</i> > <i>sov</i> kabi;</p> <p>d) <i>k, q</i> tushiriladi: <i>tiri(k)</i>, <i>sari(q)</i>, <i>quru(q)</i> kabi</p>
O'g'uz lahjasi (shimoli-g'arbiy guruh)	<p>O'g'iz lahjasi janubiy Xorazmdagi (Urganch, Xiva, Xonqa, Hazorasp, Qo'shko'pir, Shovot tumani) bir qancha shevalarni o'z ichiga oladi. Belgilari:</p> <p>a) unli qisqa va cho'ziq aytiladi: <i>at</i> (hayvon), <i>aad</i> (ism) kabi;</p> <p>b) <i>t</i> tovushi <i>d</i> tarzida, <i>k</i> tovushi esa <i>g</i> tarzida aytiladi: <i>tog'</i> > <i>dog'</i>, <i>keldi</i> > <i>galdi</i> kabi;</p> <p>d) <i>-ning</i> qaratqich kelishigi qo'shimchasi <i>-ng, -ing</i> tarzida, <i>-ga</i> jo'nalish kelishigi qo'shimchasi esa <i>-a, -na</i> tarzida aytiladi: <i>akanning</i> > <i>akaming</i>, <i>yoringa</i> > <i>yorima</i>, <i>qo'liga</i> > <i>alima</i> kabi</p>

FONETIKA. GRAFIKA

NUTQ TURLARI

Og'zaki nutq	Yozma nutq
Tovushlar zanjiri asosida bayon qilingan nutq	Harflar ketma-ketligi asosida bayon qilingan nutq

NUTQ TOVUSHI VA HARF

Nutq tovushi	Harf
Og'zaki nutqning eng kichik, boshqa mayda bo'lakka bo'linmaydigan qismi	Tovushning yozuvdagi ifodasi. Bir harf bilan bir tovushni ifodalash mumkin: <i>v, a, o, e</i> kabilar. Ikki harf bilan bir tovushni ifodalash mumkin: <i>sh, ch, ng</i>

NUTQ TOVUSHLARI

Turlari	Hosil bo'lishi	Harflardagi ifodasi
Unli tovushlar	O'pkadan chiqayotgan havo og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchramaydi	<i>a, e, i, o, u, o'</i>
Undosh tovushlar	O'pkadan chiqayotgan havo og'iz bo'shlig'ining ma'lum bir joyida yoki bo'g'izda to'siqqa uchraydi	<i>b, d, f, g, h, j, k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g', sh, ch, ng</i>

NUTQ A'ZOLARI

Nutq a'zolari	Vazifasi
1. O'pka. 2. Tog'aylar. 3. Unpaychalari. 4. Bo'g'iz bo'shlig'i. 5. Og'iz bo'shlig'i. 6. Burun bo'shlig'i. 7. Til. 8. Lablar. 9. Tishlar	Nutq tovushlarini hosil qilishda ishtirok etadi

**NUTQ A'ZOLARINING HARAKATI VA
ISHTIROKIGA KO'RA UNLI TOVUSHLAR TASNIFI**

Tilning gorizontal harakatiga ko'ra	Tilning vertikal harakatiga ko'ra			Lablarning ishtirokiga ko'ra
	yuqori tor unlilar	o'rta keng unlilar	quyi keng unlilar	
old qator	<i>i</i>	<i>e</i>	<i>a</i>	lablanmagan
orqa qator	<i>u</i>	<i>o'</i>	<i>o</i>	lablangan

**NUTQ A'ZOLARINING ISHTIROKIGA KO'RA
UNDOSH TOVUSHLAR TASNIFI**

OVOZNING MIQDORIGA KO'RA		HOSIL BO'LISH USULIGA KO'RA		OVOZ VA SHOYQINNING ISHTIROKIGA KO'RA		HOSIL BO'LISH O'RNIGA KO'RA										
						Lab undoshlari		Til undoshlari						Burun undoshlari		
						lab-lab	lab-tish	Til oldi undoshlari				Til o'rta undoshi	Til orqa undoshlari		Chuqur til orqa undoshlari	Bo'g'iz undoshi
								til-tish	til-tish yon tovush	til-milk	til-milk tiroq tovush					
Ovozlar (sonor)	port- lovchi	jarang- li	<i>m</i>	—	<i>n</i>	—	—	—	—	<i>ng</i>	—	—	Burun undoshlari			
	sirg'a- luvchi	jarang- li	—	<i>v</i>	—	<i>l</i>	—	<i>r</i>	—	—	—	—				
Shoyqinli	portlovchi	jarang- li	<i>b</i>	—	<i>d</i>	—	<i>dj</i>	—	—	<i>g</i>	<i>q</i>	—	—			
		jarang- siz	<i>p</i>	—	<i>t</i>	—	<i>ch</i>	—	—	<i>k</i>	—	—	—			
	sirg'aluvi	jarang- li	—	—	<i>z</i>	—	<i>j</i>	—	<i>y</i>	—	<i>g'</i>	—	—			
		jarang- siz	—	<i>f</i>	<i>s</i>	—	<i>sh</i>	—	—	—	<i>x</i>	<i>h</i>	—			

JARANGLI VA JARANGSIZ TOVUSHLAR

Jarangli	<i>b</i>	<i>v</i>	<i>d</i>	<i>z</i>	<i>g</i>	<i>j</i>	<i>dj</i>	<i>g'</i>	<i>v</i>	<i>m</i>	<i>n</i>	<i>l</i>	<i>r</i>	<i>ng</i>	-	-
Jarangsiz	<i>p</i>	<i>f</i>	<i>t</i>	<i>s</i>	<i>k</i>	<i>ch</i>	<i>sh</i>	<i>q</i>	-	-	-	-	-	-	<i>h</i>	<i>x</i>

PORTLOVCHI VA SIRG'ALUVCHI TOVUSHLAR

Portlovchi	<i>m</i>	<i>n</i>	<i>ng</i>	<i>b</i>	<i>p</i>	<i>d</i>	<i>t</i>	<i>dj</i>	<i>ch</i>	<i>g</i>	<i>k</i>	<i>q</i>
Sirg'aluvchi	<i>v</i>	<i>l</i>	<i>r</i>	<i>f</i>	<i>z</i>	<i>s</i>	<i>j</i>	<i>sh</i>	<i>y</i>	<i>g'</i>	<i>x</i>	<i>h</i>

UNLI VA UNDOSHLARNING FARQLI BELGILARI



Unlilar	Undoshlar
Sof ovozdan iborat	Shovqindan iborat (ovozdor undoshlarda ovoz ishtirok etadi)
O'pkadan chiqayotgan havo o'g'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchramaydi	O'pkadan chiqayotgan havo o'g'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchraydi
Bo'g'in hosil qiluvchi asosiy vosita. Yakka o'zi va undoshlar bilan birga bo'g'in hosil qiladi: <i>o-na</i> , <i>kL1ob</i> kabi	Yakka o'zi bo'g'in hosil qilmaydi, faqat unlilar bilan bo'g'in hosil qila oladi: <i>non</i> , <i>sabr</i> kabi

O'ZBEK ALIFBOSI

Bosma shakli	Yozma shakli	Bosma shakli	Yozma shakli	Bosma shakli	Yozma shakli	Bosma shakli	Yozma shakli
A a	<i>Aa</i>	J j	<i>Jj</i>	R r	<i>Rr</i>	O' o'	<i>Oo</i>
B b	<i>Bb</i>	K k	<i>Kk</i>	S s	<i>Ss</i>	G' g'	<i>Gg</i>
D d	<i>Dd</i>	L l	<i>Ll</i>	T t	<i>Tt</i>	Sh sh	<i>Shsh</i>
E e	<i>Ee</i>	M m	<i>Mm</i>	U u	<i>Uu</i>	Ch ch	<i>Chch</i>
F f	<i>Ff</i>	N n	<i>Nn</i>	V v	<i>Vv</i>	ng	<i>ng</i>
G g	<i>Gg</i>	O o	<i>Oo</i>	X x	<i>Xx</i>	'	'
H h	<i>Hh</i>	P p	<i>Pp</i>	Y y	<i>Yy</i>	(tutuq	
I i	<i>Ii</i>	Q q	<i>Qq</i>	Z z	<i>Zz</i>	belgisi)	

YOZUVLARIMIZ TARIXI

So'g'd yozuvi	Eramizdan oldingi III asrdan eramizning VII asrigacha yozilgan eroniy tildagi matnlarda uchraydi. Bu yozuvda 18 belgi bo'lgan
O'rxun-Enasoy yozuvi	V–VIII asrlarda qo'llanilgan. O'rxun-Enasoy yodgorliklari shu yozuvda bitilgan. Matn o'ngdan chapga qarab o'qilgan. Bu yozuvda jami 35 ta belgi bo'lgan, shundan 4 tasi 8 ta unli tovushni, qolganlari (31) undosh tovushlarni ifodalagan
Uyg'ur yozuvi	VI–XV asrlarda ishlatilgan. Qadimgi budda yodgorligi «Oltin yorug», turkiy tildagi «Me'rojnom», «Qutadg'u bilig», «Hibat ul-haqoyiq», «Muhabbatnoma» kabilar shu yozuvda bitilgan. Matn chapdan o'ngga qarab o'qilgan. Bu yozuvda 18 ta belgi bo'lib, shulardan uchtasi unli tovushlarni ifodalagan
Arab alifbosi asosidagi eski o'zbek yozuvi	XIII asrdan XX asrning 20- yillarigacha qo'llanilgan. Bu yozuvda o'zbek mumtoz adabiyoti namunalari yozilgan. Matn chapdan o'ngga qarab o'qilgan. Bu alifbodagi 32 harf 109 shaklga (o'rniga ko'ra 4 xil) ega
Lotin alifbosi asosidagi o'zbek yozuvi	1920–1940- yillarda qo'llanilgan. Matn o'ngdan chapga qarab o'qilgan. Bu yozuvda jami 30 ta belgi bo'lgan, shundan 6 tasi unli, 24 tasi undosh tovushlarni ifodalagan
Kirill alifbosi asosidagi o'zbek yozuvi	Bu yozuv 1940- yil (8- may)dan boshlab ishlatilmoqda. 1954- yil 10- aprelda bu yozuvning imlo qoidalari tasdiqlangan. Bu yozuvda jami 35 ta harf bor, shundan 10 tasi unli tovushni, 23 tasi undosh tovushlarni ifodalaydi va ikkita (ь, ъ) diakritik belgi ishlatiladi
Lotin yozuvi asosidagi yangi o'zbek yozuvi	1993- yil 2- sentabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy qilish to'g'risida» Qaror qabul qildi. 1995- yil 6–7- mayda Oliy Kengash bu alifboga ma'lum o'zgartish kiritdi va shu yil 24- avgustda «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari» tasdiqlandi. Yangi alifboda 26 ta harf, 3 ta harflar birikmasi va bitta belgi (utuq belgisi) bor



TALAFFUZ VA IMLO ME'YORLARI (ORFOEPIYA VA ORFOGRAFIYA)

YOZUV TAMOYILLARI

Yozuv tamoyillari	Izohi	Misollar
1. Fonetik yozuv tamoyili	Soʻz va uning tarkibiy qismlarini ogʻzaki nutqqa, talaffuzga mos ravishda yozish qoidasiga amal qilinishi	<i>tandir, choʻlka, shunga, parvoyim, avzoyi, terakka, ekkuncha, oqquncha, chiqqani</i>
2. Morfologik yozuv tamoyili	Soʻz va uning tarkibiy qismlari (asos va qoʻshimcha) qanday talaffuz qilinishidan qatʼi nazar, asliga muvofiq yozilishi taqozo qilinadi	<i>bargga, togʻga, boʻyoq, oʻynoqi, saylov, tilagi, tayogʻi, mazkur, maqsad, ulgʻaymoq, ogʻzaki, ikkov, sigʻuncha, tokqaychi, kun-u tun</i>
3. Shakliy yozuv tamoyili	Bu tamoyilda oʻzlashgan soʻzning shakli, oʻsha tildagi tovush va grafik belgilari saqlanadi	<i>mushoira, muammo, vaʼda, aeroflot, shtamp, shtraf, zoologiya, kioska, sunʼiy, oilaviy, Navoiy</i>
4. Tarixiy-anʼanaviy yozuv tamoyili	Soʻz hozirgi holatiga koʻra emas, balki qadimdan oʻzlashib qolgan shaklida, anʼana tusiga kirib qolgan qoidaga asosan yoziladi	<i>taqozo, ohursiz, boʻlibdur, oʻqitgʻali, Chor Rossiyasi, tamagir, taqiqqlamoq, moʻjiza, moʻtadil, moʻtabar</i>
5. Farqlash yozuvi tamoyili	Talaffuzda bir-biridan aniq farqlanmaydigan yoki farqi sezilmaydigan darajadagi soʻz (shakldosh, paronim) yoki qoʻshimcha yozuvda maxsus qoida bilan ajratilib yoziladi	<i>daʼvo – davo, nashʼa – nasha, sheʼr – sher, surʼat – surat, taʼqib – taqib, otalik – otaliq; boʻshlik – boʻshliq, barmoq – bormoq</i>

UNLI TOVUSHLAR TALAFFUZI VA IMLOSI

Tovush	Talaffuzi	Imlosi
	<p><i>A a</i> unlisi sayoz til orqqa <i>k, g</i> undoshi bilan yonma-yon kelganda yumshoq va ingichka unli tarzida (<i>kam. katta, gap, gal, gazlama, kayfiyat</i> kabi), chuqur til orqqa <i>q, g', x</i> undoshi bilan yondosh qo'llanilganda esa yo'g'on unli tarzida (<i>qalam, qarg'a, qasida, g'am, g'alvir, xalq, xabar. xat</i> kabi) talaffuz etiladi</p>	<p><i>A a</i> unlisi bilan tugagan fe'lga <i>ay, ayil, qil</i> qo'shimchasi qo'shilganda <i>a</i> unlisi <i>ay</i> aytiladi va shunday yoziladi: <i>sayla – saylov, sina – sino, aya – ayovsiz; so'ra – so'ro, bo'ya – bo'yoq; o'yna – o'ynoq, sayra – sayroq</i> kabi</p>
	<p>1) quyi keng, kuchsiz lablangan unli tarzida talaffuz qilinadi: <i>tosh, bahor, somon. shamol</i> kabi. Shevada va jonli tilda bu unlining urg'usiz bo'g'inda <i>ay</i> ga yaqin talaffuz qilinishi ham uchraydi: <i>somon > samon, dovon > davon</i> kabi, ammo bu hol adabiy talaffuz (orfoepik me'yor) hisoblanmaydi;</p> <p>2) sayoz til orqqa <i>k, g</i> undoshlaridan so'ng yumshoq: <i>kosib, kotib, gov, govmish</i> kabi; chuqur til orqqa <i>q, g', x</i> undoshidan so'ng esa yo'g'on unli tarzida talaffuz qilinadi: <i>qoshiq, qolip, qobil, g'ov, g'ovlamoq</i> kabi;</p> <p>3) <i>y</i> va <i>h</i> undoshi bilan yondosh qo'llanganda ham <i>e</i> unlisi bir oz yumshoq, ingichka unli holida talaffuz etiladi: <i>yor, hokim</i> kabi</p>	<p>1. <i>Son, ot, yosh, ong</i> kabi so'zlardan <i>-o, -la</i> qo'shimchlari orqali fe'l yasalganda <i>ay</i> tovushi <i>ay</i> ga almashadi: <i>sana, at, yasha, angla</i> kabi.</p> <p>2. Unli bilan tugab, unli bilan boshlanuvchi ikki o'zak (asosan, fe'l)ning qo'shilishi natijasida bu so'zlarda <i>ay</i> tushirilib, <i>ay</i> tovushi bilan qo'shib yoziladi: <i>yoza oladi – yozoladi, bora oladi – boroladi</i> kabi</p>

Tovush	Talaffuzi	Imlosi
E e	Soʻz va boʻgʻin boshida kengroq (<i>erkin, ekin, eslamogʻ kabi</i>), boʻgʻin ichida bir oz torroq (<i>kecha, beda, tekin, sekin kabi</i>) talaffuz qilinadi. E e unlisi <i>feruz, dehqon, telefon, adres</i> kabi soʻzlarda i tovushiga yaqin aytiladi	Jonli tilda i tovushiga yaqin talaffuz qilinsa ham, doim e tarzida yoziladi. Ayrim olinma soʻzlarda ye tarzida aytiladi va shunday yoziladi: <i>podyezd</i> kabi
Oʻ o	1) bir boʻgʻinli soʻzda, shuningdek, koʻp boʻgʻinli soʻzning urgʻusiz boʻgʻinida qisqa talaffuz etiladi: <i>boʻr, roʻmol, soʻroq</i> kabi; 2) takroriy soʻzning birinchi qismida (urgʻuli boʻgʻinda) choʻziq talaffuz qilinadi: <i>koʻp-koʻp, zoʻr-zoʻr, moʻl-moʻl</i> kabi; 3) sayoz til orqa k, g, til oʻrta y va boʻgʻiz undoshi (h)dan soʻng torroq unli tarzida: <i>koʻl, goʻr, hoʻl, yoʻl</i> kabi; chuqur til orqa q, gʻ, x undoshlaridan soʻng kengroq unli tarzida talaffuz etiladi: <i>qoʻl, gʻoʻr, xoʻr, qoʻr</i> kabi	Asosan, soʻzning birinchi boʻgʻinida keladi. Koʻp soʻzlarning birinchi boʻgʻinida oʻ unlisi kelsa, ikkinchisida i yoziladi: <i>koʻprik, boʻlim, moʻmin</i> kabi
U u	1) k, g, y undoshidan keyin ingichka: <i>kul, atirgul, yuk</i> kabi; q, gʻ, x undoshidan soʻng esa yoʻgʻon talaffuz qilinadi: <i>qul, norgʻul, xulq</i> kabi; 3) -uvchi, -uv qoʻshimchasi tarkibida choʻziqroq aytiladi: <i>yo-zuvchi, oʻquvchi, toʻquvchi, oluv, qoʻshuv</i> kabi	Quyidagi hollarda u unlisi i tovushiga moyilroq aytilsa ham, u yoziladi: 1) oldingi boʻgʻinlarida a, o, u unllaridan biri va soʻnggi yopiq boʻgʻin boshida y tovushidan keyin: <i>qovun, lovulla, tarvuz, quvur</i> kabi; 2) birinchi boʻgʻinida u, y boʻlgan soʻzlarning ikkinchi boʻgʻinida: <i>uzun, yashil, yutuq, vogʻdu, uy</i> kabi.

Tovush	Talaffuzi	Imlosi
<i>li</i>	<p>1) bir bo'g'inli so'zda qisqa va ingichka talaffuz qilinadi: <i>til, tish, bil, sir</i> kabi;</p> <p>2) <i>q, g', x</i> undoshlari bilan yondosh qo'llanganda yo'g'on talaffuz etiladi: <i>qish, g'isht, xil</i> kabi;</p> <p>3) <i>y, ng</i> undoshidan oldin ingichka va bir oz cho'ziq talaffuz etiladi: <i>chiy, kiy, ming</i> kabi;</p> <p>4) <i>l, r</i> undoshidan oldin kelgan <i>i</i> unlisi bilinar-bilinmas talaffuz qilinadi: <i>bilan, biroq, sira, tilak, gilam, gilos</i> kabi</p>	<p><i>I i</i> unlisi bilan tugagan ko'pchilik fe'llarga <i>-v, -vchi, -q</i> qo'shimchasi qo'shilganda <i>i</i> unlisi <i>u</i> aytiladi va shunday yoziladi: <i>o'qi – o'quv, qazi – qazuv, sovi – sovuv</i> kabi. Lekin <i>i</i> unlisi bilan tugagan ayrim fe'llarga <i>-q</i> qo'shimchasi qo'shilganda bu unli <i>i</i> aytiladi va shunday yoziladi: <i>og'ri – og'riq, qavi – qaviq</i> kabi</p>

QATOR KELGAN UNLILAR TALAFFUZI VA IMLOSI

Tovush	Talaffuzi	Misollar
<p>Qator kelgan <i>ao, oa, oi, ua, ai, ea, uo</i> unli-lari</p>	<p>Arab tilidan o'zlashgan ayrim so'zlar tarkibida unli <i>ao, oa, oi, ua, ai, ea, uo</i> ko'rinishida qator kelishi mumkin. Bunda ular yo bir unli tarzida talaffuz qilinishi, yoki orasiga undosh tovush qo'shib talaffuz qilinishi mumkin: <i>muallim > malim, soat > sohat</i> yoki <i>soat > sog'at</i></p>	<p><i>faoliyat, faol, maorif, kakao, baobro'</i>; <i>jamoat, soat, itoat, qiroat; doimiy, doimo, shoir, mushoira; majmua, memuar, muallaq; nainki, nimaiki; voqea; muomala</i></p>
<p><i>aa, oo, ii, uu</i> qo'sh unli-lari</p>	<p>Arab tilidan o'zlashgan ayrim so'zlar tarkibida unli-lar qo'shaloq tarzda kelganda nisbatan cho'ziq talaffuz etiladi</p>	<p><i>manfaat, matbuat, mudofaa, murojaat, taajjub, taalluqli, taasurot; inshoot; badiiy, tabiiy; shuur</i></p>

AYRIM UNDOSH TOVUSHLAR TALAFFUZI VA IMLOSI

Tovush	Talaffuzi	Imlosi
<i>B b</i>	<p><i>B b</i> jarangli undoshi soʻz oxirida jarangsiz <i>p</i> tarzida talaffuz etiladi, bu hol oʻzbek adabiy talaffuzi uchun meʼyor hisoblanadi: <i>kitob</i> > <i>kitop</i>, <i>borib</i> > <i>borip</i>, <i>yoziib</i> > <i>yozip</i> kabi.</p> <p><i>B b</i> undoshi jarangsiz undosh bilan yonma-yon qoʻllanganda assimilatsiyaga uchrab, <i>p</i> holida talaffuz etiladi, bu hol ham adabiy talaffuz meʼyori hisoblanadi: <i>ibtidoiy</i> > <i>iptidoiy</i> kabi</p>	Talaffuzda <i>p</i> kabi jarangsizlashuvidan qatʼi nazar, doimo asos va qoʻshimchalar tarkibida <i>b</i> yoziladi
<i>V v</i>	<i>V v</i> undoshi chetdan kirgan <i>avtobus</i> , <i>avtomat</i> , <i>Ivanov</i> kabi soʻzlarida <i>f</i> kabi aytiladi. Sof oʻzbekcha soʻzlarda soʻz boshida qoʻllanmaydi	Asliga muvofiq <i>v</i> yoziladi
<i>F f</i>	<i>F f</i> undoshi <i>fakt</i> , <i>taft</i> kabi soʻzlarda <i>p</i> kabi aytiladi	Asliga muvofiq <i>f</i> yoziladi
<i>Z z</i>	<i>Z z</i> undoshi jonli nutqda jarangsizlashib <i>s</i> kabi aytiladi. Bunda yonidagi tovush taʼsiri kuchli boʻladi: <i>sakkizta</i> > <i>sakkista</i> , <i>tuzsiz</i> > <i>tussiz</i> , <i>izchil</i> > <i>ischil</i> , <i>boramiz</i> > <i>boramis</i> kabi	Asliga muvofiq <i>z</i> yoziladi

Tovush	Talaffuzi	Imlosi
G g	<p>G g undoshi <i>k, q</i> bilan tugagan soʻzlarda <i>k</i> va <i>q</i> tarzida aytiladi: <i>ek + -gan = ekkān, chiq + -gan = chiqqān</i> kabi</p>	<p><i>-ga, -gacha, -gach, -guncha, -gani, -gudek, -gan, -gin, -gina</i> qoʻshimchalari uch xil aytiladi va shunday yoziladi: a) <i>k</i> va <i>q</i> undoshi bilan tugagan soʻzga qoʻshilganda bu qoʻshimchaning bosh tovushi <i>k</i> va <i>q</i> aytiladi va shunday yoziladi: <i>tokka, yoʻlakkacha, chopiqqa, qishloqqacha</i> kabi; d) qolgan barcha hollarda, soʻz qanday tovush bilan tugashidan va bu qoʻshimchaning bosh tovushi <i>k</i> yoki <i>q</i> aytilishidan qatʼiy nazar, <i>g</i> yoziladi: <i>bargga, pedagogga, bugʻga</i> kabi</p>
K k Q q Gʻ gʻ	<p>K <i>k</i> undoshi bilan tugagan soʻzlarga egalik qoʻshimchalari qoʻshilganda <i>k</i> undoshi <i>g</i> tarzida, <i>q</i> undoshi <i>gʻ</i> tarzida talaffuz qilinadi.</p> <p>Q <i>q</i> undoshi <i>maqsad, taqsinat, toʻqson, oqshom</i> kabi soʻzlarda <i>x</i> kabi aytiladi</p>	<p>K, <i>q</i> undoshi bilan tugagan koʻp boʻgʻinli soʻzlarga, shuningdek, <i>bek, yoʻq</i> kabi ayrim bir boʻgʻinli soʻzlarga egalik qoʻshimchasi qoʻshilganda <i>k</i> undoshi <i>g</i> undoshiga, <i>q</i> undoshi <i>gʻ</i> undoshiga aylanadi va shunday yoziladi: <i>tilak – tilaging, yurak – yuragim, kubok – kubogi, bek – begi; tayogʻ – tayogʻi, qoshiq – qoshiqʻi, yaxshiroq – yaxshiroqʻi, yoʻq – yoʻgʻi</i> kabi. Lekin koʻp boʻgʻinli oʻzlashma soʻzlarga, bir boʻgʻinli koʻpchilik soʻzlarga egalik qoʻshimchasi qoʻshilganda <i>k, q</i> tovushi aslicha aytiladi va yoziladi: <i>ishtirok – ishtiroki, ocherk – ocherki, erk – erki, huquq – huquqim, ravnaq – ravnaqi, yuq – yuqi</i> kabi</p>

Tovush	Talaffuzi	Imlosi
D d	<p><i>D d</i> jarangli undoshi soʻz oxirida jarangsiz <i>t</i> tarzida talaffuz etiladi, bu hol oʻzbek adabiy talaffuzi uchun meʼyor hisoblanadi: <i>savod</i> > <i>savot</i>, <i>obod</i> > <i>obot</i> kabi; <i>d</i> undoshi jarangsiz undosh bilan yonma-yon qoʻllanganda assimilatsiyaga uchrab, <i>t</i> holida talaffuz etiladi, bu hol ham adabiy talaffuz meʼyori hisoblanadi: <i>ketdi</i> > <i>ketti</i> kabi; <i>d</i> undoshi <i>xursand</i>, <i>farzand</i> kabi soʻzlarda undoshdan keyin kelganda esa talaffuzda tushib qoladi</p>	<p>Soʻz oxirida jarangsiz tovush tarzida aytilsa ham, doim asliga muvofiq <i>d</i> yoziladi</p>
T t	<p>Jonli nutqda <i>t</i> bilan tugagan soʻzlarga <i>ch</i> undoshi bilan boshlanuvchi qoʻshimchalar qoʻshilganda <i>t</i> ning <i>ch</i> ga oʻtishi kuzatiladi: <i>sutchi</i> > <i>suchchi</i>, <i>uyatchan</i> > <i>uyachchan</i> kabi</p>	<p>Jarangsiz aytilishidan qatʼi nazar, <i>-di</i>, <i>-yapti</i>, <i>-dir</i>, <i>-tir</i> qoʻshimchalari asliga muvofiq yoziladi</p>
J j	<p><i>J j</i> undoshining jarangsiz undoshlar taʼsirida <i>sh</i> deb talaffuz etilishi ham adabiy til uchun meʼyor: <i>ijtimoiy</i> > <i>ishtimoiy</i> kabi.</p> <p><i>J j</i> qorishiq undoshi <i>avj</i>, <i>mujda</i> soʻzlarida <i>ch</i> kabi aytiladi. <i>J j</i> sirgʻaluvchi undoshi chetdan kirgan <i>furajka</i>, <i>telejka</i>, <i>massaj</i> kabi soʻzlarda <i>sh</i> kabi aytiladi</p>	<p>Asliga muvofiq <i>j</i> yoziladi</p>

Tovush	Talaffuzi	Imlosi
H h, X x	<p><i>H h</i> bo'g'iz undoshi, asosan, arab-fors tillaridan olingan so'zlarda uchraydi va <i>x</i> ga nisbatan yumshoq talaffuz etiladi. Jonli nutqda o'zidan keyingi undosh kabi aytiladi yoki tushib qoladi: <i>mahkam</i> > <i>makkam</i>, <i>mahsi</i> > <i>massi</i>. <i>shahodatnoma</i> > <i>shoodatnoma</i> kabi. <i>X x</i> undoshi <i>q</i> ga moyilroq aytiladi: <i>axloq</i> > <i>aqloq</i>, <i>soxta</i> > <i>soqta</i> kabi</p>	<p>Har ikkala undosh qattiq (<i>x</i>) va yumshoq (<i>h</i>) aytilishiga ko'ra asliday yoziladi. <i>H h</i> undoshi, asosan, so'z boshida (<i>hazil</i>, <i>hukm</i>), unlilardan oldin kelgan <i>m</i>, <i>r</i>, <i>s</i>, <i>z</i> tovushlari yonida (<i>muhtoj</i>, <i>mehr</i>, <i>ruhan</i>, <i>rahmat</i>, <i>sulh</i>, <i>sahro</i>, <i>sehr</i>, <i>zahar</i>) yoziladi</p>
N n, M m	<p><i>N n</i> undoshi <i>manba</i>, <i>tanbur</i>, <i>shanba</i> kabi so'zda <i>m</i> kabi aytiladi. Bu tovushning o'zidan oldingi undosh ta'sirida o'zgarishi ham adabiy me'yorga zid: <i>gapni</i> > <i>gappi</i>, <i>ko'zni</i> > <i>ko'zzi</i> kabi</p>	<p>Asliga muvofiq <i>n</i>, <i>m</i> yoziladi. <i>Men</i>, <i>sen</i> olmoshlariga <i>-ni</i>, <i>-ning</i>, <i>-niki</i> qo'shimchalari qo'shilganda <i>men</i>, <i>sen</i> olmoshidagi <i>n</i> tovushi aytilmaydi va yozilmaydi: <i>meni</i>, <i>mening</i>, <i>meniki</i>; <i>seni</i>, <i>sening</i>, <i>seniki</i> kabi</p>
ng	<p><i>ng</i> tovushi so'z boshida uchramaydi, so'z o'rtasi va oxirida keladi: <i>manglay</i>, <i>ingramoq</i>, <i>ong</i>, <i>zang</i> kabi. <i>ng</i> tovushi <i>n</i> va <i>g</i> undoshiga ajratilib aytilmaydi</p>	<p>Bo'g'in ko'chirishda <i>ng</i> harflar birikmasi <i>n</i> va <i>g</i> ga ajratilmasdan keyingi satrga ko'chiriladi: <i>si-ngil</i>, <i>de-ngiz</i> kabi</p>

Y y	<p>Y y tovushi ba'zan <i>d, t, z</i> ga o'xshab aytiladi: <i>keyin > ketin, yoymoq > yozmoq</i> kabi. <i>Parvo, obro', mavqe, mavzu, avzo</i> so'zlariga I, II shaxs egalik qo'shimchasi qo'shilganda bir y tovushi qo'shib aytiladi: <i>parvoyingiz; obro'yim</i></p>	<p>1) <i>parvo, obro', mavqe, mavzu, avzo</i> so'zlariga I, II shaxs egalik qo'shimchasi qo'shilganda bir y tovushi qo'shib yoziladi: <i>parvoyim, parvoyimiz, obro'ying, obro'yingiz</i> kabi; 2) III shaxs egalik qo'shimchasi <i>parvo, avzo, obro', mavqe</i> so'zlariga <i>-yi</i> shaklida, <i>xudo, mavzu</i> so'zlariga esa <i>-si</i> shaklida qo'shiladi: <i>xudosi, avzoyi, mavqeyi, dohiysi</i> kabi</p>
-----	--	--

QO'SH VA QATOR KELGAN UNDOHLAR TALAFFUZI VA IMLOSI

Undoshlar	Talaffuzi	Imlosi
Qo'sh undoshlar	<p>Talaffuzda qo'sh undoshlardan birining aytilmasligi adabiy me'yorga ziddir. O'zbek tilida undoshlarning qo'shaloq kelishi ko'proq so'z o'rtasida, olinma so'zlar (rus tili orqali)da so'z oxirida uchraydi</p>	<p>Qo'sh undoshlardan biri aytilmasa ham, asliday yoziladi: <i>malla, do'ppi, shovvoz, tizza, muddat, lazzat, sakkiz, billur, mukka, jizza, taraddud, pilla, gamma, gramm, metall</i> kabi.</p> <p><i>Metall, kilogramm, kilovatt, kongress</i> kabi o'zlashma so'zlarga <i>-ko'plik, egalik, kelishik</i> qo'shimchalari qo'shilsa, so'z oxiridagi bir harf yozilmaydi: <i>metall + -lar = metallar, kilogramm + -i = kilogrami</i> kabi</p>
Qator kelgan undoshlar	<p>Qator kelgan undoshlar yondosh tovush ta'sirida o'zgarishga uchrab aytilishi adabiy me'yorga ziddir: <i>so'zsiz > so'ssiz, uchta > ushta, aytdi > aytti</i> kabi</p>	<p><i>Baland, Samarqand, poyezd; do'st, artist, g'isht</i> kabi so'zlarda <i>d, t</i> tovushi ba'zan aytilmasa ham, yoziladi</p>

TUTUQ BELGISINING ISHLATILISHI

Ishlatilish o'rni	Vazifasi	Misollar
Unidan keyin	<p>1. Unidan keyin qo'yilgan tutuq belgisi unlining cho'ziqroq aytilishini ifodalaydi.</p> <p>2. Ayrim so'zlarda o'unlisi cho'ziqroq aytilsa ham, tutuq belgisi qo'yilmaydi</p>	<p>1) <i>a'lo, a'yon, ba'zan, ma'yus, ta'zim, sa'va, ta'b; e'lon, e'tibor, e'tiqod, me'mor, ne'mat, she'r, fe'l, ta'na, shu'la, ra'no</i></p> <p>2) <i>mo'jiza, mo'tadil, mo'tabar</i></p>
Unidan oldin	Unidan oldin qo'yilgan tutuq belgisi unlini undoshdan ajratib talaffuz etilishini ifodalaydi	<i>san'at, in'om, sur'at, qat'iy, mas'ul, qal'a, jur'at, juz'iy</i>
Ikki tovushni ifodalagan <i>s</i> va <i>h</i> harflari yonmayon kelganda	<i>S</i> va <i>h</i> harflari o'rtasiga qo'yilgan tutuq belgisi ularning har biri alohida tovush ekanligini ifodalaydi	<i>Is'hoq, as'hob, mus'haf</i>

CHIZIQCHA – IMLO BELGISINING ISHLATILISHI

Ishlatilish o'rni	Misollar
Bo'g'in ko'chirishda	<i>to'q-son, aba-diy, va'-da, ko'-ngil</i>
Juft va takroriy so'zlar orasida	<i>el-yurt, baland-baland, bordi-keldi</i>
<i>(-ya), -chi, -u (-yu), -ku, -du</i> yuklamalaridan oldin	<i>sen-a, ko'r-chi, kecha-yu kunduz, do't-u dushman, bor-ku, yaxshi-da</i>
Bilan, uchun ko'makchilarining qisqargan shakllarini (<i>-la, -chun</i>) ajratish uchun	<i>sen-la, uning-chun, yor-la bo'lmoq, non-la suv, Vatan-chun xizmat qilmoq</i>
Arab tiliga xos tarkibli nomlarni yozishda	<i>«Hayrat ul-abror», «Ravzat us-safo», «Mantiq ul-tayr»</i>
Qo'shimchalarning old yoki ort qo'shimcha ekanligini ko'rsatish uchun	<i>-en, -siz qo'shimchlari so'zlarga orqa, ba-, be- qo'shimchalari old tomondan qo'shib yoziladi</i>
Tartib sonlardan (faqat arab raqami) keyin (<i>tinchi</i>) qo'shimchasi o'rinda	<i>1987- yil, 23- yanvar, 1- bob, 42- modda, 9- sinf, 102- band</i>

TOVUSH O'ZGARISHLARI

Turlari	Talaffuzi	Imlosi
Tovush tushishi	<p>a) undoshlar soʻz oxirida yonma-yan kelganda, talaffuzda oxirgi undosh tushib qoladi: <i>rost</i> > <i>ros</i>, <i>goʻsht</i> > <i>goʻsh</i>, <i>xursand</i> > <i>xursan</i> kabi;</p> <p>b) unli soʻz oʻrtasida kelganda, talaffuzda tushib qoladi: <i>nima</i> > <i>nma</i>, <i>qirov</i> > <i>qrov</i>, <i>ulgʻ</i> > <i>ulgʻay</i>, <i>ayta olmadi</i> > <i>aytolmadi</i> kabi;</p> <p>d) <i>y</i> undoshi soʻz boshida kelganda talaffuzda tushib qoladi: <i>yigna</i> > <i>igna</i>, <i>yirolq</i> > <i>iroqlq</i> kabi</p>	<p>a) ikki boʻgʻinli ayrim soʻzlarga egallik qoʻshimchalari qoʻshilganda, <i>i</i>, <i>a</i> unli tushib qoladi va shunday yoziladi: <i>oʻrin</i> – <i>oʻrni</i>, <i>qorin</i> – <i>qorni</i>, <i>shahar</i> – <i>shahri</i> kabi;</p> <p>b) unli bilan tugagan sonlarga <i>-ov</i>, <i>-ovlon</i>, <i>-ala</i> jamlovchi son qoʻshimchalari qoʻshilganda unli tushib qoladi va shunday yoziladi: <i>ikki</i> – <i>ikkov</i>, <i>yetti</i> – <i>yettovlon</i>, <i>olti</i> – <i>oltala</i> kabi;</p> <p>d) <i>men</i>, <i>sen</i> olmoshlariga <i>-n</i> bilan boshlanuvchi qoʻshimchalar qoʻshilganda, <i>men</i>, <i>sen</i> olmoshlaridagi <i>n</i> undoshi tushib qoladi va shunday yoziladi: <i>men</i> – <i>mening</i>, <i>sen</i> – <i>seni</i>, <i>men</i> – <i>meniki</i> kabi</p>
Tovush orttirilishi	<p>a) ikki unli orasida <i>y</i> undoshi orttiriladi: <i>oid</i> > <i>oyid</i>, <i>shoir</i> > <i>shoyir</i>, <i>doim</i> > <i>doyim</i> kabi;</p> <p>b) ikki undosh orasida unli orttiriladi: <i>hukm</i> > <i>hukum</i>, <i>arslon</i> > <i>arislon</i>, <i>ilm</i> > <i>ilim</i> kabi;</p> <p>d) ayrim olinma soʻzlar boshida yoki oxirida unli orttiriladi: <i>stakan</i> > <i>istakan</i>, <i>roʻza</i> > <i>oʻraza</i>, <i>tank</i> > <i>tanka</i> kabi</p>	<p>a) <i>u</i>, <i>bu</i>, <i>shu</i>, <i>oʻsha</i> olmoshlariga <i>-ga</i>, <i>-gacha</i>, <i>-da</i>, <i>-dan</i>, <i>-day</i>, <i>-cha</i>, <i>-gacha</i> qoʻshimchalari qoʻshilganda <i>n</i> tovushi orttiriladi: <i>u</i> – <i>unga</i>, <i>shu</i> – <i>shungacha</i>, <i>bu</i> – <i>bunday</i> kabi;</p> <p>b) <i>u</i>, <i>bu</i>, <i>shu</i>, <i>oʻsha</i> olmoshlariga egallik qoʻshimchalari quyidagicha qoʻshiladi: <i>buningiz</i>, <i>oʻshanisi</i>; <i>bunimiz</i> kabi;</p> <p>d) <i>parvo</i>, <i>obroʻ</i>; <i>mavqe</i>, <i>mavzu</i>, <i>avzo</i> soʻzlariga I, II shaxs egallik qoʻshimchasi qoʻshilganda bir <i>y</i> tovushi qoʻshib aytiladi va shunday yoziladi: <i>parvoyim</i>, <i>obroʻying</i>; <i>avzoyimiz</i>, <i>mavqeying</i> kabi</p>

Turlari	Talaffuzi	Imlosi
Tovush jarangsizlashuvi	<p>Undosh tovushlar, odatda, soʻz oxirida jarangsizlashadi: <i>band</i> > <i>bant</i>, <i>barg</i> > <i>bark</i>, <i>aytib</i> > <i>aytip</i>, <i>Ahmedov</i> > <i>Ahmedof</i>, <i>massaj</i> > <i>massash</i> kabi.</p>	<p>Soʻz oxirida undosh tovushlarning jarangsizlashuvidan qatʼi nazar, asliday yoziladi</p>
Tovush oʻzgarishi	<p>a) tovush moslashishi (assimilatsiya)da undoshlar taʼsirida bir tovush ikkinchisini oʻziga oʻxshash tovushga aylantiradi: <i>aytdi</i> > <i>aylti</i>, <i>tuzsiz</i> > <i>tussiz</i>, <i>mazkur</i> > <i>maskur</i>, <i>oqshom</i> > <i>oxshom</i> kabi;</p> <p>b) tovush nooʻxshashligi (dissimilatsiya)da ikki oʻxshash tovushning oʻzaro taʼsiri natijasida tovushlardan biri yoki har ikkisi nooʻxshash-tovushga aylanadi: <i>zarur</i> > <i>zaril</i>, <i>zarar</i> > <i>zalal</i>, <i>birorta</i> > <i>bironta</i>, <i>ahvol</i> > <i>avhol</i> kabi.</p>	<p>a) soʻz yasovchi qoshimcha taʼsirida <i>a</i> tovushi <i>o</i> ga oʻtadi va shunday yoziladi: <i>tara</i> – <i>taroq</i>, <i>sayla</i> – <i>saylov</i> kabi;</p> <p>b) soʻz yasovchi qoshimcha taʼsirida <i>o</i> tovushi <i>a</i> ga oʻtadi va shunday yoziladi: <i>ong</i> – <i>angla</i>, <i>son</i> – <i>sana</i>, <i>ot</i> – <i>ata</i>, <i>yosh</i> – <i>yasha</i> kabi;</p> <p>d) soʻz yasovchi qoshimcha taʼsirida <i>i</i> tovushi <i>u</i> ga oʻtadi va shunday yoziladi: <i>oʻqi</i> – <i>oʻquv</i>, <i>sovi</i> – <i>sovuq</i>, <i>quri</i> – <i>quruq</i> kabi;</p> <p>e) egalik qoshimchasi taʼsirida <i>k</i> tovushi <i>g</i> ga, <i>q</i> tovushi <i>gʻ</i> ga oʻtadi va shunday yoziladi: <i>yurak</i> – <i>yuragi</i>, <i>tilak</i> – <i>tilagi</i>, <i>oʻroq</i> – <i>oʻrogʻi</i>, <i>tirnoq</i> – <i>tirnogʻi</i> kabi</p>

BO'G'IN TURLARI

Ochiq bo'g'in	Yopiq bo'g'in
So'zning bir nafas zarbi bilan aytiladigan tovush yoki tovush birikmasidan iborat qismi <i>bo'g'in</i> deyiladi. Masalan, <i>otamiz</i> so'zida uch bo'g'in bor: <i>o-ta-miz</i> . Unli bilan tugagan bo'g'in <i>ochiq bo'g'in</i> deyiladi: <i>o-na, o-ta, o-pa</i>	Undosh bilan tugagan bo'g'in <i>yopiq bo'g'in</i> deyiladi: <i>mak-tab, rah-bar, shax-mat</i>

BO'G'IN KO'CHIRISH

Bo'g'in ko'chirish qoidalari	Misollar
1. So'z boshidagi bir harfdan iborat bo'g'in yolg'iz o'zi oldingi satrda qoldirilmaydi	<i>a-badiy</i> emas, <i>aba-diy</i> ; <i>e-shikdan</i> emas, <i>eshik-dan</i>
2. So'z oxiridagi bir harfdan iborat bo'g'in yolg'iz o'zi keyingi satrga ko'chirilmaydi	<i>mudofa-a</i> emas, <i>mudo-faa</i> ; <i>matba-a</i> emas, <i>mat-baa</i>
3. Tutuq belgisi oldingi bo'g'inda qoldiriladi	<i>va'-da, ma'-rifat, mash'-al, in'-om</i>
4. Bir tovushni ko'rsatuvchi harflar birikmasi (<i>sh, ch, ng</i>) birgalikda ko'chiriladi	<i>pe-shayvon, pe-shona, mai-shat, pi-choq, bi-chiqchi, si-ngil, de-ngiz</i>
5. Bosh harfdan yoki bo'g'inga teng qism va bosh harflardan iborat qisqartma, shuningdek, ko'pxonali raqam satrdan satrga bo'lib ko'chirilmaydi	<i>AQSH, BMT, ToshDU, 16, 245, 1994, XIX</i>
6. Harfdan iborat shartli belgi o'zi tegishli raqamdan ajratib ko'chirilmaydi	<i>5- «A» sinf, V «B» guruhi, 110 gr, 15 ga, 105 m, 25 sm, 90 mm</i>
7. Atoqli ot tarkibiga kiradigan raqamlar atoqli otdan ajratilgan holda keyingi satrga ko'chirilmaydi	<i>«Nihol-2012», «Tashabbus-98», «Buxoro-5», «Boing-767»</i>

Bo'g'in ko'chirish qoidalari	Misollar
8. Ism va ota ismining birinchi harfiga teng qisqartmalar familiyadan va taxallus so'zlari esa bir-biridan ajratib ko'chirilmaydi	<i>I. A. Karimov. G. Saidova; Alisher Navoiy, Rauf Parfi</i>
9. Harfiy qisqartmalar oldingi so'zdan ajratib ko'chirilmaydi	<i>v. b. (va boshqalar), sh. k. (shu kabi)</i>
10. Ikki undosh qator kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko'chiriladi, uchta bo'lsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldiriladi	<i>dia-gramma, mono-grafiya; silindrik</i>

URG'U TURLARI

So'z urg'usi	Gap urg'usi
So'zdagi biror bo'g'inning boshqalariga qaraganda kuchliroq, cho'ziqroq talaffuz qilinishi so'z urg'usidir. O'zbek tilida so'z urg'usi, asosan, oxirgi bo'g'inga (qo'shimcha qo'shilganda ham) tushadi. Bunda ikki vazifani bajaradi: a) so'z bo'g'inidan biriga tushib, uning kuchliroq talaffuzini belgilab beradi: <i>zakovát, yozuvchidán, dahlargá</i> b) ma'noni farqlaydi: <i>olma</i> – ot, <i>olma</i> – fe'l	Gapdagi so'zlardan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq talaffuz qilinishi gap (mantiqiy) urg'usidir. Bunday urg'u gapda qaysi so'zga tushgan bo'lsa, so'zlovchi tinglovchining diqqatini shu so'zga tortmoqchi ekanligini bildiradi. Mantiqiy urg'u ko'pincha kesimdan oldingi so'zga tushadi: <i>Ertalab biz keldik. – Biz ertalab keldik. – Biz ertalab keldik</i> To'liqsiz gapda gap urg'usi olmagan bo'lak tushiriladi

URG'U TUSHISHI

Urg'u oxirgi bo'g'inga tushadigan holatlar	Urg'u oxirgi bo'g'inga tushmaydigan holatlar	Urg'u olmaydigan qo'shimchalar
1. O'zbek tiliga xos so'zlarning aksariyatida: <i>teruvchi, kitob-xongá</i>	1. Olmoshlarda: <i>bárcha, hámma, qáysi, hár bir, kímdir, álla-kim, héch narsa</i>	1. Birinchi guruh shaxs-son (sintaktik shakl hosil qiluvchilar) qo'shimchalari: <i>-man, -san, -dir, -miz, -siz</i>
2. Juft so'zlarning ikkinchi qismida: <i>ota oná, bola chaqá</i>	2. Modal so'zlarda: <i>albátta, afsuski, zero, só'zsiz, chamási</i>	2. Bo'lishsizlik qo'shimchasi: <i>-ma</i>
	3. Fe'ning buyruq shaklida: <i>gápir, ó'tir, boshla, kélsin</i>	3. Yuklamalar: <i>-u, -yu, -ku, -mi, -chi, -yoq, -oq, -gina</i>
	4. Ayrim yordamchi so'zlarda: <i>lékin, ámmo, chunki, gárcchi</i>	4. Dona va chama son yasovchilar: <i>-ta, -tacha</i>
	5. Arab-fors til-laridan o'zlashgan ravishlarda: <i>áslo, yángi, hózir, dóim</i>	5. Ravish yasovchil-lar: <i>-cha, -day, -dek</i>
	6. Tarkibli sonlarda: <i>ón ikki, ón besh, yígir-ma uch</i>	6. Ota ismi va fami-liyaga qo'shiluvchi qo'shimchalar: <i>-on, -ova, -yev, -yeva, -yev-ich, -yavna</i>
	7. Qo'shma va ko'makchi fe'lli so'z qo'shimalarida: <i>sotib oldi, yozib oldi, béríb vubordi</i>	
	8. Takror so'zlarda: <i>kátta-kátta, ásta-ásta</i>	

LEKSIKOLOGIYA

O'ZBEK TILINING LUG'AVIY QATLAMLARI

Lug'aviy qatlamlar	Qatlamga oid so'zlar guruhlari	O'zlashish usuli	Misollar
	Umumturkiy so'zlar	Qadimdan ishlatilib kelinayotgan bolib, asosan, bir va ikki bo'g'inli tub so'zlardan iborat	<i>bosh, qosh, qo'l, yer, bur, ikki, uch, bobo, ona, bola, qora, burun, etak, bo'l, ol, kel</i>
I. O'z qatlam	O'zbekcha so'zlar	O'zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida paydo bo'lgan so'zlardir. Olinma so'zlarga o'zbekcha qo'shimchlar qo'shib yasalgan so'zlar ham o'zbekchadir. O'zbekcha so'zlar <i>r, l, v, h</i> tovushlari bilan boshlanmaydi va ularda <i>f, h, j</i> (sirg'aluvchi) tovushlari, unidan keyin keluvchi tutuq belgisi qatnashmaydi	<i>adash, ayovsiz, bari, bedana, buyurtma, dala, durkun, narsa, ovsar, oldin, olomon, paxta, pichan, sanchiq, tancha, ishchan, undalma, yozuvchi, yoqilg'i, gulchilik, purkagich, tennischi, asfaltlamoq</i>

Lug'aviy qatlamlar	Qatlamga oid so'zlar guruhlari	O'zlashish usuli	Misollar
II. O'zlashgan qatlam	Forscha-tojikcha so'zlar	Fors-tojik tilidan so'zlar tovush o'zgarishlarisiz olingan. Ko'pchiligi ijtimoiy sohaga tegishli. So'z o'rtasi va oxirida qo'sh undoshlar keladi; tarkibida <i>no-, ba-, be-, ham-</i> kabi old qo'shimchalari bo'ladi	<i>andisha, barg, bahor, daraxt, farzand, dutor, daromad, ozoda, kabutar, noma'lum, bedarvoza, hamkasb</i>
	Arabcha so'zlar	Arab tilidan o'zlashgan so'zlarning ko'pchiligi fan va dinga oid bo'lib, asosiy qismi fors tili orqali kirgan. <i>A, u, i</i> unlilarining qisqa va cho'ziq, <i>t, s, z, x, h</i> tovushlarining bir necha variantlari o'zbek tiliga bir tovush ravishida moslashtirib olingan	<i>adabiyot, kitob, oila, davlat, mehnat, mutolaa, qassob, muqaddas, san'at, inshoot, taassub, a'lo, mutolaa, doim</i>
	Ruscha-baynalmilal so'zlar	Rus tili va u orqali g'arb tillaridan o'zlashgan so'zlar fan-texnika, siyosiy-iqtisodiy sohalarga oid. Bu so'zlar ikki usulda: aynan va kalkalab olish bilan o'zlashgan. Bunday so'zlar o'rtasida undoshlar yonma-yon keladi, so'z oxirida qo'sh undoshlar, qorishiq tovushlar (<i>st, dj, shch, ya, yu, yo</i>), old qo'shimchalar ishlatiladi	<i>benzin, vokzal, stol, ruchka, deputat, drap, tort, dialekt, opera, sirk, silindr, agregat, avtoklub, diagramma, komissiya, budjet, samolyot, delegatsiya, sentabr, gipsakardon, konstitutsiya, metall, vakuum, interaktiv</i>

MA'NO IFODALOVCHI LUG'AVIY BIRLIKLAR

Lug'aviy birliklar nomi	Izohi	Misollar
So'z	Bir (faqat <i>u</i> olmoshi) va, asosan, bir necha harflar birikmasidan tuzilib, atash ma'nosini ifodalaydi, shuningdek, muayyan grammatik ma'noni bildiradi.	<i>gul, shirin, yurmoq, olti, olg'a, tashakkur, taq-tuq, balki, ammo, yuza, faqat</i>
Hura	Ma'nosi tarkibidagi so'zlarning ko'chma ma'nosidan kelib chiqadigan ikki va undan ortiq so'zlar qo'shilmasi	<i>ko'kka ko'tarmoq, tildan bol tommoq, mum tishlab qolmoq</i>
Tasviriy Hoda	Narsa yoki hodisaning boshqa bir narsa-hodisaga qiyoslab, obrazli tasvirlab ifodalangan shakli	<i>hayotimiz qomusi (konstitutsiya), baraka urug'i (chigit), kumush choyshab (qor)</i>

SO'ZLARNING TARIXIY JIHATDAN TASNIFI

Eskirgan so'zlar		Yangi so'zlar	
Tarixiy so'zlar	Arxiak so'zlar	Faol so'zlar	Yangi so'zlar
O'zi ifodalagan tushuncha bilan eskirgan va hozirgi tilda qo'llanmaydigan so'zlar: <i>so'na, qozi, gul, baqqol, o'lpon</i>	Eskirgan, ammo u bildirgan tushuncha saqlanib, hozirgi tilda boshqa so'z bilan ifodaladigan so'zlar: <i>ulus (xalq), til-moch (tarjimon), bitik (xat)</i>	Hozirgi tilda faol qo'llanadigan, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarining kundalik va dolzarb mavzulariga oid so'zlar: <i>ish, yaxshi, kel, dori, er-taga, rahmat</i>	Yangi tushunchalarni ifodalab, tilda yangilik belgisini saqlab turgan so'zlar: <i>majmua, tadbirkor, biznes reja, oromgoh, fayl, internet, slayd</i>

QO'LLANILISHI CHEGARALANGAN SO'ZLAR

So'z guruhlari	Izohi	Misollar
Atamalar	Ilm-fan doirasida qo'llaniladigan bir ma'noli so'zlar	<i>hujayra, kasr, il-dizpoya, kurtak</i>
Kasb-hunarga xos so'zlar	Kasb-hunar sohasida ishlatiladigan so'zlar	<i>pillachilik, plug, andava, jo'yak olmoq, pushtani keng olmoq</i>
Shevaga xos so'zlar	Muayyan hududda qo'llanilib, shu yerda yashovchilarga tushunarli bo'lgan so'zlar	<i>mo'rcha (chumolij), uchak (tom), inak (sigir), shoti (narvon)</i>
Jargonlar va argolar	1. Fransuzcha <i>jargon</i> «buzilgan til» ma'nosini bildirib, kasbi, jamiyatdagi o'rni, qiziqishi, yoshiga ko'ra alohida guruhni tashkil etgan kishilar ko'pchilikdan ajralib turish maqsadida ishlatadigan so'zlar	<i>g'isht (xunuk), sindirmoq (lol qilmoq), krutoy (ketvorgan), dum (qoloq), uxlatib ketmoq (aldamoq)</i>
	2. Fransuzcha <i>argot</i> «lahja» ma'nosini bildirib, ayrim professional yoki ijtimoiy guruhning o'ziga xos tili. Argo bir necha til unsuridan iborat qorishiq va, ko'p holda, boshqalarga tushunar-siz nutq ko'rinishida namoyon bo'ladi	<i>yakan (pul), hasut (non), maymun (oyna), timsoh (qaychi)</i>

SO'ZLARNING HISSIY-TA'SIRIY JIHATDAN TURLARI

Bo'yoqdor		Bo'yoqsiz
Ijobiy	Salbiy	
Narsa, belgi yoki hodisaga bo'lgan ijobiy (erkalash, suyish, tantanavorlik) munosabatni ifodalaydigan so'zlar: <i>chehra, kelishgan, ko'rkam, barkamol, jilmaymoq, qovillatmoq</i>	Narsa, belgi yoki hodisaga bo'lgan mensimaslik, nafrat, kinoya kabi salbiy munosabatni ifodalaydigan so'zlar: <i>bashara, beo'xshov, xunuk, xo'mraymoq, rasvo qilmoq</i>	Narsa, belgi yoki hodisagning o'zini ifodalab, bularga nisbatan so'zlovchining hech qanday munosabatini bildirmaydigan so'zlar: <i>yuz, katta, qaysar, osmon, kulmoq, toza, odam, xizmat qilmoq, uchrashmoq</i>

O'ZBEK TILINING BOYISH MANBALARI

Boyish usullari	Izohi	Misollar
Shevalardan so'z olish	O'z shevalaridan so'z olish o'zbek tili boyishining ichki imkoniyati bo'lib, bunda sheva so'zlari adabiy tilning so'z boyligiga aylanadi	<i>so'ri, handalak, arg'amchi, yelvizak, matal, naynov</i>
So'z yasash	O'zbekcha, shuningdek, olinma so'zlarga o'zbekcha qo'shimchalarni qo'shish orqali (ichki imkoniyat asosida) yangi so'z yasaladi	<i>birlashma, o'tkazma (pul), buyurtma, suyunchi, turg'un; tennischi, betonlamoq, gipslash</i>
Boshqa tillardan so'z olish	Boshqa tillardan yangi tushunchalarni ifodalovchi so'zlar olinadi. Bu usul tashqi imkoniyatlar asosida o'zbek tilining boyishi sanaladi	<i>mirob, xaridor, multolaa, avlod, internet, slayd, mashina, dizayn, investitsiya, kompaniya</i>

SO'ZLARNING ATASH MA'NOSIGA KO'RA TURLARI

Atash ma'nosiga ega bo'lgan so'zlar	Atash ma'nosiga ega bo'lmagan so'zlar
Fe'l, ot, sifat, son, ravish, taq- lidiy va ayrim undov so'zlar turku- miga kiruvchi lug'aviy birliklar	Bog'lovchi, ko'makchi, yuk- lama, modal so'zlar, undov so'zlar, tasdiq va inkor so'zlar

SO'Z MA'NOSINING TURLARI

Ma'no turlari	Izohi	Misollar
Lug'aviy (leksik) ma'no	So'zning biror narsa-hodi- sa, belgi-xususiyat, harakat- holat haqidagi tushunchani bildirishi uning lug'aviy (leksik), ya'ni atash ma'nosi deyiladi. So'zning leksik ma'nosi uning o'zak, negizida bo'ladi	<i>non</i> – «oziq-ovqat», <i>keldi</i> – «harakat», <i>qalam- don</i> – «qalam saqlanadi- gan idish»
Grammatik ma'no	So'zning biror so'z tur- kumiga xos belgisi, so'z birikmasi va gapdagi vazifa- sini ko'rsatuvchi xususiyati grammatik ma'no deyiladi. So'zning morfologik va sin- taktik xususiyati uning gram- matik ma'nosini tashkil etadi	<i>Olimlarga</i> so'zining gram- matik ma'nolari: – ot turkumiga oid; – turdosh, aniq, yakka ot; – ko'plik sonda (<i>-lar</i>); – jo'nalish kelishigida (<i>-ga</i>); – to'ldiruvchi (<i>vositali</i>) vazifasida
Uslubiy ma'no	So'zning turli xil nutq us- lubida (shuningdek, majoziy ma'nolarda) qo'llana olishini ifodalovchi ma'no uslubiy ma'nodir. So'zni o'rinsiz qo'llash uslubiy xatoga olib keladi	<i>Motor paragi haloday</i> (bir tekis, ravon) <i>aylanyapti</i> . <i>Bolalar raso</i> (<i>raso</i> so'zi uslubiy xato ishlatilgan, aslida, <i>rosa</i>) <i>to'p tepishdi</i> .

SO'ZNING TUZILISHIGA KO'RA TURLARI

Tuzilishi	Izohi	Misollar
Sodda	<p>Birgina o'zak (asos)dan tashkil topadi. Sodda so'zlar tub va yasama turga bo'linadi.</p> <p>1. So'z yasovchi qo'shimchasi bo'lmagan (shakl yasovchilar bo'lishi mumkin) so'z sodda tub so'zdir.</p> <p>2. Asosga so'z yasovchi qo'shimcha qo'shilishidan sodda yasama so'z hosil bo'ladi</p>	<p>1) <i>aql, tez, uyimiz, toshdan, ketma</i></p> <p>2) <i>aqli, tezlik, guldon, tinch, pasay, suvla</i></p>
Qo'shma	<p>Ikki yoki undan ortiq asos, mustaqil ma'noli so'zning qo'shiluvidan hosil bo'ladi va bitta umumiy tushunchani ifodalaydi. Ular <i>qo'shib</i> yoki <i>ajratib yoziladi</i></p>	<p><i>oybolta, devqomat, sheryurak, suvilon; ta'sir et, tamom bo'l, sotib ol, olib kel</i></p>
Juft	<p>Ikkita bir xil yoki har xil ma'noli asos (o'zak)ning ma'no va grammatik jihatdan teng bog'lanishidan hosil bo'ladi. Juft so'zlar umumlashtirish ma'nosini ifodalaydi. Tarkibidagi so'zlar ishtirokiga ko'ra juft fe'llar quyidagi ko'rinishlarda uchraydi:</p> <p>a) har ikkala qismi mustaqil ma'noli so'z;</p> <p>b) birinchi so'z mustaqil ma'noli, ikkinchisi ma'nosiz so'z;</p> <p>d) har ikkala qismi mustaqil qo'llanilmaydigan so'z</p>	<p>a) <i>ota-ona, bugun-erta, asta-sekin, yer-suv;</i></p> <p>b) <i>bo'y-bast, ko'cha-ko'y, non-pon;</i></p> <p>d) <i>adi-badi, alg'ov-dalg'ov, apoq-cha-poq</i></p>
Takroriy	<p>Bir xil shakldagi so'zlarning takrorlanishidan hosil bo'ladi. Takroriy so'zlar davomiylik, ko'plik, kuchaytirish ma'nolarini ifodalaydi</p>	<p><i>qop-qop, tez-tez, qattiq-qattiq, yurib-yurib, bora-bora, kula-kula</i></p>

BIR MA'NOLI VA KO'P MA'NOLI SO'ZLAR

Bir ma'noli so'zlar	Ko'p ma'noli so'zlar
<p>1. Atoqli otlar: <i>Akbar, Jizzax, Zarafshon.</i></p> <p>2. Sanoqni bildiruvchi so'zlar: <i>uch. o'n sakkiz, yuz, beshdan bir, yarim.</i></p> <p>3. Ishora qiluvchi so'zlar (olmoshlar): <i>men, bu, nega, hamma, har kim.</i></p> <p>4. Atamalar: <i>kesim. kimyo, fazo, orol</i></p>	<p>Nutq jarayonida ikki va undan ortiq ma'noda qo'llanuvchi so'z ko'p ma'noli so'zdir. Bunday so'zlar o'z (asl, bosh) ma'no va ko'chma ma'nodan iborat. O'z ma'no so'zning nutqdan tashqaridagi ma'nosidir. <i>Ko'chma ma'no</i> so'zning o'z ma'nosi asosida, unga bog'liq holda ma'no taraqqiyoti yoki ma'no ko'chishi orqali yuzaga chiqadi. <i>Ko'z – ko'rish a'zosi</i> (o'z ma'nosida); <i>ishning ko'zi, uzukning ko'zi</i> (ko'chma ma'noda).</p> <p>Ko'p ma'noli so'zda ma'no qancha bo'lsa ham, u bir so'z hisoblanadi</p>

SO'ZLARDA MA'NO KO'CHISH YO'LLARI

Ma'no ko'chish usullari	Izohi	Misollar
Metofora	Biror predmet, belgi yoki harakatning boshqasiga tashqi o'xshashligi asosida ma'no ko'chishi	<i>Soy yoqasi, tog'ning etagi, qozoning qulog'i, qo'shni dala</i>
Metonimija	Bir narsa va hodisa nomining makon va zamondagi o'zaro bog'liqligi asosida ikkinchiga ko'chishi	<i>Navoiyni (asarini) o'qimoq, bir lagan (osh) yemoq, yarim yillikni (imtihonlarni) topshirmoq</i>
Sinekdoxa	Qism bilan butun munosabati asosida ma'no ko'chirishi	<i>Bedaga bironta tuyoq (mol) kirmagan. Besh qo'l (barmoq) barobar emas.</i>
Vazifadoshlik	Narsa va hodisa orasidagi vazifaviy o'xshashlik asosida birining nomi ikkinchisiga ko'chishi	<i>O'q – kamon o'qi, to'pponcha o'qi, snaryad o'qi; tugma – ko'ylak tugmasi, eshik tugmasi, klaviatura tugmasi</i>
Kinoya	So'zning teskari ma'noda ishlatilishi	<i>Bola «tog'a» (begona kishi) izidan yurdi.</i>

SO‘ZLARNING SHAKL VA MA‘NO MUNOSABATIGA KO‘RA TURLARI

Turlari	Izohi	Misollar
Ma‘nodosh so‘zlar	Shakli har xil, ammo bir umumiy ma‘no (tushuncha)ni bildiruvchi ikki va undan ortiq so‘zlar ma‘nodosh hisoblanadi. Bunday so‘zlar bir qatorda tizilib ma‘nodoshlik qatorini hosil qiladi. Ma‘nosi barchaga tushunarli bo‘lgan va nutqda keng qo‘llaniladigan so‘z bosh so‘z deyiladi	<p><i>Yurak, qalb, dil, ko‘ngil; sezgir; ziyrak, hushyor; yurmoq, g‘izillamoq, jadallashmoq, imillamoq.</i></p> <p><i>Osmon, ko‘k, samo, falak</i> qatorida <i>osmon</i> – bosh so‘z</p>
Zid ma‘noli so‘zlar	Qarama-qarshi ma‘noli so‘zlar zid ma‘noli so‘zlardir. Bunday so‘zlar umumlashtirish ma‘nosiga ega bo‘lishi, shuningdek, boshqa ma‘noli yangi so‘z hosil qilishi mumkin. Zid ma‘nolilik ravishlarda keng tarqalgan	<p><i>Uzun – qisqa, keng – tor; ost – ust, kelmoq – ketmoq, ilgari – hozir; tonggi – tungi.</i></p> <p><i>Achchiq-chuchuk</i> (ovqat turi), <i>kechakunduz</i> (kun davomida)</p>
Shakldosh so‘zlar	Aytilishi va yozilishi bir xil, ma‘nolari har xil bo‘lgan so‘zlar shakldosh so‘zlar hisoblanadi. Ko‘p ma‘noli so‘zlardan farqli holda shakldosh so‘zlar ifodalagan ma‘nolar o‘rtasida bog‘liqlik bo‘maydi, bular turli xil tushunchalarni bildirgan alohida-alohida so‘zlardir. Ikki bo‘g‘inli shakldosh so‘zlarda urg‘u ma‘noni farqlashga xizmat qiladi	<p><i>Un</i> (o‘smoq) – <i>un</i> (ovoz) – <i>un</i> (bug‘doy uni); <i>qirq</i> (son) – <i>qirq</i> (qirqmoq); <i>chang</i> (musiqqa asbobi) – <i>chang</i> (g‘ubor); <i>och</i> (ochmoq) – <i>och</i> (qorni och).</p> <p><i>Gullar</i> (ot) – <i>gullar</i> (fe‘l); <i>osma</i> (sifat) – <i>osma</i> (fe‘l); <i>ko‘zlar</i> (ot) – <i>ko‘zlar</i> (fe‘l)</p>

Turlari	Izoli	Misollar
Paronim soʻzlar	Talaffuzi bir-biriga yaqin, ammo yozilishi va maʼnosi har xil boʻlgan soʻzlar paronim soʻzlardir. Bunday soʻzlarni almashtirib qoʻllash uslubiy xatoga olib keladi. Paronimni ikki xil yozilishga ega boʻlgan, ammo maʼnosi bir xil boʻlgan dubletlar (<i>arava – aroba, bekik – herikik</i>)dan farqlash kerak	<i>asr – asir, afzal – abzal, sher – sheʼr, adib – adip; amr – amir, sayil – sayir, tub – tup, dara – daʼra, qala – qaʼla</i>
Uyadosh soʻzlar	Bir mazmuniy uyaga mansub soʻzlar uyadosh deyiladi. Oʻz ichiga oluvchi soʻz uya soʻz va uyaga kiruvchi soʻz uyadosh soʻzdir	<i>Qoramol uya soʻziga sigir, novvos, buzoq, buzoqboqar soʻzlari uyadoshdir</i>
Soʻzlarning darajalanishi	Soʻzlar biror belgisiga koʻra oz-koʻp, katta-kichik va boshqa jihatlardan darajalanishi mumkin. Soʻzlarning darajalanishini bilish ularning miqdor va ravish koʻrsatkichlarini toʻgʻri farqlash uchun zarur	<i>nihol – koʻchat – daraxt; darcha – eshik – darvoza; gulobi – pushti – qizgʻish – qizil – ol – qirmizi</i>

MAʼNODOSHLIK TURLARI

Lugʻaviy	Lugʻaviy-frazeologik	Frazeologik	Grammatik
Faqat soʻzlardan tashkil topgan maʼnodoshlik qatori: <i>ish, yumush; gapirmoq, soʻzlamoq kabi</i>	Ham soʻz, ham iboralardan tashkil topgan maʼnodoshlik qatori: <i>baxtli – peshonasi yorugʻ, toleyi baland; yuvosh – qoʻy ogʻzidan choʻp olmagan</i>	Faqat iboralarda oʻrtasida boʻladigan maʼnodoshlik: <i>toqati toq boʻlmoq, sabr koʻsasi toʻlmoq; yaxshi koʻrmoq, koʻngil bermoq</i>	Qoʻshimcha (grammatik shakl)lar oʻrtasida boʻladigan maʼnodoshlik: <i>-yap, -yotir, -moqda; -siz, be-, -li, -dor, ser-</i>

ZID MA'NOLILIK TURLARI

Lug'aviy	Lug'aviy-frazeologik	Frazeologik	Grammatik
Faqat so'zlar o'rtasida bo'ladigan zid ma'nolilik: <i>oq - qora, uzoq - yaqin, dushman - kulmoq - stig'lamoq</i>	So'z va iboralar o'rtasida bo'ladigan zid ma'nolilik: <i>xafa - og'zi qulog'ida, no-noq - ustasi farang</i>	Iboralar o'rtasida bo'ladigan zid ma'nolilik: <i>ko'kka ko'tarmoq - yerga urmog'; qo'li uzun - qo'li kalta: ko'ngli oq - ichi qora</i>	Qo'shimcha (grammatik shakl)lar o'rtasida bo'ladigan zid ma'nolilik: <i>-li va -siz, ba- va be-</i>

SHAKLDOSHLIK TURLARI

Lug'aviy	Frazeologik	Grammatik
Faqat so'zlar o'rtasida bo'ladigan shakldoshlik: <i>kuy</i> (musiqiy ovoz) - <i>kuy</i> (kuymoq) - <i>kuy</i> (qizq'anmoq); <i>bosma</i> (harf shakli) - <i>bosma</i> (bosmaslik)	Iboralar o'rtasida bo'ladigan shakldoshlik: <i>boshiga ko'tarmoq</i> (uyuni) - <i>boshiga ko'tarmoq</i> (onasini); <i>og'ziga olmoq</i> (yemoq) - <i>og'ziga olmoq</i> (nomini aytmoq)	Qo'shimcha (grammatik shakl)lar o'rtasida bo'ladigan shakldoshlik: <i>-ma</i> (eritma) - <i>-ma</i> (sochma o'q) - <i>-ma</i> (ketma (harakat)); <i>-m</i> (opam) - <i>-m</i> (keldim); <i>-choq</i> (qo'zichoq) - <i>-choq</i> (maqtanchoq)

LUG'AT TURLARI

Turlari	Izohi
Qomusiy (ensiklopedik) lug'atlar	Bunday lug'at alifbo tartibida bo'lib, uda so'z emas, balki shu so'zdan anglashilgan tushunchaga asos bo'lgan narsa, voqea-hodisa, shaxs, geografik nom haqida ma'lumot beriladi va lug'at maqolasi (so'z) lug'at yozilgan tilni tushunuvchi keng o'quvchi ommasiga mo'ljallanadi. M.: «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi». Fan-madaniyat sohalariga oid maxsus qomusiy lug'atlar ham mavjud

Imlo lug'ati	Imlo lug'ati so'zni amaldagi imlo qoidasiga muvofiq ravishda qanday yozish kerakligini o'rgatadi. Bunday lug'at hammabop va amaliy ahamiyatga ega. 1995- yilda lotin imlosidagi «Imlo lug'ati» chop etilgan
Izohli lug'at	Izohli lug'atda so'zning barcha – grammatik, uslubiy, frazeologik birlik tarkibida qatnashish, omonimik, qaysi tildan o'zlashganlik belgisi ko'rsatiladi. «O'zbek tilining izohli lug'ati» 1981- yilda 2 jild (60 ming so'zli), 2006–2008- yillarda 5 jild (80 ming so'z) holida nashr etilgan
Orfoepik lug'at	Orfoepik lug'atda so'zning to'g'ri adabiy talaffuzi ko'rsatiladi. Bunday lug'at birinchi marta kichik hajmda M. Sodiqova va U. Usmonova tomonidan «O'zbek tilining orfoepik lug'ati» nomi bilan 1977- yilda chop etilgan
Etimologik lug'at	Bunday lug'atda so'zning kelib chiqishi izohlanadi. Sh. Rahmatullayev tomonidan 2005- yilda «O'zbek tilining etimologik lug'ati» chop etilgan
Morfemik lug'at	Morfemik lug'atda so'zning tarkibi ko'rsatiladi. Bunday lug'at birinchi marta A. G'ulomov, A. N. Tixonov, R. Q. Qo'ng'urov tomonidan 1977- yilda chop etilgan
Chastotali lug'at	So'zning qo'llanish darajasi haqida ma'lumot beriladi. I. Kissen muallifligida «Словарь наиболее употребительных слов современного узбекского литературного языка» chastotali lug'ati 1970- yilda chop etilgan
Ters (chappa) lug'at	Ters lug'atda so'z teskari tomondan, oxiridan alifbo tartibida joylashtiriladi. Bu lug'at ham lingvistik lug'at bo'lib, R. Qo'ng'urov va A. Tixonov tomonidan «Обратный словарь узбекского языка» nomi bilan 1969- yilda chop etilgan
Maxsus lug'atlar	Maxsus lug'at tor o'quvchi ommasiga mo'ljallanadi. M.: frazeologik lug'at maxsus filologik lug'atning bir turi bo'lib, Sh. Rahmatullayev tomonidan «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati» 1978- yilda chop etilgan
Ikki (yoki undan ortiq) tilli lug'atlar	Bunday lug'atlar til o'rganuvchilar, tarjimonlarga mo'ljallanadi. M.: ruscha-o'zbekcha lug'at, inglizcha-ruscha-o'zbekcha lug'at kabi. Bu turdagi lug'at ayrim sohalar bo'yicha ham yaratiladi: «Iqtisodiy atamalarning inglizcha-o'zbekcha lug'ati» kabi

SO‘Z TARKIBI (MORFEMIKA)

SO‘Z TARKIBI

Asos	Qo‘shimchalar
So‘zning asosiy ma‘nosini ifodalab, mustaqil qo‘llana oladigan qismi: <i>hmo, soz, bil, ol, tin</i>	Mustaqil qo‘llana olmaydigan, asosga qo‘shilib, unga yangi yoki qo‘shimcha ma‘no yuklaydigan va so‘zlarni bog‘lashga xizmat qiladigan qismi: <i>-chi, -lik, -a, -gi</i>

SO‘Z VA QO‘SHIMCHALARNING FARQLI BELGILARI

So‘z	Qo‘shimcha
1. Lug‘aviy ma‘noga ega va mustaqil ravishda (yordamchi so‘zlardan tashqari) qo‘llana oladi.	1. So‘zga grammatik ma‘no yuklaydi va mustaqil qo‘llana olmaydi
2. Ma‘noli qismlarga ajralish xususiyatiga ega	2. Tilning eng kichik, ma‘noli qismlarga ajralmaydigan birligi
3. Nutqqa tayyor holda olib kiriladi va gapning biror bo‘lagi vazifasida keladi	3. Nutqda bir butun so‘zning qismlari sifatida so‘z orqali namoyon bo‘ladi
4. Fonetik va grammatik jihatdan yaxlitligi sababli gapdagi so‘zlar qurshovida fonetik qiyofasini saqlaydi	4. Turli holatlarda turlicha fonetik qiyofada bo‘ladi: <i>-ga, -ka, -qa (uyga, elakka, o‘tloqqa)</i> kabi

QO'SHIMCHALAR TASNIFI

So'z yasovchilar	Shakl yasovchilar	
	Lug'aviy shakl yasovchilar	Sintaktik shakl yasovchilar (munosabat shakllari)
Asosga qo'shilib, yangi lug'aviy ma'no hosil qiladi: <i>bil + -im = bilim,</i> <i>ong + -a = angla</i>	Asosga qo'shilib, uning ma'nosiga qo'shimcha ma'no yuklaydi: <i>uy + -lar,</i> <i>keng + -roq, qiz + -cha</i>	O'zi qo'shilayotgan so'zni boshqasiga bog'lash vazifasini bajaradi: <i>uy + -ning tomi,</i> <i>gul + -ni uzmoq, un + -dan katta</i>

SO'Z TURKUMLARIDA LUG'AVIY SHAKL YASOVCHI QO'SHIMCHALAR

So'z turkumi	Lug'aviy shakl yasovchi nomi	Qo'shimchalari
Fe'l	1) bo'lishsizlik; 2) nisbat; 3) ravishdosh; 4) ravishdosh; 5) harakat nomi qo'shimchalari	1) <i>-ma (ketma); 2) -i(n), -i(l), -i(sh), -lash, -t, -tir, -ir, -ar, -giz, -qiz, -gaz, -qaz, -kaz (kiyindi, o'qildi, yozishdi, uxlat, yurgiz, o'tqaz); 3) -(a)y, -i(b), -gach (-kach, -qach), -gani (-kani, -qani), -guncha (-kuncha, -quncha) (suzib, chiqqach, ko'rgani, ekkuncha); 4) -gan (-kan, -qan), -(a)yotgan, -(u)vchi, -(a)jjak, -mish, -asi (olgan, borayotgan, yashovchi, bo'lajak, aytmish, kelasi); 5) -(i)sh, -moq, -(u)v, -maslik (yozish, kutmoq, saylov)</i>
Ot	1) ko'plik; 2) kichraytirish-erkalash qo'shimchalari; 3) vazifadosh shakllar	1) <i>-lar (mevalar); 2) -cha, -chak, -chuy, -gina, -(a)loq, -jon, -xon, -oy, -bonu (shoxcha, qo'zichoq, qizgina, toyloq, xolajon, Azizjon, Gulchehrabonu); 3) -niki, -gacha, -dagi, -day, -dek (o'qniki, yo'lgacha, oydagi, toshday, guldek)</i>

Soʻz turkumi	Lugʻaviy shakl yasovchi nomi	Qoʻshimchalari
Sifat	1) ozaytirma; 2) orttirma daraja qoʻshimchalari	1) <i>-i(mtir), -(i)sh</i> (<i>koʻkintir, sargʻish</i>); 2) <i>-roq</i> (<i>kattaroq</i>)
Son	1) dona; 2) chama; 3) taqsim; 4) jamlovchi son qoʻshimchalari	1) <i>-ta</i> (<i>beshta</i>); 2) <i>-tacha, -lab, -larcha</i> (<i>yuztacha, yuzlab, minglarcha</i>); 3) <i>-tadan</i> (<i>bittadan, yuztadan</i>); 4) <i>-ov, -oblon, -ala</i> (<i>ikkov, yettovlon, beshala</i>)
Ravish	Qiyoslash qoʻshimchasi	<i>-roq</i> (<i>tezroq, ozroq, ertaroq</i>)

SINTAKTIK SHAKL YASOVCHI QOʻSHIMCHALAR (MUNOSABAT SHAKLLARI)

Sintaktik shakl yasovchilar nomi	Izohi	Qoʻshimchalari
Egalik	Ismlarga qoʻshilib, asosda ifodalangan narsa-hodisa, belgi, harakat-holatning uch shaxsdan biriga qarashlilikini bildiradi	<i>-m, -im, -ng, -ing, -i, -si; -miz, -imiz, -ngiz, -ingiz, -lari</i> (<i>ukam, yurtimiz, ilmingiz</i>)
Kelishik	Ismlarni boshqa soʻzlarga tobelantirib bogʻlashga xizmat qiladi	<i>-ning, -ni, -ga</i> (<i>-ka, -qa</i>), <i>-da, -dan</i> (<i>uning, gulga, tomdan</i>)
Shaxs-son	Tuslovchi qoʻshimcha boʻlib, kesimni Feʼning I va II shaxsi maxsus qoʻshimchalar bilan ifodalangani, III shaxsda esa zamon qoʻshimchalari shaxs maʼnosini ham ifodalaydi	<i>-m, -ng, -k, -miz; -man, -san, -siz, -miz</i> (<i>keldim, olding, kutdik, boramiz, suzaman, koʻrasan, yoza-siz, oʻqiyamiz</i>)

SODDA SO'ZLARNING TARKIBI

Tub	Yasama
Tub so'z tarkibi asos va yasovchi qo'shimchalarga bo'linmaydi: <i>asal, til, eshik, ravon, tuzal</i>	Yasama so'z asos va yasovchi qo'shimchadan tashkil topadi: <i>asalchi, tilshunos, eshikhon, pasay, tinch, boyi, sanoq, gulchilik, odamgarchilik</i>

SO'Z TARKIBIDA TARTIB

Asos	So'z yasovchi qo'shimcha	Lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha	Sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha	So'z
<i>son</i>	<i>son + -a = sana</i>	<i>sana + -y = sanay</i>	<i>sanay + -siz = sanaysiz</i>	<i>sanaysiz</i>
<i>oq</i>	<i>oq + -la = oqla</i>	<i>oqla + -n + -di = oqlandi</i>	<i>oqlandi + -k = oqlandik</i>	<i>oqlandik</i>
<i>past</i>	<i>past + -ay = pasay</i>	<i>pasay + -tir + -a = pasay-tira</i>	<i>pasaytira + -siz = pasay-tirasiz</i>	<i>pasaytirasiz</i>
<i>to'qi</i>	<i>to'qi + -v + -chi = to'quvchi</i>	<i>to'quvchi + -lar = to'quvchilar</i>	<i>to'quvchilar + -miz = to'quvchilarmiz</i>	<i>to'quvchilarmiz</i>

Qo'shimcha ta'sirida o'zagi o'zgaradigan so'zlar

Qo'shimchalar		Misollar	Tovush o'zgarishi
Turi	Shakli		
So'z yasovchi	-la, -a	<i>ong + -la = angla, son + -a = sana</i>	<i>a > o</i> ga o'zgaradi
	-q (-uq)	a) <i>qiyina + -q = qiynoq, yumsha + -q = yumshoq;</i> b) <i>buyur + -uq = buyruq</i>	a) <i>a > o</i> ga o'zgaradi; b) <i>u</i> tushadi
	-v	<i>maqta + -v = maqtov, sayla + -v = saylov</i>	<i>a > o</i> ga o'zgaradi
	-ki (-qi)	a) <i>shart(a) + -ki = shartaki;</i> b) <i>sayra + -qi = sayroqi</i>	a) <i>a</i> ortadi; b) <i>a > o</i> ga o'zgaradi
	-ay	<i>past + -ay = pasay, sust + -ay = susay</i>	<i>t</i> tushadi
Shakl yasovchi	-i)m, -(i)ng, -i, -(i)miz, -(i)ngiz (egallik qo'shimchalari)	a) <i>burun + -i = burni, o'rin + -ing = o'ring, singil + -imiz = singlimiz;</i> b) <i>hilak + -i = hilagi, soliq + -ing = solig'ing;</i> d) <i>parvo + -im = parvoyim, mavqe + -ing = mavqeying</i>	a) <i>i</i> va <i>u</i> tushadi; b) <i>k > g</i> ga, <i>q > g'</i> ga o'zgaradi; d) ortadi
	-ov, -ovlon, -ala	<i>olti + -ov = oltov, ikki + -ala = ikkala, yetti + -ovlon = yettovlon</i>	<i>i</i> tushadi
	-ni, -ning, -niki	<i>men + -ni = meni, sen + -ning = sening, men + -niki = meniki</i>	<i>n</i> tushadi
	-ga, -da, -dan	<i>u + -ga = unga, bu + -da = bunda</i>	<i>n</i> ortadi

SO'Z YASALISHI

SO'Z YASALISHI

Tarixiy yasalish	Hozirgi yasalish
Tarixiy yasalish so'z yasalishiga kirmaydi, ularni asos va qo'shimchaga ajratib bo'lmaydi: <i>quloqchinq, baqirmoq, turmush, chorlar, chaqmoq mingboshi, kungay, achimsiq, quloqchin, baqirmoq</i>	Asos va qo'shimchaga ajratiladi, yasama so'z sifatida tahlil qilinadi: <i>kiy + -in, birik + -ma, yu-pan + -ch, tush + -kun, kech + -ki, ko'p + -ay</i>

SO'Z YASASH USULLARI

Usullar	Izohi	Misollar
Qo'shimcha qo'shish (affiksatsiya)	Bir asosga sodda yoki murakkab shakldagi qo'shimchani qo'shish vositasida sodda yasama so'z yasaladi	a) <i>tilchi, mulkdor, o'yuna, iliq, sanoq, qadrdon, butunlay;</i> b) <i>zargarlik, mulkechilik, faxrlanmoq, yillar-cha</i>
So'zlarni qo'shish (kompozitsiya)	Ikki va undan ortiq asos qo'shilishi natijasida yangi so'z (qo'shma so'z) hosil qilinadi	<i>qo'larra, oltingugurt, belbog', shifo topmoq, olib kelmoq</i>
Leksik-sintaktik	So'zlarni lug'aviy shakllar vositasida birlashtirish orqali yangi so'z hosil bo'ladi	<i>gapga usta, og'zi bo'sh, ko'zga yaqin</i>
Ma'no o'zgarishi (semantik)	Ma'no taraqqiyoti natijasida tilda mavjud bo'lgan so'z yangi ma'noda qo'llaniladi	<i>atlanmoq, uylanmoq, emchi, yo'l-yo'l, xosiyatxon (atlas turi), xotamtoy</i>

SO'Z TURKUMLARIDA SO'Z YASOVCHI QO'SHIMCHALAR

Asos	Yasama so'z			
	Fe'l	Ot	Sifat	Ravish
Fe'ldan	—	-m (-im, -um), -k (-ik, -ak), -q (-iq, -uq, -oq), -gi (-ki, -qi, -g'i, -g'u), -ma, -qin (-g'in), -in (-un), -(i)ndi, -gich (-g'ich, -kich, -qich), -ch (-inch), -machoq, -(i)sh, -(u)v, -(u)vchi, -(o) vchi, -dak	-chan, -choq (-chiq, -chak), -qoq (g'oq), -gir (-kir, -qir, -g'ir), -ag'on, -mon, -ki (-qi), -(ik) (-i(q), -(i)k), -kin (-qin, -g'in, -g'un), -ma, -(a)rli, -mas, -ch, -msiq	—
Otdan	-la, -lan, -lash, -a, -sira, -i, -iq	-chi, -lik, -chilik, -zor, -loq, -goh, -iston, -don, -kor, -xon, -shunos, -kash, -do'z, -gar, -soz, -paz, -boz, -xo'r, ham, -parast, -boz, -dor, -furush, -go'y, -dosh, -vach- cha, -xona, -obod, -noma	-li, -dor, -ser, ba, be-, -mand, -kor, -siz, no-, -chan, -iy, -viy, -gi (-ki, -qi), -i, -cha, -namo, -simon, -parvar, -aki, -bad, -bop, xush, -chil, -don, -kay, -kash	-cha, -larcha, -chasiga, -ona, -lab, -an, -siz, be- -chang, -aki
Harakat nomidan	—	—	-li, -chan	—
Sifatdan	-la, -lan, -lash, -a, -(a) y, -(a)r, -i, -t	-lik (aniqlik)	no-, -cha	-cha, -larcha, -siga (-iga), -lay(in)
Ravishdan	-la, -lan, -lash, -(i)k, -(i)q	-lik (tezlik)	-aki, -gi(-ki, -qi)	—

Asos	Yasama soʻz			
	Feʼl	Ot	Sifat	Ravish
Sondan	<i>-la, -lan, -ik</i>	<i>-lik (beshlik)</i>	—	<i>-lab</i>
Olmoshdan	<i>-sira</i>	<i>-lik (oʻzlik)</i>	—	<i>-cha</i>
Modal soʻzdan	<i>-la</i>	—	—	—
Taqlid soʻzdan	<i>-la, -illa, -ull a, -ira, -a</i>	<i>-ak (-oq), -a, -os, -ildoq</i>	<i>-ki (-qi). -ildoq</i>	—
Undov soʻzdan	<i>-la</i>	—	—	—

MORFOLOGIYA

SO'Z TURKUMLARI

Mustaqil so'zlar	Yordamchi so'zlar	Alohida olingan so'zlar guruhi
1. Fe'l.	1. Ko'makchilar.	1. Undov so'zlar.
2. Ot.	2. Bog'lovchilar.	2. Taqlid so'zlar.
3. Sifat.	3. Yuklamalar.	3. Modal so'zlar.
4. Son.		4. Tasdiq va inkor so'zlar.
5. Ravish.		
6. Olmosh.		

MUSTAQIL SO'ZLAR

Turlari	Izohi	So'roqlari
Fe'l	Shaxs yoki narsalarning harakat, holatini ifodalagan so'z turkumi	<i>Nima qilmoq? nima bo'lmoq?</i>
Ot	Shaxs, narsa ma'nolarini, shuningdek, joy nomlarini bildirgan so'zlar	<i>Kim? nima? qayer?</i>
Sifat	Otga bog'lanib, uning belgisini bildiradigan so'zlar	<i>Qanday? qanaqa?</i>
Son	Narsalarning son-sanog'i va tartibini bildirgan so'zlar	<i>Qancha? necha? nechanchi?</i>
Ravish	Harakat-holatning bajarilish tarzi, payti, o'rni, daraja-miqdori kabi belgilarni bildiruvchi so'zlar	<i>Qanday? qachon? qayerga? qayerda? qayerdan? qancha?</i>
Olmosh	Boshqa so'zlar, shuningdek, so'z birikmasi va gap o'rnida almashinib qo'llanuvchi, ularga ishora qiluvchi yoki so'roq bildiruvchi so'zlar	Olmoshlar aniq bir so'roqqa javob bo'lmaydi. Uning so'rog'i matnda qaysi so'z, birikma yoki gap o'rnida almashinib kelishiga qarab belgilanadi

FE'L

Fe'ning leksik-grammatik turlari

Turlari	Farqli xususiyatlari	Misollar
Mustaqil fe'l	1. Lug'aviy ma'noga ega	<i>bitirmoq, ko'karmoq</i>
	2. Mustaqil ravishda gapning biror bo'lagi vazifasida keladi	<i>Uyga kirdi. To'qilgan ro'mol.</i>
	3. Gapda biror so'zni boshqarib yoki muayyan so'zga tobelanib keladi	<i>Eshikni ochdi. Yozilgan xat kimda?</i>
	4. Harakatning obyektga munosabatiga ko'ra: a) o'timli fe'l; b) o'timsiz fe'lga bo'linadi	<i>almashmoq, quvontirmoq, kiyimoq (o'timli fe'llar); yuzlanmoq, so'ramoq, joylashmoq (o'timsiz fe'llar)</i>
Nomustaqil (ko'makchi) fe'l	1. Lug'aviy ma'noga ega emas	<i>emoq, etmoq</i>
	2. Qo'shma so'z yasashda ishtirok etadi	<i>qabul etmoq, sotib olmoq</i>
	3. Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasini hosil qiladi	<i>keta bermoq, taqib olmoq, tortib ketmoq</i>
	4. So'zni kesim vazifasiga xoslaydi (to'liqsiz fe'l)	<i>yaxshi ekan, to'y emish, bor-gan emas</i>

Fe'ning ma'no guruhlari

Turlari	Izohi	Misollar
Nutqiy faoliyat fe'llari	Ovoz chiqarib nutqni turlicha voqelantirish harakat-holatini ifodalaydi	<i>gapirmoq, pichirlamoq, chaqirmoq</i>
Aqliy faoliyat fe'llari	Biror narsa-hodisa haqida o'ylash, fikrlash tarzini ifodalaydi	<i>fahmlamoq, fikrlamoq, ijod qilmoq, xulosaga kelmoq</i>

Turlari	Izohi	Misollar
Jismoniy faoliyat fe'llari	Jismoniy xatti-harakatlarga asoslangan faoliyatlarni ifodalaydi	<i>qimirlatmoq, kiyintirmoq, ovqatlanmoq, silamoq, tepmoq</i>
Holat fe'llari	Tirik mavjudotlarga xos turlicha jismoniy va ruhiy holatni bildiradi	<i>xo'rsinmoq, sevinib ketmoq, sarg'aymoq, boyimoq, zaiflashmoq</i>

O'timli va o'timsiz fe'llar

Turi	Xususiyati	Misollar
O'timli fe'llar	Tushum kelishigidagi so'zlar bilan bog'lana oladi	<i>almashmoq, kiyimoq, ko'rmog</i>
O'timsiz fe'llar	Tushum kelishigidagi so'zlar bilan bog'lana olmaydi	<i>jiringlamoq, yuzlanmoq, kivinmoq</i>

Fe'ning grammatik ma'no beruvchi shakllari

Shakl nomi	Izohi	Misollar
Nisbat shakllari	Bajaruvchining harakat-holat jaryoniga qay darajada ishtirok etishini, yani harakatning bajaruvchi (subjekt)ga munosabatini ifodalaydi	<i>gapirdi, gapirildi, gapirishdi, gapirtirdi</i>
Bo'lishli-bo'lishsizlik shakli	Fe'l ifodalagan harakat-holatning uch zamondan birida bajarilgani yoki bajarilmaganini ifodalaydi	<i>kelgan – kelmagan, kelgani yo'q, kelgan emas</i>
Zamon shakllari	Fe'l asosida ifodalangan harakat-holatning uch zamondan birida sodir bo'lishini ifodalaydi	<i>keldi, kelyapti, keladi</i>
Mayl shakllari	Fe'l ifodalagan harakat-holat haqidagi xabar, buyruq-istak, shart ma'nolarini ifodalaydi	<i>o'ynadim, o'yna, o'ynaylik, o'ynasa edi</i>
Shaxs-son shakllari	Fe'l ifodalagan harakat-holatning bajaruvchi shaxsini, bu shaxsning bitta yoki ko'p ekanligini bildirib, ksimni shakllantirishda ishtirok etadi	<i>bordim, bording, bordik, bordingiz; olaman, olasan, olamiz, olasiz</i>

Fe'l nisbatlari

Nisbat turlari	Ma'nosi	Qo'shim-chalari	Misollar
Aniq nisbat	Bajaruvchisi aniq bo'lgan harakat-holatni bildiradi	○	<i>kiydi, yuvdi, yutdi</i>
O'zlik nisbat	Bajaruvchining o'zi ustida amalga oshadigan harakat-holatni ifodalaydi	<i>-(i)n, -(i)l</i>	<i>kiyindi, yuvindi, yutindi</i>
Majhul nisbat	Bajaruvchisi noma'lum bo'lgan harakat-holatni ifodalaydi	<i>-(i)n, -(i)l</i>	<i>kiyildi, yuvildi, yutildi</i>
Orttirma nisbat	Bajaruvchining ta'sirida boshqa shaxs yoki narsa tomonidan bajarilgan harakat-holatni ifodalaydi	<i>-t, -dir (-tir), -giz (-kiz), -qiz (-g'iz), -gaz (-kaz, -qaz), -ir, -ar, -iz</i>	<i>kiydirdi, yuvdirdi, yutgizdi</i>
Birgalik nisbat	Birdan ortiq bajaruvchi tomonidan birgalikda bajarilgan harakat-holatni ifodalaydi	<i>-(i)sh</i>	<i>kiyishdi, yuvishdi, yutishdi</i>

Fe'llarning bo'lishli va bo'lishsiz shakllari

Turlari	Hosil qilinishi	Ma'nosi	Misollar
Bo'lishli shakli	○	Harakat-holatning uch zamondan birida bajarilganini ifodalaydi	<i>olganman, o'qigansan, eshitgan</i>
Bo'lishsiz shakli	a) fe'l asosiga <i>-ma</i> qo'shimchasini qo'shish orqali; b) fe'lning ravishdosh shaklidan keyin <i>yo'q, emas</i> so'zlarini keltirish orqali hosil qilinadi	Harakat-holatning uch zamondan birida bajarilmaganini ifodalaydi	<i>olmagan, olganim yo'q, olgan emas, kelmayman, kelgani yo'q, kelmoqchi emas</i>

Fe'l zamonlari

Turlari	Shakli	Ma'nosi	Tuslanishi
O'tgan zamon	<i>-di, -(i)b, -gan (-kan, -qan)</i>	Harakat va holatning gap aytilayotgan vaqtdan oldin bo'lganini bildiradi	<i>aytdim, aytding, aytdi, aytdik, aytdingiz, aytdilar</i>
Hozirgi zamon	<i>-(-a)yap, -moqda, -(a)yo'tib</i>	Harakat va holatning gap aytilayotgan vaqtda yuz berishini ifodalaydi	<i>aytyapman, aytyapsan, aytyapti, aytyapmiz, aytyapsiz, aytyaptilar</i>
Kelasi zamon	<i>-a, -y, -(a)r</i>	Harakat va holatning gap aytilayotgan vaqtdan so'ng yuz berishini ifodalaydi	<i>aytaman, aytasan, aytadi, aytamiz, aytasiz, aytadilar</i>

Fe'l mayllari

Turlari	Shakli	Ma'nosi	Tuslanishi
Xabar mayli	Ø	Harakat va holatning bajarilishi yoki bajarilmasligi haqidagi xabar, darakni bildiruvchi fe'l shakli	<i>o'qidim, o'qiding, o'qidi, o'qidik, o'qidingiz, o'qidilar</i>
Buyruq-istak mayli	<i>-(a)y, -(a)yin, -gin (-kin, -qin), -(i)ng, -sin, -(a)ylik, -(i)nglar</i>	Harakat va holatning bajarilish-bajarilmasligi haqidagi buyruq, istak, iltimos, maslahat ma'nolarini bildiradi	<i>o'qiy, o'qi, o'qigin, o'qisin; o'qiylik, o'qing, o'qinglar, o'qingiz, o'qisinlar</i>
Shart mayli	<i>-sa</i>	Boshqa bir harakat va holatning bajarilishi yoki bajarilmasligi uchun shart bo'lgan harakat va holatni, shuningdek, istak-xohishni bildirgan fe'l shakli. Shart mayli <i>edi, ekan</i> to'liqsiz fe'llari bilan kelganda orzu-istak ma'nosini bildiradi	<i>o'qisam, o'qisang, o'qisa; o'qisak, o'qisangiz, o'qisalar; o'qisam edim, o'qisak ekan, o'qisang emish</i>

Fe'ning shaxs-son shakllari

Shaxs	Birlik		Ko'plik	
	Unli bilan tugagan asosga	Undosh bilan tugagan asosga	Unli bilan tugagan asosga	Undosh bilan tugagan asosga
I	<i>bordim</i>	<i>ko'rganman</i>	<i>bordim</i>	<i>ko'rganmiz</i>
II	<i>bording</i>	<i>ko'rgansan</i>	<i>bording</i>	<i>ko'rgansiz</i>
III	<i>bordi</i>	<i>ko'rgan</i>	<i>bordi</i>	<i>ko'rgan(lar)</i>

Fe'ning vazifa (xoslangan) shakllari

Turlari	Izohi	Misollar
Sof fe'l shakli	Sof fe'llar fe'lga xos ma'no va vazifalarda qo'llanadi, unga xos barcha lug'aviy shakllarni oladi	<i>oldi, bordik, yozing, kutsin, kiyindi, oldiring, ko'rmasan</i>
Harakat nomi	Fe'ning otga xoslangan shakli bo'lib, otlar kabi egalik, kelishik, ko'plik qo'shimchalarini oladi, ularga xos gap bo'lagi vazifasida keladi	<i>sanash, haydov, oqlamoq, bormaslik</i>
Sifatdosh	Fe'ning sifatga xoslangan shakli. Sifatlar shaxs-narsaning barqaror, turg'un, belgisini ko'satsa, sifatdoshlar o'zgarish, harakat belgisini ifodalaydi	<i>eshitgan, yetkazadigan, o'tar, so'nmas</i>
Ravishdosh	Fe'ning ravishga xoslangan shakli. Ravishdosh ham ravish kabi fe'lga bog'lanib, uning belgisini bildiradi.	<i>yetib, qorayguncha, bilib-bilmay</i>

Fe'ning harakat nomi shakli

Qo'shimchalari	Imlosi	Otga xos shakllari	Sintaktik vazifalari
1. Bolishli shakllari: <i>-(i)sh, -(u)v, -moq</i>	<i>A</i> yoki <i>i</i> unlisi bilan tugagan fe'l asoslariga	<i>yozmogʻ, yozish, yozuv; haydamogʻ, haydash, haydoʻ.</i>	Gapda ot soʻzlar bajaradigan gap boʻlagi (<i>ega, toʻldiruvchi, qaratqich aniqlovchi, kesim</i>) vazifasida keladi.
2. Boʻlishsiz shakli: <i>-maslik</i>	<i>-v</i> qoʻshimchasi qoʻshilganda, <i>a</i> unlisi <i>o</i> ga, <i>i</i> unlisi <i>u</i> ga aylanadi va shunday yoziladi		Egalik, keli-shik qoʻshimchalarini oladi

Fe'ning sifatdosh shakllari

Zamon shakllari	Qo'shimchalari	Bo'lishli shakli	Bo'lishsiz shakli	Sintaktik vazifalari
O'tgan zamon sifatdoshi	<i>-gan (-kan, -qan), (-mish)</i>	<i>sanagan, tikkan, oqqan, tugʻgan</i>	<i>sana magan, tikkan i yoʻq (-i egalik qoʻshimchasi qoʻshiladi), oqqan emas</i>	<i>Sifatlovchi aniqlovchi, hol, kesim</i> vazifalarida keladi.
Hozirgi zamon sifatdoshi	<i>-(a) yotgan</i>	<i>sanayotgan, tikayotgan, oqayotgan</i>	<i>sana mayotgan, tikayotgan i yoʻq (-i egalik qoʻshimchasi qoʻshiladi), oqayotgan emas</i>	Egalik, keli-shik qoʻshimchalarini olmaydi, faqat otlashganda bu shakllarni olishi mumkin
Kelasi zamon sifatdoshi	<i>-ydigan, -adigan, -(a)r (-ajak, -asi (-gusi))</i>	<i>sanaydigan, tikadigan, oqar</i>	<i>sana maydigan, tika d i g a n i yoʻq (-i egalik qoʻshimchasi qoʻshiladi), oqmas</i>	

Fe'ning ravishdosh shakllari

Ma'no turlari	Qo'shimchalari	Misollar	Imlosi	Sintaktik vazifalari
Holat ravishdoshi	<i>-gach, -kach, -qach, -(i), -a // -y</i>	<i>borgach, tikkach, yig'gach, yurib, o'qiy</i>	<i>-kach</i> qo'shimchasi <i>k</i> undoshi bilan, <i>-qach</i> qo'shimchasi <i>q</i> undoshi bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shiladi va qo'sh undosh shaklida yoziladi. <i>G'</i> undoshi bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shilganda <i>-gach</i> shaklida yoziladi	<i>Hol</i> va <i>kesim</i> vazifasida keladi
Payt ravishdoshi	<i>-guncha, -kuncha, -quncha</i>	<i>borguncha, tikkuncha, yig'guncha</i>	<i>-kuncha</i> qo'shimchasi <i>k</i> undoshi bilan, <i>-quncha</i> qo'shimchasi <i>q</i> undoshi bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shiladi va qo'sh undosh shaklida yoziladi. <i>G'</i> undoshi bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shilganda <i>-guncha</i> shaklida yoziladi	<i>Hol</i> va <i>kesim</i> (qo'shma gapda) vazifasida keladi
Maqsad ravishdosi	<i>-gani, -kani, -qani.</i> Bolishsiz shaklga ega emas	<i>borgani, tikkani, yig'gani</i>	<i>-kani</i> qo'shimchasi <i>k</i> undoshi bilan, <i>-qani</i> qo'shimchasi <i>q</i> undoshi bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shiladi va qo'sh undosh shaklida yoziladi. <i>G'</i> undoshi bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shilganda <i>-gani</i> shaklida yoziladi	<i>Hol</i> vazifasida keladi

Fe'llarning tuzilishiga ko'ra turlari

Tuzilishi	Izohi va imlosi	Misollar
Sodda fe'llar	Sodda tub fe'llar bir asosdan iborat va asos holatida harakat-holatni ifodalaydi	<i>yurmoq, olmoq, to'qimoq</i>
	Sodda yasama fe'llar so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida boshqa so'z turlaridan yasaladi	<i>yo'llamoq, suvsiramog, ta'sirlamoq</i>
Qo'shma fe'llar	Birdan oqtiq asosdan tashkil topib, asoslar orasiga boshqa qo'shimchalarni qo'shib bo'lmaydi va bitta so'roqqa javob bo'ladi. Ma'no va tuzilishigan ko'ra: <i>qo'shma fe'l</i> va <i>ko'makchi fe'li</i> so'z <i>qo'shilmasiga</i> bo'linadi	<i>olib kelmoq, joy solmoq, sotib olmoq; o'qib chiqmoq, yaraqlab ketmoq</i>
Iuft fe'llar	Ikki fe'l juftligidan tashkil topib, bitta so'roqqa javob bo'ladi. Ular <i>chiziqcha bilan yoziladi</i> , harakatning tez va kutilmaganida ro'y berishini ifodalaydi	<i>undi-o'sdi, qo'chdi-ketdi; bordi-keldi (ot), kuydi-pishdi (ravish)</i>
Takroriy fe'llar	Bir asosni takrorlash bilan hosil qilinadi. Takroriy fe'llar <i>chiziqcha bilan yoziladi</i> , harakat-holatning davomiyligini bildiradi	<i>kuta-kuta, ishlay-ishlay, o'yladi-o'yladi</i>

Qo'shma fe'l va ko'makchi fe'li so'z qo'shilmasining farqli belgilari

Qo'shma fe'l	Ko'makchi fe'li so'z qo'shilmasi
Qo'shma fe'llar ot, ravish, son, olmosh, undov va taqlid so'zlarga <i>qil, ot, bo'l</i> kabi so'zlarni, fe'l asoslariga <i>kelmoq, ketmoq, olmoq</i> kabi fe'llarni qo'shish bilan hosil qilinadi.	Ko'makchi fe'li so'z qo'shilmasining birinchi qismi lug'aviy ma'noga ega bo'lgan yetakchi fe'ldan, ikkinchisi o'z ma'nosida qo'llanmaydigan ko'makchi fe'ldan iborat. Yetakchi fe'l <i>-a, -y, -b, -ib</i> shaklidagi ravishdoshdan iborat bo'ladi. Ko'makchi fe'l yetakchi fe'lga turli qo'shimcha ma'nolarni yuklaydi. Masalan: <i>yura boshlamoq, so'zlay ketdi, o'qib chiqdi</i> kabi

Fe'llarning qo'shimchalar yordamida yasalishi

Asos	Qo'shimchalar	Imlosi	Misollar
Otdan	<i>-la, -lan, -lash, -a, -sira, -i, -ik, -iq, -ir, -ay, -lashtir</i>	<i>-a</i> so'z yasovchisi <i>o'yin</i> so'ziga qo'shilsa, asosdagi <i>i</i> tovushi tushadi: <i>o'yin + -a = o'yna</i>	<i>joyla, shodlan, ahdlash, qona, boyi, ko'zik, yo'liq, gapir, kuchay, sahna-lashtir</i>
Sifatdan	<i>-la, -lan, -lash, -a, -(a)y, -(a)r, -i, -t</i>	<i>-a</i> so'z yasovchisi <i>qiyin</i> so'ziga qo'shilsa, 2-bo'g'indagi <i>i</i> tovushi tushadi: <i>qiyin + -a = q'iyina</i>	<i>tozala, maydalan, qo'pollash, toray, tinchi, to'lat</i>
Ravishdan	<i>-la, -lan, -lash, -(i)k, -(i)q</i>		<i>tekisla, o'nglan, yaqinlash, kechik, zo'riq</i>
Sondan	<i>-la, -lan, -ik</i>		<i>yarimla, ikkilan, bir-ik</i>
Olmoshdan	<i>-sira</i>		<i>sen'sira, siz'sira</i>
Modal so'zdan	<i>-la</i>		<i>vo'qla, afsusla</i>
Taqlid so'zdan	<i>-la, -illa, -ulla, -ira, -a</i>	<i>-illa</i> qo'shimchasi <i>v</i> tovushi bilan tugagan so'zlarga <i>-ulla</i> shaklida qo'shiladi: <i>guy + -ulla = guy'ulla</i>	<i>gumburla, likilla, shovulla, yal-jira, jildira</i>
Undov so'zdan	<i>-la</i>		<i>dod'la, voyvoyla</i>

Otning ma'no turlari

Atoqli	Turdosh
Bir turdagi shaxs, predmet, hodisa, joydan biriga atab qo'yilgan nom	Bir turdagi shaxs, predmet, hodisa, joyning umumiy nomini bildirgan ot

Atoqli otlarning ma'noviy guruhlari

Turlari	Imlosi va misollar
shaxs nomlari	Familiyalar shaxs ismidan so'ng otasining ismini qoldirish (<i>Usmon Nosir</i>), otasining ismiga <i>-ov(a)</i> , <i>-ev(a)</i> , <i>-yev(a)</i> qo'shimchasini qo'shish (<i>Erkin Vohidov</i>) bilan ifodalanadi.
Mahsulot nomi	Turli mahsulotlarga atab qo'yilgan shartli nomlar qo'shtirnoq ichida bosh harf bilan yoziladi: « <i>Lasetti</i> » <i>avtomashinasi</i>
Joy nomlari	Ma'lum bir geografik hudud, mamlakat, o'lka nomlari qo'shma ot shaklida bo'lganda, tarkibidagi har bir so'z bosh harf bilan yoziladi: <i>Markaziy Qizilqum</i> . Tarkibida <i>bo'yi</i> , <i>orti</i> , <i>oldi</i> , <i>obod</i> so'zlari ishtirok etgan joy nomlari qo'shib yoziladi: <i>Volgabo'yi</i>
Tashkilot, korxonalar, muassasa nomlari	Xalqaro va oliy davlat tashkilotlari va mansablarining nomlari tarkibidagi har bir so'z bosh harf bilan yoziladi: <i>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi</i> . Vazirliklar, idoralar, tashkilotlar va korxonalar nomi tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan yoziladi: <i>Oliy xo'jalik sudi</i> . Turli korxonalar, inshootlarning shartli nomlari qo'shtirnoq ichida bosh harf bilan (birikmali holatlarda faqat shartli nom) yoziladi: « <i>Nuroni</i> » <i>jamg'armasi</i>
Tarixiy sana va bayram nomlari	Tarixiy sana va bayram nomlari tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan yoziladi: <i>Navro'z bayrami</i>
Suv havzalari va inshootlari nomlari	Suv havzalari va inshootlari nomlari tarkibidagi birinchi so'z bosh harflar bilan yoziladi: <i>Sangzor daryosi</i>

Turdosh otlarning lug'aviy ma'nosiga ko'ra turlari

Turlari	Yasovchi qo'shimchalari	Imlosi va misollar
Shaxs otlari	<i>-chi, -vchi, -lik, -kash, -do'z, -gir, -dor, -dosh, -kor, -bon, -boz (-voz), -kov, -navis, -paz, -go'y, -gar, -soz, -furush, -xon, -xo'r, -shunos, ham-, -bin, -voy</i>	<i>o'quvchi</i> (i unlisi u ga o'zgaradi), <i>quruvchi</i> (undosh bilan tugagan fe'llarga <i>-uvchi</i> shaklida qo'shiladi)
Narsa-buyum otlari	<i>-a, -ak, -k, -at, -gi, -qun, -gich, -noma, -cha, -chak, -chi, -chiq, -g'ich, -q, -imlik, -bon</i>	<i>bo'yoq</i> (a unlisi o ga o'zgaradi), <i>do'mbira, ko'chat</i>
O'rin-joy otlari	<i>-goh, -zor, -iston, -loq, -xona</i>	<i>oromgoh, gulzor, O'zbekiston, o'lloq</i>
Faoliyat-jarayon otlari	<i>-a, -ak, -garchilik, -g'in, -lik, -uv, -im, -um, -iq</i>	<i>dag'dag'a, xurrak, ezmalik, chaquv, te- rim, unum</i>

Turdosh otlarning grammatik ma'nosiga ko'ra turlari

Bevosita kuza- tish mumkin yoki mumkin bo'lmagan narsa nomini bildirishiga ko'ra		Bir turga kiruvchi bitta predmetning yoki predmetlar to'dasining nomini bildirishiga ko'ra		Sanalish-sanalmasligiga ko'ra	
Aniq otlar	Mavhum otlar	Yakka otlar	Jamlovchi otlar	Sanaladigan narsa otlari	Sanalmaydigan narsa otlari

Aniq va mavhum otlar

Aniq otlar	Mavhum otlar
Sezgi a'zolari orqali bilish mumkin bo'lgan narsalarni ifodalaydi. Aniq otlar birlik va ko'plik shaklida qo'llana oladi: <i>daftar, quti, bino, sigir, non, sumalak, tish</i>	Sezgi a'zolari orqali bilish mumkin bo'lmagan, tafakkur va tasavvur orqali idrok qilinadigan narsalarni bildiradi. Ular ko'plik shaklida qo'llanganda ko'plik ma'nosi emas, balki ta'kidlash, kuchaytirish ma'nolari ifodalanadi. Mavhum otlar <i>-lik, -ch, -inch</i> qo'shimchalari orqali yasaladi: <i>hayo, havo, qadriyat, ishonch, sevinch, qaysarlik, muhtojlik, dadillik</i>

Yakka va jamlovchi otlar

Yakka otlar	Jamlovchi otlar
Bir turga kiruvchi bitta predmetning nomini bildiradi: <i>taxta, qalam, behi, terak, yaylov</i>	Bir turdagi narsalar to' dasining birlik shaklidagi nomini bildiradi: <i>el, qo'shin, pada, lashkar, xalq</i>

Sanaladigan va sanalmaydigan narsa otlari

Sanaladigan narsa otlari	Sanalmaydigan narsa otlari
Sanaladigan otlar aniq narsa (ot)larning nomini bildiradi: <i>kosa, toq, kitob, daryo, tosh</i> kabi	Sanab ishlatilmaydigan moddalar nomini bildiradi: <i>havo, suv, sut, bulut, bug', yog', qum</i> kabi

Otning grammatik ma'no beruvchi shakllari

Shakli	Izohi	Misollar
Nom (birlik va ko'p-lik)	Otlarning <i>-lar</i> qo'shimchasini olgan shakli ko'plik, <i>-lar</i> qo'shimchasiz shakli esa birlik shakli sanaladi. <i>-lar</i> qo'shimchasining grammatik ma'nosi ko'plikni ifodalashdir. Otlarning ko'plik shakli ko'plik ma'nosidan tashqari hurmat, umumlashtirish, kuchaytirish, nav, taxmin ma'nolarni ham ifodalashi uslubiy ma'no hisoblanadi	<i>bog', xiyobon, inson, to'ticha</i> (birlik); <i>gullar, toshlar, odamlar, simlar</i> (ko'plik); <i>dadamlar</i> (hurmat), <i>mevalar</i> (umumlashtirish), <i>shu kunlarda, soat beshlarda</i> (taxmin), <i>o'ylar</i> (kuchaytirish)
Egallik	Ot va otlashgan so'zlarga qo'shib, asos qismda ifodalangan narsa, belgi-xususiyat, harakat-holatlarning uch shaxsdan biriga qarashli ekanligini bildirgan qo'shimchalar	<i>ukam, boshim; ukang, boshing; ukasi, boshi; ukamiz, boshimiz; ukangiz, boshingiz ukalari, bosh(lar)i</i>
Kelishik	Ot va otlashgan so'zlarni boshqa so'zlarga tobelantirib bog'lash uchun xizmat qiluvchi qo'shimchalar. Kelishik shakllari doimo tobe so'zga qo'shiladi	<i>suv (o), suvning, suvni, suvga, suvda, suvdam</i>

Otlarning son shakllari

Son shakllari	Yasalishi (shakli)
Birlik	1. Morfologik ko'rsatkichga ega emas (\emptyset). 2. Atoqli otlar, mavhum otlar, yakka va juft tana a'zolari nomlari, sanalmaydigan jismlar nomi, asosan, birlikda qo'llaniladi
Ko'plik	1. Morfologik usul bilan: <i>kitoblar, nylar</i> . 2. Sintaktik usul bilan: <i>ancha odam, hir qancha kitob</i> . 3. Leksik usul bilan: <i>armiya, xalq, olomon, guruh, to'da, dasta</i> . 4. So'zni juftlash usuli bilan: <i>qop-qop olma, dasta-dasta gul</i> . 5. Leksik-morfologik usul bilan: <i>ancha kitoblar</i>

Otlarning egalik shakllari

Shaxs	Birlik		Ko'plik	
	Unli bilan tugagan asosga	Undosh bilan tugagan asosga	Unli bilan tugagan asosga	Undosh bilan tugagan asosga
I	<i>onam</i>	<i>kitobim</i>	<i>onamiz</i>	<i>kitobimiz</i>
II	<i>onang</i>	<i>kitobing</i>	<i>onangiz</i>	<i>kitobingiz</i>
III	<i>onasi</i>	<i>kitobi</i>	<i>onalari</i>	<i>kitob(lar)i</i>

Egalik qo'shimchali so'zlarning imlosi

Tovush o'zgarishi	Tovush tushishi
<i>Terak, qishloq, bolalik</i> singari ikki va ko'p bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, asos qismining oxirgi <i>k, q</i> tovushi <i>g</i> va <i>g'</i> tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi: <i>tera<i>g</i>i, qishlo<i>g</i>'i, bolali<i>g</i>i</i>	<i>Qorin, o'g'il, shahar</i> kabi ikkinchi bo'g'inida <i>i</i> unlisi ishtirok etgan so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda ikkinchi bo'g'indagi <i>i</i> yoki <i>a</i> unlisi tushib qoladi va shunday yoziladi: <i>qorni, o'g'li, shahri</i>

Kelishik shakllari

Kelishik nomi	Qo'shimchalari	So'roqlari	Misollar
Bosh kelishik	Ø	kim? nima? qayer?	Asqar tarvuz Jizzax
Qaratqich kelishigi	-ning <i>(-i)n</i> , -im shakllari badiiy adabiyotda qo'llaniladi)	kimning? nimaning? qayerning?	Asqarning tarvuzning Jizzaxning
Tushum kelishigi	-ni <i>(-n, -i)</i> shakllari badiiy adabiyotda uchraydi)	kimni? nimani? qayerni?	Asqarni tarvuzni Jizzaxni
Jo'nalish kelishigi	-ga <i>(-ka, -qa, -g'a)</i> (-a shakli shevada va mumtoz asarlarda uchraydi)	kimga? nimaga? qayerga? qachon?	Asqarga tarvuzga Jizzaxga tongga (tongga yaqin keldi)
O'rin-payt kelishigi	-da	kimda? nimada? qayerda? qachon?	Asqarda tarvuzda Jizzaxda tongda (tongda keldi)
Chiqish kelishigi	-dan <i>(-din, -tin, -tan, -nan)</i> shakllari shevada va mumtoz asarlarda uchraydi)	kimdan? nimadan? qayerdan? qachon?	Asqardan tarvuzdan Jizzaxdan tongdan (tongdan boshlandi)

Kelishik shakllarining ma'nosi va imlosi

Kelishik nomi	Ma'nosi	Imlosi
Bosh kelishik	Asosiy vazifasi egani shakllantirish bo'lgan bosh kelishik shakli maxsus ko'rsatkichga ega emas	Maxsus qo'shimchaga ega bo'lmaganligi uchun ismlarga qo'shilganda tovush o'zgarishlariga olib kelmaydi
Qaratqich kelishigi	Qaratqich kelishigi qaratqichni qaralmishga tobelantirib keladi va qaralmishda ifodalangan narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatlarning qaratqich shaklidagi ismlarga qarashli ekanligini bildiradi	Qaratqich kelishigi belgili (-ning) va belgisiz (Ø) qo'llanishi mumkin. Asosan, umumiy xoslikni bildirsa, belgisiz, aniq xususiy xoslikda belgili ishlatiladi. Quyidagi hollarda belgili qo'llaniladi: a) qaratqich va qaralmish o'rtasida boshqa so'z qo'llanganda: <i>Ahmadning katta akasi</i> ; b) qaratqich atoqli ot, olmosh, sifat-doshga qo'shilganda: <i>bizning maktab, kelganlarning ro'yxati</i>
Tushum kelishigi	Tushum kelishigi shaklini olgan so'z doimo o'timli fe'lga bog'lanadi va fe'l tomonidan boshqariladi	Tushum kelishigi belgili (-ni) va belgisiz (Ø) qo'llanishi mumkin. Fe'l umumiy ma'nodagi obyekt nomini boshqarganda belgisiz, aniq va o'ziga xos obyekt nomida esa belgili ishlatiladi. Quyidagi hollarda belgili qo'llaniladi: a) tushum kelishigidagi so'z atoqli ot bo'lsa: <i>Ahrorni ko'rdimi?</i> b) tushum kelishigidagi so'zdan oldin aniqlovchi yoki undan keyin hol qo'llansa: <i>O'sha qizni ko'rdim. Xatini chiroyli yozdi</i> ; d) so'z shaxs oti, olmosh, sifat-dosh bo'lganda: <i>o'zini ko'rsatmoq, pishganini termoq</i>

Kelishik nomi	Ma'nosi	Imlosi
Jo'nalish kelishigi	<p>Jo'nalish kelishigidagi ot ish-harakat yo'nalgan shaxs-narsani anglatadi va o'rin, payt, sabab kabi ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi</p>	<p>Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi <i>k</i>, <i>q</i> tovushlari bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda <i>-ka</i>, <i>-qa</i> shaklida aytiladi va shunday yoziladi: <i>terakka</i>, <i>chopiqqa</i> kabi.</p> <p><i>G</i> tovushi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda <i>-qa</i> tarzida talaffuz qilinsa ham, <i>-ga</i> shaklida yoziladi: <i>bog'ga</i>, <i>tog'ga</i> kabi.</p> <p>Boshqa hollarda, so'z qanday tovush bilan tugashidan qat'i nazar, <i>-ga</i> qo'shimchasi qo'shiladi: <i>shaharga</i>, <i>atrofga</i> kabi</p>
O'rin-payt kelishigi	<p>Ish-harakatning (ba'zan predmetning) bo'lish o'rnini, paytini bildiradi</p>	<p>O'rin-payt kelishigi qo'shimchasi o'zi qo'shib kelgan so'zda biron-bir tovush o'zgarishiga olib kelmaydi</p>
Chiqish kelishigi	<p>Chiqish kelishigi ish-harakatning boshlanish o'rnini, manbaini, sababini va qiyoslash ma'nosini anglatadi.</p> <p>Tushum kelishigi o'rnida chiqish kelishigini qo'llash xato. Chunki tushum kelishigidagi so'z butunni, chiqish kelishigidagi so'z esa qismni bildiradi: <i>uzumni yemoq</i> — <i>uzundan yemoq</i></p>	<p>Chiqish kelishigi qo'shimchasi o'zi qo'shib kelgan so'zda biron-bir tovush o'zgarishiga olib kelmaydi</p>

Kelishik qo'shimchasi bilan turlangan so'zlarning gapdagi sintaktik vazifalari

Turlanishi	Gapdagi so'zning sintaktik vazifalari
Bosh kelishikda	Bosh kelishikdagi so'zlar gapda <i>ega</i> , <i>ot kesim</i> , <i>undalma</i> vazifasida keladi
Qaratqich kelishigida	Qaratqich kelishigidagi so'z moslashuv aloqasida bo'ladi, gapda <i>qaratqich aniqlovchi</i> vazifasida keladi
Tushum kelishigida	Tushum kelishigidagi so'z boshqaruv aloqasida bo'ladi, gapda <i>vositasiz to'ldiruvchi</i> vazifasida keladi
Jo'nalish kelishigida	Jo'nalish kelishigidagi so'z boshqaruv aloqasida bo'ladi, <i>o'rin holi</i> , <i>payt holi</i> , <i>vositali to'ldiruvchi</i> va <i>ot kesim</i> vazifasida qo'llaniladi.
O'rin-payt kelishigida	O'rin-payt kelishigidagi so'z boshqaruv aloqasida bo'ladi, gapda <i>o'rin holi</i> , <i>payt holi</i> , <i>vositali to'ldiruvchi</i> va <i>ot kesim</i> vazifasida keladi
Chiqish kelishigida	Chiqish kelishigidagi so'z boshqaruv aloqasida bo'ladi, gapda <i>o'rin holi</i> , <i>payt holi</i> , <i>vositali to'ldiruvchi</i> va <i>ot kesim</i> vazifasida keladi

Otlarning lug'aviy shakllari

Lug'aviy shakl nomi	Qo'shimchalari	Ma'nosi	Misollar
Ko'plik shakli	-lar	1. Shaxs-narsalarning miqdoriy ko'pligini (<i>grammatik ma'noni</i>) ifodalaydi	<i>gullar</i> , <i>daraxtlar</i>
		2. Hurmat, kuchaytirish, ummlashtirish, taxmin kabi qo'shimcha (<i>uslubiy</i>) ma'nolarni ifodalaydi	<i>ko'zlar</i> , <i>suvlar</i> , <i>zulfiyalar</i> , <i>qalblar</i>
Kichraytirish shakli	-cha, -choq, -chak, -kay, -ak	Shaxs va boshqa mavjudotlar, narsalarni kichraytirish ma'nosini ifodalaydi	<i>uycha</i> , <i>toychoq</i> , <i>kelinchak</i> , <i>bolakay</i> , <i>yo'lak</i>

Lug'aviy shakl nomi	Qo'shimchalari	Ma'nosi	Misollar
Erkalash shakli	-jon, -xon, -bek, -oy, -gina (-kina, -qina), -loq	Shaxs va boshqa tirik mavjudotlarni erkalash, suyish kabi munosabatni ifodalaydi	<i>Akbarjon, Lo-baroy, Azibek, otaxon, qizgina, buzoqjina, ho'taloq</i>
O'rni va payt belgisi shakli	-dagi	Narsa-hodisaning o'rniga ko'ra belgisini bildiradi	<i>uydagi, ko'chadagi, mendagi, yonidagi</i>
Chegara shakli	-gacha (-kacha, -qacha)	1. Makondagi chegara ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi	<i>burchakkacha, qishloqacha, tog'gacha</i>
		2. Aniq narsadagi chegara ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi	<i>tanlovgacha</i>
		3. Zamondagi chegara ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi	<i>ertagacha</i>
O'xshatish shakli	-dek, -day	Shaxs va narsani belgi, harakat kabi jihatlari -dek, -day shaklli so'z bildirgan shaxs-narsaga o'xshatadi	<i>sherddek, kaftdek, kiyikday, qushday</i>

Otlarning sintaktik (munosabat) shakllari

Egalik shakllari	Kelishik shakllari	Bog‘lamalar (otlarni kesimga xoslovchi shakllar)
-m (-im), -ng (-ing), -i (-si), -miz (-imiz), -ngiz (-ingiz), -(lar)ji	-ning, -ni, -ga (-ka, -qa), -da, -dan	Ot orqali ifodalangan kesimlar shaxs-sonni bildiruvchi -man, -miz, -san, -siz, -dir qo‘shimchalari, shuningdek, bo‘lmoq, sanalmoq, hisoblanmoq; ekan, emish, emas; kerak, lozim, darkor, iborat, mumkin so‘zlari vositasida ega bilan moslashadi

Otlarning tuzilishiga ko‘ra turlari

Tuzilishi	Izohi va imlosi	Misollar
Sodda otlar	Sodda tub otlar faqat bir asosdan tarkib topadi	<i>tosh, yer</i>
	Sodda yasama otlar asos va so‘z yasovchi qismdan iborat bo‘ladi	<i>guldon, tinchlik</i>
Qo‘shma otlar	Ikki va undan ortiq asosdan tarkib topadi. Har ikkala qismi turdosh ot bo‘lgan qo‘shma otlar va ikkinchi qismi turdosh ot bo‘lgan atoqli otlar <i>qo‘shib</i> , ikkinchi qismi atoqli ot bo‘lgan qo‘shma otlar esa <i>ajratib yoziladi</i>	<i>bilaguzuk, laylakqor, Beshariq, Sharqiy Osiyo</i>
Juft otlar	Bir-biriga yaqin yoki qarama-qarshi ma‘noli asoslardan tarkib topadi va doimo <i>chiziqcha bilan yoziladi</i>	<i>savdo-sotiq, avol-erkak</i>
Takroriy otlar	Ikkinchi qismi birinchi qismining tovush o‘zgarishi asosidagi takroridan iborat bo‘ladi va doimo <i>chiziqcha bilan yoziladi</i>	<i>qovun-povun, uy-puy</i>
Qisqartma otlar	Tarkibli nomlarning bosh harfidan iborat qisqartmalar, atoqli ot bo‘lmagan ba‘zi birikmalarning qisqartmalari <i>bosh harf bilan yoziladi</i> . Qisqartma tarkibida bo‘g‘inga teng qism bo‘lsa, uning <i>birinchi harfigina bosh harf bilan yoziladi</i> .	<i>A Q S H, BMT, AES, ToshDTU, O‘zMU, SamDU, O‘zFA</i>

Otlarning qo'shimchalar yordamida yasalishi

Asos	Qo'shimchalar	Imlosi	Misollar
Fe'ldan	<i>-m (-im, -um), -k (-ik, -ak), -q (-iq, -uq, -oq), -gi (-ki, -qi, -g'i, -g'u), -ma, -qin (-g'in), -in (-un), -(i)ndi, -gich (-g'ich, -kich, qich), -ch (-inch), -machoq, -(i)sh, -(u)v, -(u)vchi, -(o)vchi</i>	Asosi <i>a</i> to'vushi bilan tugagan fe'llarga <i>-q, -vchi</i> qo'shimchalari qo'shilsa, asosdagi <i>a</i> to'vushi <i>o</i> ga almashadi: <i>so'ra</i> + <i>-q</i> = <i>so'roq</i> , <i>yasa</i> + <i>-vchi</i> = <i>yasovchi</i>	<i>to'plam, elak, qayroq, kulgi, yong'in, tugun, yig'indi, eritkich, o'kinch, quvlash-machoq, turlanish, tinglovchi</i>
Otdan	<i>-chi, -lik, -chilik, -zor, -loq, -goh, -iston, -don, -kor, -xon, -shunos, -kash, -do'z, -gar, -soz, -paz, -boz, -xo'r, ham-, -parast, -boz, -dor, -furush, -go'y, -dosh, -vachcha, -xona, -obod, -noma</i>		<i>suvchi, do'stlik, olmazor, o'tloq, tuzdon, tadbirkor, zargar, duogo'y, hamshahar, mulkdor, va'daboz, kasbdosh, to'yxona, arznoma</i>
Sifatdan	<i>-lik</i>		<i>aniqlik, ezmalik</i>
Ravishdan	<i>-lik</i>		<i>tezlik, ko'plik</i>
Sondan	<i>-lik</i>		<i>choraklik</i>
Olmoshdan	<i>-lik</i>		<i>o'zlik</i>
Inqlid so'zdan	<i>-ak (oq), -a, -os, -ildiq</i>		<i>qarsak, g'arg'ara chuvvos, hiqildiq</i>

SIFAT

Sifatning ma'no turlari

Ma'no turlari	Izohi	Misollar
Xususiyat bildiruvchi sifatlar	Shaxs-narsalarning xususiyat-holatini ifodalaydi. Ayrimlari inson, hayvon va narsalarga nisbatan birday qo'llanaveradi: <i>yuvosh odam</i> – <i>yuvosh ot</i> kabi	<i>ochofat, ziyrak, faol, bilag'on, begona, qiyin, vijdonli, g'alati, sho'x</i>
Holatni bildiruvchi sifatlar	Shaxs-narsalarning holatini ifodalaydi. Xususiyat-holat sifat-lari ijobiy yoki salbiy munosabat-ni ham bildiradi	<i>ko'hna, luchchak, ma'yus, mosuvo, obod, oso-yishta, toza, tarang, xafa, mast</i>
Rang-tus bildiruvchi sifatlar	Narsalarning rangi, tusi-ni ifodalaydi. <i>-ish, -(i)mtir</i> qo'shimchalari faqat shu sifatlar-dan ozaytirma daraja yasaydi	<i>moviy, jigarrang, ola, chipor, zarg'aldoq, qora, pushti, ko'kish, oqimtir</i>
Maza-ta'm bildiruvchi sifatlar	Iste'mol qilinadigan mahsulot-larning maza, ta'mini bildiradi	<i>achchiq, chuchuk, sho'r; nordon, taxir, shirin, kakra, laziz, xushta'm</i>
Hajm-o'lchov bildiruvchi sifatlar	Narsalarning hajm, vazn, o'l-chovini ifodalaydi	<i>muazzam, mo'jaz, ki-chik, og'ir, yengil, be-payon, teng, keng, tor, qisqa</i>
Hid bildiruvchi sifatlar	Narsa-mahsulotlarning hidini bildiradi	<i>xushbo'y, muattar, qo'lansa, sassiq, badbo'y</i>
Makon-zamon bildiruvchi sifatlar	O'rin yoki payt bildiruvchi ot-larga qo'shilib, narsalarning o'rin va vaqtga nisbatan belgisini bildi-radi	<i>longgi, kuzgi, kechki, yuqorigi (qavat), quyil (palata), tuban (joy), to'ng'ich, kenja, chetki</i>
Shakl-ko'rinish bildiruvchi sifatlar	Insonlarning tashqi qiyofasi va narsalarning shakliy ko'rinishini bildiradi	<i>dumaloq, yassi, uzun-choq, qiyshiq, do'ng, tekis, do'mboq, jikkak, silliq</i>

Asliy va nisbiy sifatlar

Asliy sifatlar	Nisbiy sifatlar
Belgini to'g'ridan-to'g'ri ifodalaydi va uni darajalab ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi: <i>oq, suluv, keng</i>	Belgini to'g'ridan-to'g'ri emas, balki boshqa bir tushunchaga nisbatlangan holda ifodalaydi va daraja ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lmaydi: <i>aqlli, ilmiy, tuzsiz</i>

Sifat darajalari

Daraja nomi	Ma'nosi	Daraja hosil qiluvchi shakllari	Misollar
Oltin daraja	Belgining me'yorida ekanligini bildirib, boshqa darajalar uchun asos bo'ladi	O	<i>shirin, katta, toza, shinam, ulkan, orzumann, sershira</i>
Orttirma daraja	Belgining me'yoridan ortiq ekanligini bildiruvchi sifat shakli. Bu daraja shakli <i>leksik, fonetik va morfologik</i> usullar bilan hosil qilinadi	<p><i>Eng, juda, g'oyat, behad</i> so'zlari orqali</p> <p>Birinci bo'g'inni tovush o'zgarishi bilan takrorlash orqali</p> <p>Tovushni cho'zish, qavatlantirish orqali</p> <p><i>-dan</i> shaklini qo'shish orqali</p> <p>Otni sifat o'rnida qo'llash orqali</p>	<p><i>eng qizil, juda och</i></p> <p><i>sap-sariq, busbutun, kap-katta, oppoq</i></p> <p><i>achchchiq, kattata, oppa-oston</i></p> <p><i>shirindan shirin, kattadan katta</i></p> <p><i>latta</i> (landavur) <i>odam</i></p>
Qiyosiy daraja	Belgining me'yoridan bir oz kam ekanligini qiyosan ifodalaydi	<i>-roq</i> qo'shimchasini qo'shish orqali	<i>mazaliroq, kaltaroq, balandroq, pastroq</i>
Ozaytirma daraja	Belgining me'yoridan kam ekanligini bildiruvchi sifat shakli. Bu daraja shakli <i>leksik va morfologik</i> usulda hosil qilinadi	<p><i>Sal, biroz, picha, nim, och, xiyla, xiyol</i> so'zlarini keltirish orqali</p> <p><i>-ish, -imtir, -gina, -toib</i> qo'shimchalarini qo'shish orqali</p>	<p><i>sal shirin, biroz katta, xiyla chuqur, och qizil</i></p> <p><i>oqintir, sarg'ish, yashiltoib, kattagina</i></p>

Sifatlarning tuzilishiga ko'ra turlari

Tuzilishi	Izohi va imlosi	Misollar
Sodda sifatlar	<i>Sodda tub sifatlar</i> tarkibida soʻz yasovchi qoʻshimchalar boʻlmaydi	<i>qalin, mayin, chuqur</i>
	<i>Sodda yasama sifatlar</i> asos va soʻz yasovchi qismdan iborat boʻladi	<i>tiniq, sersuv, sovuq</i>
Qoʻshma sifatlar	Ikki va undan ortiq asosdan tarkib topadi. Qoʻshma sifatlar, asosan, <i>qoʻshib yoziladi</i>	<i>havorang, shirinsoʻz, ichakuzdi</i>
Juft sifatlar	Oʻzaro yaqin yoki zid maʼnoli ikki asosning juft kelishidan hosil boʻladi. Juft sifat <i>chiziqcha bilan yoziladi</i> . Juft sifat <i>-u, -yir</i> vositasida bogʻlansa, ular <i>ajratib yoziladi</i>	<i>baland-past, uzug-yuluq, qora-qura; y a k k a - y u yagona</i>
Takroriy sifatlar	Bir asosning aynan takrorlanishidan hosil boʻladi. Takroriy sifatlar belgini taʼkidlab, kuchaytirib ifodalaydi. Takroriy sifat qismlari <i>chiziqcha bilan yoziladi</i>	<i>toʻp-toʻp, barra-barra, shoʻx-shoʻx, yirik-yirik</i>

Sifatlarning qo'shimchalar yordamida yasalishi

Asos	Qo'shimchalar	Imlosi	Misollar
Fe'ldan	-chan, -choq, (-chiq, -chak), -qoq (-g'oq), -gir (-kir, -qir, -g'ir), -ag'on, -mon, -ki, -qi, -(i)k (-i(q)), -kin (-qin, -g'in, -g'un), -ch, -(a)rli, -mas	Asosi <i>a</i> tovushi bilan tugagan fe'llarga -q, -qi qo'shimchalari qo'shilsa, asosdagi <i>a</i> tovushi <i>o</i> ga almashadi: oqsa + -q = oqsoq, sayra + + -qi = sayroqi	talabchan, erinchoq, qochqoq, topqir, topag'on, yeyarmon, egik, vaysaqi, jo'shqin, terma, maqtarli, qaytmas, tinch
Otdan	-li, -dor, -ser, ba-, be-, -mand, -kor, -siz, no-, -chan, -iy, -viy, -gi (-ki, -qi), -i, -cha, -aki, -namo, -simon, -parvar, bad-, -bop, xush-, -chil, -don, -kash		asosli, vafodor, sershox, bepul, tonggi, uyatchan, g'oyaviy, turkmani, yangicha, badnafs, qalbaki, gapdon, dardchil, ommabop
Harakat nomidan	-li		o'tirishli, yevishli
Sifatdan	no-, -cha, -aki		noahil, eskicha, xomaki
Ravishdan	-aki, -gi (-ki, -qi)		zo'raki, hozirgi, tashqi, jizzaki
Taqlid so'zdan	-ki (-qi), -ildoq		jirtaki, qaqildoq

SON

Sonning ma'no turlari

Miqdor son							Tartib son
Sanoq son	Dona son	Chama son	Taqsim son	Jamlovchi son	Kasr son	Aralash son	
<i>O'n</i>	<i>O'nta</i>	<i>O'ntacha</i>	<i>O'ntadan</i>	<i>Oltov</i>	<i>O'ndan bir</i>	<i>O'n butun uchdan bir</i>	<i>O'ninchi</i>

Sonning lug'aviy shakllari

Shakl nomi	Hosil qilinishi va imlosi	Misollar
Sanoq son	Sanoq sonning ko'rsatkichi yo'q (Ø)	<i>bir, ikki, uch, o'n</i>
Dona son	<i>-ta</i> qo'shimchasi va <i>dona, nafar, bosh</i> kabi hisob so'zlari orqali hosil qilinadi. <i>Bitta</i> so'zida <i>r</i> tovushi <i>t</i> ga o'zgargan	<i>beshta, ettita, yuzta; uch dona, o'n sakkiz nafar</i>
Chama son	a) <i>-tacha, -lab, -lar, -larcha</i> qo'shimchasi orqali; b) sonni juftlash bilan; d) <i>taxminan, qariyb, yaqin</i> (sanoq son + <i>-ga yaqin</i>), <i>taqriban</i> ravishi vositasida; e) <i>-cha</i> qo'shimchasini sondan keyingi hisob so'zga qo'shish bilan hosil qilinadi	a) <i>o'ntacha, minglab, ikkilar (soat), yuz-larcha;</i> b) <i>o'n-o'n besh, to'rt-besh;</i> d) <i>qariyb o'n beshta, taxminan uchta;</i> e) <i>ikki yilcha</i>
Taqsim son	<i>-tadan</i> qo'shimchasi orqali	<i>uchtadan</i>
Jamlovchi son	<i>-ov // -ovlon, -ala</i> qo'shimchalari <i>ikkidan o'ngacha</i> bo'lgan sonlarga qo'shiladi. Unli bilan tugagan <i>ikki, olti, yetti</i> sonlariga bu qo'shimchalar qo'shilganda <i>i</i> tovushi tushadi	<i>uchov, beshovlon, to'rtala; ikkov, oltovlon, yettala</i>

Shakl nomi	Hosil qilinishi va imlosi	Misollar
Kasr son	Butun miqdorni bildiruvchi qism ko'pincha chiqish kelishigida (-dan) keladi. <i>Yarim, chorak, nimchorak</i> so'zlari ham kasr sonlardir	<i>to'rt-dan uch, ikki-dan bir; olti yarim-chorak kam sakkiz</i>
Aralash son	Sanoq sonlar bilan kasr sonlar orasiga <i>butun</i> so'zini keltirish bilan hosil qilinadi	<i>besh butun to'rt-dan uch, olti butun yuzdan bir</i>
Tartib son	<i>-(i)nchi</i> qo'shimchasi yordamida yasaladi. Tartib sonlar arab raqami bilan yozilgan va <i>-(i)nchi</i> qo'shimchasi o'rnida arab raqamidan so'ng <i>chiziqcha</i> yoziladi. Rim raqami bilan ifodalanganda esa <i>chiziqcha</i> qo'yilmaydi	<i>birinchi, ikkinchi, yettinchi, yuzinchi, minginchi; 21- mart, 1- o'rin; 1 toifa, V kurs, XXI asr</i>

Sonlarning tuzilishiga ko'ra turlari

Tuzilishi	Izohi va imlosi	Misollar
Sodda tub sonlar	Sonlar so'z yasovchi qo'shimchalar bilan yasalmaydi. Shuning uchun doim sodda tub shaklida bo'ladi	<i>yuz, yetti, o'n, ming, million</i>
Qo'shma sonlar	Ikki va undan ortiq sodda sonlarning birikuvidan hosil bo'ladi. Qo'shma sonlarning qismlari: a) <i>tenglanish</i> yoki b) <i>to'belanish usulida</i> bog'lanadi va doim ajratib yoziladi	a) <i>o'n besh, ellik, olti;</i> b) <i>o'ndan bir, beshdan uch</i>
Juft sonlar	Ikki sonning juft kelishidan hosil bo'ladi. Juft sonlar <i>chiziqcha bilan yoziladi</i> . Juft sonlar <i>-u, -yu</i> vositasida bog'lansa, <i>yuklamadan oldin chiziqcha qo'yiladi</i>	<i>To'rt-besh, o'n-o'n besh, ikki-yu bir, olti-yu besh</i>
Takroriy sonlar	Bir xil sonning aynan takrorlanishidan hosil bo'ladi. Takroriy son qismlari <i>chiziqcha bilan yoziladi</i>	<i>uch-uch, ikki-ikki</i>

Hisob so'zlarining ma'no guruhlari

O'lchov ma'nosi	Hisob so'zlari
Uzunlik o'lchovi	<i>qadam, qarich, quloch. tosh (8,48 km), chaqirim (1,06 km), gaz (besh gaz mato), millimetr, santimetr, detsimetr. metr, kilometr, dyum</i>
Vaqt o'lchovi	<i>soniya, daqiqa, soat, sutka, kun, kecha-kunduz, hafta, oy, yil, asr</i>
Sath o'lchovi	<i>sotix, tanoh, gektar, taxta (qog'oz), enlik (xat) kvadrat metr</i>
Butunning qismi o'lchovi	<i>burda, varaq (bet, sahifa), luqma, og'iz (bir og'iz gap), parcha, poy, siqim, tilin (karch), tomchi (qatara), to'g'ram, chaqmoq, chimdim, shingil, qultum</i>
Og'irlik o'lchovi	<i>gramm, kilogramm, milligramm, litr, pud (16 kg), botmon (2-11 pud), misqol (4,26 gramm), paysa (50 gramm), tonna, sentner, qadoq, kosa, piyola, choynak, qop (xalta), qoshiq, quti</i>
Donalab sanash o'lchovi	<i>bosh, dona, nafar, nusxa, tup</i>
To'dalab, guruhlab sanash o'lchovi	<i>gala, to'p, to'da, guruh, dasta, bog' (bog'lam), quchoq, shoda, hovuch</i>
Qiymat hisobi	<i>miri, paqir, tilla, tanga, chiqim, pul, tiyin, so'm, veksel, dollar, evro</i>
Harakat miqdori hisobi	<i>marta, marotaba, karra, bor, hissa, qatla, daf'a, sidra, qur (bir-ikki qur kelishdi)</i>

RAVISH

Ravishning ma'no turlari

Turlari	Izohi	Misollar
Holat (daraj ravishi)	Harakat-holatning qay tarz- da bajarilganligini bildiradi va <i>qanday? qay holda? qay tarz- da?</i> so'roqlariga javob bo'ladi	<i>fidoyilarcha, yaxshilikcha, chalqanchasiga, boshdan oyoq, ochiqchasiga, ohista, piyoda, pinhona, bafurja, su- runkasiga, tekin, birin-ketin</i>
Payt ravishi	Harakat-holatning bajarili- shli yoki bajarilmaslik paytini bildirib, <i>qachon?</i> so'rog'iga javob bo'ladi	<i>to'ng'la, allaqachon, umrbod, unda-bunda, endi, erta, doi- mo, ertalab, yaqinda, o'qtin- o'qtin, qadimdan, ilgari</i>
O'rin ravishi	Harakat-holatning bajarili- shli yoki bajarilmaslik o'rnini bildirib, <i>qayer (-ga, -da, -dan)?</i> so'rog'iga javob bo'ladi	<i>u yerga (-da, -dan), bu yerga (-da, -dan), shu yerga (-da, -dan), uzoqdan, nariroqda, olg'a, o'rta, ichkari, tashqari</i>
Miqdor- daraja ravishi	Harakat-holatning baja- rilishidagi miqdor-darajani bildirib, <i>qancha?</i> so'rog'iga javob bo'ladi	<i>arang, batanom, baqadri- hol, baholiqudrat, hag'oyat, oz, birnavi, beaded, birmun- cha, butunlay, ko'p, mutlaqo, sira</i>
Sabab ravishi	Harakat-holatning bajarili- shli yoki bajarilmaslik sababini bildirib, <i>nima uchun? nima maqsadda? nima qilgani?</i> so'rog'iga javob bo'ladi	<i>noiloj, noilojlikdan, iloj- siz(likdan), bekordan-bekor- ga, chor-nochor</i>
Maqsad ravishi	Harakat-holatning bajarili- shli yoki bajarilmaslik maqsa- dini bildirib, <i>nimaga? nima uchun? nima sababdan? nima sababli?</i> so'rog'iga javob bo'ladi	<i>atay, atayin, ataylab, azza- bazza, jo'rtaga, qasddan</i>

Ravishlarning tuzilishiga ko'ra turlari

Tuzilishi	Izohi va imlosi	Misollar
Sodda ravishlar	<i>Sodda tub ravishlar</i> tarkibida soʻz yasovchi qoʻshimchalar boʻlmaydi	<i>yayov, darrov, birdan, chindan, tezda, hanuz yaqqol, joʻrtaga</i>
	<i>Sodda yasama ravishlar</i> asos va soʻz yasovchi qismdan iborat boʻladi	<i>oʻzicha, yangi-ⁿⁱ, yil-^{ta}, vijdon-ⁿⁱ, erkak-^{chasiga}, bolalarcha</i>
Qoʻshma ravishlar	Ikki va undan ortiq asosdan tarkib topadi. Qoʻshma ravishlar, asosan, ajratib yoziladi. Lekin <i>bir muncha, allamahol, allamechuk, allapayt, allazamonlar</i> kabi ravishlar qoʻshib yoziladi	<i>har yerda, hech qayerdan, bir yerga, biratoʻla, biryoʻla</i>
Juft ravishlar	Oʻzaro yaqin yoki zid maʼnoli ikki asosning juft kelishidan hosil boʻladi. Juft ravishlar <i>chiziqcha bilan yoziladi</i> . Ular <i>-u, -yu</i> vositasida bogʻlansa, <i>ajratib yoziladi</i>	<i>asta-sekin, ochiq-oydin, erta-indin; oy-da-yu yilda, unda-yu bunda, tun-u kun</i>
Takroriy ravishlar	Bir asosning aynan takrorlanishidan hosil boʻladi. Takroriy ravishlar harakatning takroriyligi, davomlilikini bildiradi. Takroriy ravish qismlari <i>chiziqcha bilan yoziladi</i>	<i>qayta-qayta, zinhorzinhor, ⁿⁱendi-ⁿⁱendi, sira-sira, zoʻrgʻa-zoʻrgʻa</i>

Ravishlarning yasalishi

Asos	Qo'shimchalar	Imlosi	Misollar
Uchdan	<i>-dek // -day, -siz</i>	Asliday yoziladi	<i>borgudek, olganday, to'xtovsiz</i>
Uchdan	<i>-cha, -larcha, -chasiga, -ona, -lab, -an, -siz, be-, -chang, -dek // -day, -aki, -lay(in)</i>	Asliday yoziladi	<i>yaxshilikcha, eskicha, bolalar-cha, dehqonchasiga, do'stona, qoplab, mantiqan, mahsi-chang, yodaki, olday</i>
Safatdan	<i>-dek // -day, -lab, -lay, -layin, -larcha, -ona, -cha, -chasiga</i>	Asliday yoziladi	<i>xasisday, yomonlab, tiriklay, vahshiyona, telbalarcha, ayyorona, tentakchasiga</i>
Ravishdan	<i>-cha, -siga, -lab, -layin</i>	Asliday yoziladi	<i>hozircha, yashirincha, tikkasiga, ko'plab, pastlayin</i>
Sondan	<i>-lab</i>	Asliday yoziladi	<i>bittalab, yuzlab</i>
Olmoshdan	<i>-cha</i>	Asliday yoziladi	<i>sencha, shuncha</i>
Modal so'zdan	<i>-cha, -an</i>	Asliday yoziladi	<i>ko'pincha, tamoman</i>
Undov so'zdan	<i>-lab</i>	Asliday yoziladi	<i>ura-uralab, vohvohlab</i>

OLMOSH

Olmoshning ma'no turlari

Turlari	Olmosh soʻzlar	Maʼnosi	Imlosi
Koʻrsatish olmoshlari	<i>u, bu, shu, oʻsha, ana, mana, mana bu, ana shu, manavi, anovi</i>	Oldingi gap undagi biror gap boʻlagi oʻrnida qoʻllanilib, unga ishora qiladi yoki biror soʻzni aniqlab keladi	<i>U, bu, shu, oʻsha</i> olmoshlariga <i>-day, -ga, -da, -dan, -cha</i> qoʻshimchalari qoʻshilsa <i>n</i> tovushi qoʻshib aytiladi va yoziladi
Kishilik olmoshlari	<i>men, sen, u; biz, siz, ular</i>	Uch shaxsdan biriga ishora qiladi	<i>Men, sen</i> olmoshlariga <i>-ning, -niki, -ni</i> qoʻshimchalari qoʻshilganda kishilik olmoshlaridagi bir <i>n</i> tushib qoladi: <i>men + -ni = meni</i>
Oʻzlik olmoshi	<i>oʻz</i>	Kishilik olmoshlari oʻrnida qoʻllanilib, koʻpincha shaxsni, baʼzan predmetni koʻrsatadi	<i>Oʻz</i> soʻzi kishilik olmoshlari bilan birga qoʻllanganda taʼkid maʼnosini ham ifodalaydi: <i>sen oʻzing</i>
Soʻroq olmoshlari	<i>kim? nima? qayer? qaysi? qanaga? qalay? qancha? necha? nega?</i>	Shaxs, narsa-hodisa, belgi-xususiyat, miqdor, sabab, maqsad, oʻrin, payt haqida soʻroqni bildiradi	<i>Nega?</i> soʻroq olmoshi hech bir qoʻshimcha olmaydi

Turlari	Olmosh soʻzlar	Maʼnosi	Imlosi
Belgilash olmoshlari	<i>barcha, hamma, bari, har bir, har narsa, har qaysi, har qanday</i>	Toʻpdan ajratilgan yoki jamlab koʻrsatilgan shaxs, narsa, belgi, harakat-holatni ifodalaydi. <i>Hamma, barcha, bari, butun</i> soʻzlari jamlash olmoshlaridir	<i>Har</i> soʻzi soʻroq olmoshlaridan ajratib yoziladi
Umum olmoshlari	<i>kimdir, ninadir, allakim, qaysidir, allanarsa, allaqanday, bir kishi, bir narsa, birov</i>	Noaniqlik, gumon maʼnosini ifodalaydi. <i>alla-</i> va <i>-dir</i> qoʻshimchalari orqali hosil qilinadi	<i>alla-</i> va <i>-dir</i> qoʻshimchalari asosga qoʻshib yoziladi
Boʻlishsizlik olmoshlari	<i>hech kim, hech nima, hech narsa, hech qachon, hech qamaqa, hech qaysi, kimsa</i>	<i>Hech</i> soʻzini soʻroq olmoshiga qoʻshish asosida hosil qilinadi va inkor maʼnosini bildiradi. Bunday gapning kesimi boʻlishsiz boʻladi	<i>Hech</i> soʻzi soʻroq olmoshlaridan ajratib yoziladi

Olmoshlarning tuzilishiga ko'ra turlari

Tuzilishi	Izohi va imlosi	Misollar
Sodda olmoshlar	Olmoshlar soʻz yasovchi qoʻshimchalar bilan yasalmaydi. Shuning uchun doim sodda tub shaklida boʻladi	<i>biz, ana shu, oʻz, qachon? hamma, alla-narsa, birov</i>
Qoʻshma olmoshlar	Ikki asosdan tarkib topadi. Qoʻshma olmoshlar <i>ajratib yoziladi</i>	<i>har kim, hech qaysi, bir nima, mana shu</i>
Juft olmoshlar	Ikki asosning juft kelishidan hosil boʻladi. Faqat kishilik va koʻrsatish olmoshlari juftlashib keladi. Ular <i>chiziqcha bilan yoziladi, -u, -yu</i> vositasida bogʻlansa, <i>ajratib yoziladi</i>	<i>siz-biz, u-bu, uni-buni, ana-mana; men-usen, u-yu bu</i>
Takroriy olmoshlar	Bir asosning aynan takrorlanishidan hosil boʻladi. Soʻroq, koʻrsatish, oʻzlik, jamlash olmoshlari takror ishlatiladi va <i>chiziqcha bilan yoziladi</i>	<i>nima-nima, shu-shu, oʻz-oʻzi, barcha-barcha</i>

YORDAMCHI SO'ZLAR

Turlari	Izohi	Misollar
Ko'makchilar	Ot, olmosh, harakat nomi va sifatdoshlardan keyin kelib, ularni hokim so'zga bog'lovchi so'zlar	<i>bilan, uchun, kabi, singari, ayiqi</i>
Bog'lovchilar	Qo'shma gap tarkibidagi sodda gap va uyushgan bo'lak o'rtasidagi munosabatni ifodalovchi so'zlar	<i>va, ammo, lekin, biroq, chunki, shu bilan dam..., dam, gon..., gon</i>
Yuklama	So'z yoki gaplarga so'roq, ta'kid, ayirish-chegaralash, gumon, o'xshatish, inkor kabi ma'nolarni yuklovchi so'z va qo'shimchalar	<i>axir, hatto, faqat, ham, xuddi, go'yo, go'yo yoki, naq, hech, sira, nahotki, na..., na so'zlari; -mi, -chi, gina (-kina, -qina), -dir, -ni, -yni, shu...</i> qo'shimchalari

KO'MAKCHILAR

Ko'makchilarning turlari

Turlari	Xususiyati	Misollar
Sof ko'makchilar	Mustaqil lug'aviy ma'nosini butunlay yo'qotgan, faqat grammatik ma'no ifodalaydi	<i>bilan, uchun, sari, savin, kabi, singari, yanglig', qadun, dovur, to, dor, o'd</i>
Vazifadosh ko'makchilar	Ot, sifat, ravish kabi mustaqil ma'noli so'zlar fe'lining sifatdosh, ravishdosh shakllari ko'makchi vazifasida kelishi mumkin, lekin ko'makchi vazifasini bajarayotganda faqat grammatik ma'no ifodalaydi	<i>tomon, haqida, chamasi, misoli, holda (otdan), boshqa, bo'lak, o'zga, tashqari, sababli (sifatdan), so'ng, oldin, burun, ilgari, kevin (ravishdan), qaraganda, qaramasdan (sifatdoshdan), qarab, qaramay, ko'ra, osha, bo'ylab, yarasha, qarata, boshlab, tortib (ravishdoshdan)</i>

Ko'makchilarning ma'no turlari

Ma'nolari	Ko'makchilar
Vosita	<i>bilan, orqali</i>
Yo'nalish	<i>tomon, sari, bo'ylab, qarab, qarata, uzra</i>
Sabab-maqсад	<i>uchun, sababli, tufayli ko'ra</i>
Asos	<i>asosan, hinoan, muvofiq, ko'ra, bo'yicha</i>
Payt	<i>so'ng, oldin, burun, ilgari, keyin, beri, huyon, boshlab</i>
Makon	<i>ost, tag, ust, old, orqa, yon, qarshi, bo'yi, ich, o'rt, bosh, osha</i>
Mavzu va bog'liqlik	<i>haqida, to'g'risida; oid, doir</i>
O'xshatish	<i>kabi, singari, yanglig'</i>
Mustasnolik	<i>boshqa, tashqari, bo'lak, o'zga.</i>

Ko'makchilarning kelishik qo'shimchalari bilan ma'nodoshligi

Kelishik nomi	Kelishik qo'shimchalari bilan ma'nodosh ko'makchilar	Misollar
Jo'nalish kelishigi	<i>sari, tomon, uchun</i>	<i>bog'ga – bog' tomon, onamga – onam uchun</i>
O'rin-payt kelishigi	<i>bilan, orqali</i>	<i>o'tinda pishirdi – o'tin bilan pishirdi; poesdda keldi – posed orqali keldi</i>
Chiqish kelishigi	<i>haqida, orqali, vajidan</i>	<i>ishqdan gapirmoq – ishq haqida gapirmoq; ko'chadandan kelmoq – ko'cha orqali kelmoq; puldan janjallashmoq – pul vajidan janjallashmoq</i>

Ko'makchilar bilan birga kelgan so'zlarning shakllari

So'zning turlanishi	Kelishikli so'zlardan keyin keluvchi ko'makchilar	Misollar
Hosh kelishikda	<i>bilan (-la), uchun, kabi, singari, yanglig', sayin, sari, sababli, orqali, tufayli, chog'li, osha, bo'ylab, uzra, ichra, bo'yi, chamasi, haqda // to'g'rida, haqida // to'g'risida, holda // yo'sinda</i>	<i>qalam bilan, sen-la, akam birla, qush kabi, devor orqali, ko'l bo'ylab, to'y to'g'risida</i>
Qaratqich kelishigida	<i>ost, tag, ust, old, orqa, yon, qarshi, bo'yi, ich, o'rt, bosh</i>	<i>quti^{ning} osti, uy^{ning} yoni, yo^lning o'rtasi</i>
To'nalish kelishigida	<i>tomon, qadar, ko'ra, qarshi, qarab, qaraganda, qaramasdan // qaramay, yarasha, doir, asosan, binoan, muvofiq, qarata</i>	<i>ishga tomon, sizga qarshi, da'vo^{ga} qaramay, fikr^{ga} asosan, bolalar^{ga} qarata</i>
Chiqish kelishigida	<i>so'ng, keyin, boshqa, bo'lak, tashqari, o'zga, beri, buyon, nari // nariga, burun, ilgari, oldin, avval, boshlab, tortib</i>	<i>olma^{dan} boshqa, shun^{dan} buyon, suhbat^{dan} oldin</i>

BOG'LOVCHILAR

Bog'lovchilarning turlari

Turlari	Xususiyati	Shakli
So'f bog'lovchilar	Mustaqil lug'aviy ma'nosini butunlay yo'qotgan, faqat bog'lovchi vazifasini bajaradi	<i>va, hamda, ammo, biroq, yo..., yo, goh..., goh, chunki, shuning uchun, -ki, agar, go'yo</i>
Vazifadosh bog'lovchilar	Bir o'rinda bog'lovchi, boshqa o'rinda ko'makchi, yuklama yoki modal so'z vazifasida keladi	<i>bilan, -u, -yu, -da, bo'-di-yu, deb</i>

Bog'lovchilarning ma'no turlari

Turlari	Ichki bo'linishi	Bog'lovchi so'zlar
Teng bog'lovchilar	Biriktiruv	<i>va, hamda, bilan; -u (-yu), -da, ham</i>
	Ayiruv	<i>yo, yoki, yo..., yo, goh..., goh, dam..., dam, ba'zan..., ba'zan, bir..., bir; xoh..., xoh</i>
	Zidlov	<i>ammo, lekin, biroq; balki</i>
	Inkor	<i>na..., na</i>
Ergashtiruvchi bog'lovchilar	Sabab	<i>chunki, shuning uchun, negaki</i>
	Aniqlov	<i>ya'ni; -ki, -kim</i>
	Shart	<i>agar, agarda, basharti, garchi, mabodo</i>

Teng bog'lovchilar

Turlari	Ma'nosi va vazifasi	Misollar
Biriktiruv bog'lovchilari	Uyushiq bo'laklarni va uyushiq gaplarni o'zaro biriktirib keladi. <i>Bilan</i> ko'makchi-bog'lovchi, <i>-u (-yu), -da, ham</i> yuklama-bog'lovchilar ham shu vazifani bajaradi	<i>xulq va odob; uy-u hovli; keldi-da ketdi. Badi'a bilan Ma'suma beka arava tagiga kirib yashirinishdi.</i>
Ayiruv bog'lovchilari	O'zaro bog'lanayotgan gap bo'lagi yoki gaplardan birini boshqasidan ayirib ko'rsatishga xizmat qiladi.	<i>goh o'qiydi, goh yozadi; yo qalamni, yo ruchkani; Bir kattaning gapiga kir, bir kichikning.</i>
Zidlov bog'lovchilari	O'zaro zidlik munosabatida bo'lgan uyushiq bo'laklar yoki gaplarni bir-biriga bog'ladi.	<i>Keldi, ammo o'tirmadi. Inson go'zalligi bilan emas, balki mehmati bilan kamol topadi.</i>
Inkor bog'lovchisi	Uyushiq bo'lak va gaplarni inkor ma'nosini yuklagan holda bog'laydi. Bunday gapning kesimi tasdiq shaklida bo'ladi	<i>Na qo'shiq, na kulgi, na churq etgan ovoz eshitiladi.</i>

Ergashtiruvchi bog'lovchilar

Turlari	Ma'nosi va vazifasi	Misollar
Sabab bog'lovchilari	Gaplarni o'zaro tobelantirib bog'lovchi. ular o'rtasida sabab ma'nosini ifodalovchi so'zlar	<i>Xalq shunday yulborishlarga quloq solmadi, chunki g'isht qolipda ko'chgan edi.</i>
Aniqlov bog'lovchisi	Gap bo'laklari va gaplarni tobelantirib, o'zidan oldingi gap mazmunini izohlash, aniqlashtirish ma'nosini ifodalovchi so'z	<i>Bu holda mazkur so'zlar adabiy ilmlarni, ya'ni til va adabiyot bilan bog'liq ilmlarni anglatadi.</i>
Shart bog'lovchilari	Gap bo'laklari va gaplarni tobelantirib, ular o'rtasidagi shart ma'nosini ifodalovchi so'zlar	<i>Agar yo'ldan ozib, bir xato qilsam, Kibr paydo qilsam, topilur davo.</i>

Bog'lovchilarning qo'llanilishiga ko'ra turlari

Yakka bog'lovchilar	Takror bog'lovchilar
<p><i>Va, hamda, bilan, ham, ammo, lekin, biroq, chunki, negaki, ya'ni, agar, agarda, basharti, garchi</i></p> <p><i>bog'lovchilari yakka holda ishlatiladi.</i></p> <p><i>Yozuvda ammo, lekin, biroq, chunki, negaki, ya'ni bog'lovchilardan oldin vergul qo'yiladi</i></p>	<p><i>Yo..., yo, dam..., dam, goh..., goh, bu'zan..., ba'zan, bir..., bir, na..., na bog'lovchilari takror holda ishlatiladi.</i></p> <p><i>Takror bog'lovchi qo'llangan uyushiq bo'lak va gaplarning keyingi qismlaridan oldin vergul qo'yiladi</i></p>

YUKLAMALAR

Yuklamalarning turlari

Turlari	Xususiyati	Shakli
Sof yuklamalar	Gap bo'lagi va gaplarga turli q'o'shimcha ma'nolarni yuklaydi. Ular quyidagi shakllarda bo'ladi: 1) so'z-yuklama shaklida; 2) qo'shimcha-yuklama shaklida	1) <i>axir, hatto, ham, xuddi, go'yo, go'yoki, naq, hech, sira, nahotki, na..., na</i> 2) <i>-mi, -chi, -u, -yu, -da, -a, -gina (-kina, -qina), -dir</i>
Vazifadosh yuklamalar	Yuklama vazifasidan tashqari bog'lovchi vazifasida ham keladi	<i>-u (-yu), -da, -gina (-kina, -qina)</i>

Yuklamalarning ma'no turlari

Turlari	Yuklamalar	Ma'no va vazifasi
So'roq-taajjub	<i>-mi, -chi, -a, -ya</i>	So'z va gaplarga qo'shib, ularni so'roqqa aylantiradi
Kuchaytiruv	<i>axir, hatto (ki), -oq (-yoq), nahot(ki); tim, qoq, liq. lim. g'irt, g'arq, shilta, jiqqa, naq</i>	So'z va gaplarga qo'shib, ularga kuchaytirish ma'nosini qo'shadi
Ta'kid	<i>-ku, -da, -ki (-kim), -u, -yu, ham (-yam)</i>	So'z va gaplarga ta'kid ma'nosini qo'shadi. <i>Ham</i> yuklamasi ta'kidlanayotgan so'zdan oldin kelsa, sanash ohangi bilan bog'lanadi
Ayiruv-chegaralov	<i>-gina (-kina, -qina), faqat, xolos; yolg'iz (sifat), bir (son)</i>	So'zlarga qo'shib, ularning ma'nosini ayirib, chegaralab keladi
O'xshatish-qiyoslash	<i>xuddi, naq, go'yo(ki)</i>	So'z va gaplarga o'xshatish, qiyoslash ma'nosini yuklaydi

Furlari	Yuklamalar	Ma'no va vazifasi
Ummon	<i>-dir</i>	So'z va gaplarga o'xshatish, qi-yoslash ma'nosini yuklaydi
Inkor	<i>hech, sira, aslo, na... na</i>	Gap mazmuniga inkor ma'nosini qo'shadi. Bunday gapning kesimi inkor shaklida bo'ladi

Yuklamalarning yozilishi

Yuklamalar	Yozilishi
<i>-gina (-kina, -qina), -oq (-yoq), -ni (-kim)</i>	So'zga qo'shib yoziladi
<i>-da (-yo), -ku, -da, -u (-yu)</i>	Chiziqcha bilan yoziladi
<i>ham, faqat, oxir, nahotki, go'yo, go'yoki, naq, hech, ...</i>	So'z-yuklamalar ajratib yoziladi

Inkor bog'lovchisi bilan inkor yuklamasining o'zaro farqi

Inkor bog'lovchisi	Inkor yuklamasi
<i>na bog'lovchisi qo'llangan gapning kesimi tasdiq shaklida bo'ladi: Na kampirning, na Qoraqorning yupatishlari kor qildi.</i>	<i>Na... na yuklamasi qo'llangan gapning kesimi inkor shaklida bo'ladi: Nolimayman na kelajak, na o'tmishimdan.</i>

ALOHIDA OLINGAN SO'ZLAR GURUHI

Turlari	Izohi	Misollar
Undov so'zlar	His-hayajon, buyruq-xitobni ifodalaydi. Bular gap bo'laklari bilan aloqaga kirishmaydi, shunga ko'ra gapda ulardan so'ng <i>vergul qo'yiladi</i> . Morfologik jihatdan <i>o'zgarmasdir</i> , faqat otlashganda shakl yasovchi qo'shimchlarni olishi mumkin	<i>eh, o, oh, uf, iyo, voye, be, ho, eh-he, ura, hay-hay, obbo, huv, kishit, pisht, chuh, beh-beh, xayr, uzr, salom, balli</i>
Taqlid so'zlar	Narsalarning tovushiga va holatiga taqlidni bildiradi. Bular gap bo'laklari bilan aloqaga kirisha oladi, <i>aniqlovchi</i> va <i>hol</i> vazifasida keladi. Morfologik jihatdan <i>o'zgarmaydi</i> . Otlashganda lug'aviy shakl hosil qiluvchi qo'shimchalarni olishi mumkin	<i>guldar, gurs, jaz-bur, dik-dik, dikir-dikir, ship-ship, piq-piq</i>
Modal so'zlar	Ifodalanayotgan fikrga so'zlovchining munosabatini (ishonch, gumon, achinish v. b.) bildiradi. Gap bilan grammatik jihatdan bog'lanmaydi va undan <i>vergul bilan ajratiladi</i> . Morfologik jihatdan <i>o'zgarmaydi</i>	<i>darhaqiqat, afsuski, attang, albatta, shekilli, avvalo, xullas, masalan, demak</i>
Tasdiq va inkor so'zlar	Dialogik nutqda <i>-mi</i> so'roq yuklamasi orqali ifodalangan so'roq gaplarning javobi bo'lib keladi. Morfologik jihatdan <i>o'zgarmaydi</i> . Yakka o'zi qo'llanganda <i>so'z-gap</i> sanaladi	<i>ha, xo'p, mayli, yo'q, mulloqo, zinhor</i>

UNDOV SO'ZLAR

Ma'no turlari	Izohi	Ma'no qirrasii	Misollar
His-hayajon undovlari	His-hayajon undovlarining o'zi undov gap bo'lib kelishi yoki gap tarkibida kelib, uni undov gapga aylantirishi mumkin	Quvonch	<i>ura, o, o', ehe</i>
		Erkalash-erkalanish	<i>a-ha, balli, ofarin, barakalla</i>
		Rohatlanish	<i>bay-bay, vah-vah</i>
		Hayron qolish	<i>ajabo, iye, e-ha, o'ho', he, i-i, xo'sh</i>
		Norozilik	<i>esiz, hm, uf, bas</i>
		G'azab-nafrat	<i>dod, uh, tuf</i>
		Og'riq	<i>evoh, oh, dod, voy</i>
Huyruq-sitob undovlari	Kishilar diqqatini tortish, jonivorlarni haydash, chaqirish va to'xtatish uchun qo'llaniladi	Kishilarning diqqatini tortish	<i>hoy, oy, ay, allo, ey, ma, tss, marsh, qani, jim, tek, fisht</i>
		Jonivorlarni haydash	<i>hayt, pisht, kisht, chuh, xix, qurey-qurey</i>
		Jonivorlarni chaqirish	<i>pish-pish, gah, beh-beh, tu-tu-tu, bah-bah, mosh-mosh</i>
		Jonivorlarni to'xtatish	<i>dirr, tak, xo'sh, xo'o'sh, ho'k, ho'o'k, ishsh, chux</i>
Matqiy odal undovlari	Milliy muloqot, muomala odobi (etiket) shakli sanaladi	Muomaladagi ijobiy munosabatni ifodalaydi	<i>salom, assalomu alaykum, va alaykum assalom, rahmat, xayr, tashakkur, barakalla, balli, hormang, bor bo'ling</i>

Undov soʻzlarda tinish belgilarining ishlatilishi

Tinish belgisining ishlatilish oʻrni	Ishlatiladigan tinish belgisi	Misollar
Undov soʻzlardan keyin	<i>Vergul</i>	<i>O. muazzam Enasoy daryosi!</i>
Undalmalar bilan kelgan undov soʻzlardan keyin	Undov soʻzdan keyin emas, u bogʻlangan undalmadan keyin vergul qoʻyiladi	<i>Ey qotil, nega shunday katta azim daraxtni nobud qilding?</i>
Undov soʻzdan keyin demoq feʼli qoʻllansa	Undov soʻz qoʻsh-tirnoqqa olinadi	<i>Usta ham qiynakgach, «oh» deb yubordi.</i>

Undov soʻzlarning tuzilishiga koʻra turlari

Tuzilishi	Izohi va imlosi	Misollar
Sodda	Bir soʻz bilan ifodalanadi	<i>eh, o, uf, kishit, xavr, uzr</i>
Qoʻshma	Ikki asosdan tarkib topadi. Qoʻshma undov soʻzlar ajratib yoziladi	<i>bor boʻling, assalomu alaykum, va alaykum assalom</i>
Juft	Ikki asosning juft kelishidan hosil boʻladi. Juft undovlar chiziqcha bilan yoziladi	<i>oʻh-hoʻ, eh-he, eh-ha, voy-boʻ, voy-dod, e-voh: e-ha-a, voy-voy-ey</i>
Takroriy	Asos qismning aynan takrorlanishidan hosil boʻladi. Takroriy undov soʻzlar qismlari chiziqcha bilan yoziladi	<i>bay-bay, oh-oh, mah-mah, pisht-pisht; e-e-e. bay-bay-bay, hay-hay-hay</i>

Undov soʻzlarning sintaktik vazifalari

Sintaktik vazifalari	Misollar
Kesim	<i>Xalqimizning fidoyi farzandlariga ofarin!</i>
Ega (asosan, otlashganda)	<i>Yana dod chiqdi.</i>
Toʻldiruvchi (otlashganda)	<i>Dod-voydan nima foyda?!</i>
Kirish soʻz	<i>Voy, bu oʻzimizning Salim-ku.</i>
Undalma	<i>Hoy, qayoqqa ketyapsan?</i>
Soʻz-gap	<i>Eh! Men uni bir marta koʻrsaydim.</i>

TAQLID SO'ZLAR

Taqlid so'zlar tasnifi

Ma'no turlari	Izohi	Taqlid so'zlar
Tovushga taqlid so'zlar	Narsalarning ovozi-ga taqlidni bildiradi	<i>guldur, gurs, jaz-buz, jiz-biz, inga-inga, cho'lp-cho'lp, g'a-g'a, di-dit, qiy-chuv</i>
Holatga taqlid so'zlar	Narsalarning holatiga taqlidni bildiradi	<i>dik-dik, dikir-dikir, duv-duv, jimir-jimir, jilpang-jilpang, lip-lip</i>

Taqlid so'zlarning tuzilishi va imlosi

Tuzilishi	Izohi va imlosi	Misollar
Soddada	Bir so'z bilan ifodalanadi	<i>tars, chars, taq, ship, lip, qirs, varq, g'uv, g'irch</i>
Juft	Taqlid so'zlarni ikkinchi qismida tovush o'zgarishi bilan juftlash orqali hosil qilinadi. Juft taqlid so'zlar qismlari orasiga <i>chiziqcha</i> qo'yiladi	<i>varq-yurq, taq-tuq, shaqir-shuqur, qa-sir-qusur, taraq-turuq, qiy-chuv</i>
Takror	Asos qismning aynan takrorlanishidan hosil bo'ladi. Takroriy taqlid so'zlar qismlari orasiga <i>chiziqcha</i> qo'yiladi	<i>chiy-chiy, yalt-yalt, gumbur-gumbur, duk-duk, taq-taq, poq-poq</i>

Taqlid so'zlarning sintaktik vazifalari

Sintaktik vazifalari	Misollar
Orbesim	<i>Miyangda aql g'ij-g'ij.</i>
Ega	<i>Shivir-shivir tindi.</i>
Hol	<i>Olmalar duv-duv to'kildi.</i>
To'ldiruvchi (tushayanda)	<i>Etigining g'archini pasaytirish uchun oyoq uchida yurib keldi.</i>
Antropovchi	<i>Dahlizdan shivir-shivir ovoz eshitildi.</i>

MODAL SO'ZLAR

Modal so'zlarning tarkibiga ko'ra turlari

Turlari	Xususiyati	Modal so'zlar
Sof modal so'zlar	Faqat modal ma'no uchun xoslangan, qismlarga ajralmaydi. Modal so'zlarning oxirgi bo'g'iniga urg'u tushmaydi	<i>bor, yo'q, kerak, darkor, zarur, lozim, haqiqatan, darhaqiqat, afsuski, attang, albatta, shekilli, avvalo, avvalambor, xullas, koshki, masalan, xo'p, zero</i>
Vazifadosh modal so'zlar	Mustaqil ma'nodan tashqari modal ma'noda ham qo'llaniladi. Modal so'z vazifasida ma'noli qismlarga ajralmaydi	<i>aftidan, chamasi, balki, umuman, ehtimol, taxminan, shubhasiz, o'z-o'zidan, tabiiy, yaxshi, hoynahoy, aytmoqchi, so'zsiz, esiz, to'g'ri</i>

Modal so'zlarning ma'no turlari

Modal so'zlar	Modal so'zlarning ma'nolari	Qo'llanilish o'rni va tinish belgisining ishlatilishi
<i>Albatta, shak-siz, tabiiy, o'z-o'zidan, haqiqatan, darhaqiqat</i>	Fikr aniqligi	Gapning boshi, o'rtasi va oxirida keladi. Gap boshida modal so'zdan keyin, o'rtasida har ikki tomonidan, oxirida undan oldin <i>vergul qo'yiladi</i>
<i>Ehtimol, balki, chamasi, shekilli, hoynahoy, chog'i, aftidan, mazmuni, har qalay</i>	Gumon va noaniqlik	Gapning boshi, o'rtasi va oxirida keladi. Gap boshida modal so'zdan keyin, o'rtasida har ikki tomonidan, oxirida undan oldin <i>vergul qo'yiladi</i>
<i>Bor, xo'p, mayli, to'g'ri, yaxshi, tuzuk, durust, bo'пти</i>	Mavjudlik va tasdiq	Asosan, gap boshida, ba'zan gap o'xirida keladi. Gap boshida tasdiq so'zdan keyin, o'rtasida undan oldin <i>vergul qo'yiladi</i>

Modal soʻzlar	Modal soʻzlarning maʼnolari	Qoʻllanilish oʻrni va tinish belgisining ishlatilishi
<i>Vullas, xullasi kalam, demak, umuman, has, binobarin, qisqasi, modomiki</i>	Fikrni xulosalash	Asosan, gap boshida, baʼzan oʻrtasida keladi. Gap boshida tasdiq soʻzdan keyin, oʻrtasida har ikki tomonidan <i>vergul qoʻyiladi</i>
<i>Avvalo, avvalambor nihoyat</i>	Fikrning tartibi	Asosan, gap boshida keladi. Gap boshida tasdiq soʻzdan keyin <i>vergul qoʻyiladi</i>
<i>Masalan, jumladan, zero, shundaydek, chunonchi</i>	Fikrning dalillanishi	Asosan, gap boshida, baʼzan oʻrtasida keladi. Gap boshida tasdiq soʻzdan keyin, oʻrtasida har ikki tomonidan <i>vergul qoʻyiladi</i>
<i>Atang, afsus, esiz</i>	Achinish	Asosan, gap boshida keladi. Gap boshida tasdiq soʻzdan keyin <i>vergul qoʻyiladi</i>
<i>Kerak, lozim, zarur, darkor</i>	Maqsad va talab	Asosan, gap oxirida keladi. Gapning ot kesimini shakllantirishda ishtirok etadi (bogʻlama vazifasida)

Modal soʻzlarning sintaktik vazifalari

Sintaktik vazifalari	Misollar
Boʻlim (<i>bor, yoʻq, kerak, lozim, zarur, darkor</i>)	<i>Issiq ovqating bormi?</i>
Uza (<i>bor, yoʻq</i>)	<i>Bor maqtansa topilar, yoʻq maqtansa chopilar.</i>
Boʻldiruvchi (<i>bor, yoʻq; otlashganda kerak, lozim, zarur, darkor</i>)	<i>Dasturxonga borini olib kel.</i>
Amqlovchi (<i>kerak, lozim, zarur, darkor</i>)	<i>Asadbek oldin zarur ishlarni bajaradi.</i>
Tinish soʻz (barcha modal soʻzlar)	<i>Bu, shubhasiz, bizning yutugʻimiz.</i>
Soʻz gap	– <i>Majlis bir soatda tugarmikin?</i> – <i>Ehtimol.</i>

TASDIQ VA INKOR SO'ZLAR

Turlari	Misollar	Umumiy xususiyati
Tasdiq	<i>ha, xo'p, mayli</i>	Dialogik nutqda <i>-mi</i> so'roq yuklamasi orqali ifodalangan so'roq gaplarning javobi bo'lib keladi: – <i>Ayting-chi, siz bu gaplarga ishonasizmi?</i> – <i>Mullaqo.</i>
Inkor	<i>yo'q, mullaqo, aslo</i>	

SINTAKSIS

ASOSIY SINTAKTIK BIRLIKLAR

Turlari	Izohi
Soʻz qoʻshilmasi	Soʻzlarning teng bogʻlanishi soʻz qoʻshilmasini hosil qiladi. Soʻz qoʻshilmasida har bir soʻz maʼno mustaqilligini, alohida-alohida narsalarni nomlab kelish xususiyatini saqlab qoladi
Soʻz birikmasi	Soʻzlarning tobelanishi asosida bogʻlanishi soʻz birikmalarini hosil qiladi va soʻz birikmasi ikki va undan ortiq soʻzdan iborat boʻlishiga qaramay, biror narsa, belgi, harakat yoki holatni aniqlashtirgan holda anglatadi
Gap	Gap maʼlum fikrni, tasdiq yoki inkor hukmni ifodalab keladi. Gapning markazi kesimdir. U kesimlik qoʻshimchalari bilan shakllangan boʻladi
Gap boʻlaklari	Gapdagi soʻzlar oʻzaro grammatik munosabatga kirishib, gap boʻlaklarini hosil qiladi. Har bir gap boʻlagi boshqa gap boʻlaklari bilan boʻlgan grammatik munosabatiga koʻra belgilanadi, yaʼni har bir gap boʻlagi oʻzi munosabatga kirishgan soʻz bilan maʼlum sintaktik aloqada boʻladi
Uyushiq boʻlaklar	Gapda bir xil soʻroqqa javob boʻlib, bir xil sintaktik vazifa bajaruvchi, oʻzaro teng aloqada, boshqa boʻlaklar bilan esa tobe aloqada boʻlgan boʻlaklar
Ajratilgan gap boʻlaklari	Oʻzlari aloqada boʻlgan boʻlaklarning maʼnosini izohlab, boʻrttirib, aniqlashtirib yoki taʼkidlab keladi. Ular boshqa boʻlaklardan maxsus toʻxtam bilan ajralib, mantiqiy urgʻu oladi
Kiritmalar	Kiritmalar gapning, xususan, matnning umumiy mazmuniga aloqador boʻlsa-da, gapdagi biror boʻlak bilan hokim-tobelik aloqasiga kirishmaydi
Undalmalar	Undalma soʻzlovchining nutqi qaratilgan shaxsni, obyektini bildiradi. Undalmalar ham ega singari bosh kelishikda qoʻllaniladi, ammo undalmalar grammatik jihatdan hech bir boʻlakka bogʻlanmaydi

SO'Z BIRIKMASI SINTAKSISI

So'z birikmasining boshqa til birliklaridan farqi

Birliklar nomi	Xususiyati	Misollar
So'z birikmasi	So'z birikmasi narsa, belgi yoki harakatni yakka holda emas, balki ikki va undan ortiq so'zlarning grammatik aloqaga kirishuvi orqali ifodalaydi	<i>Ahmadning kitobi, olmani yemoq, yaxshi xabar, dafarga yozmoq</i>
So'z	So'z leksik hodisa bo'lib, muayyan ma'noga ega va boshqa so'zlar bilan o'z holicha aloqaga kirishmagan bo'ladi	<i>osmon, sadaf, yashil, olg'a, zo'r, as-toydid, kutmoq, saylanmoq, lip-lip</i>
Qo'shma so'z	Qo'shma so'zlar xuddi so'z birikmasiga o'xshash usul bilan yasaldi, ammo qo'shma so'z tarkibidagi qismlarning ma'nosi saqlanmagan bo'lib, qo'shma so'zning umumiy ma'nosi orqali anglashiladi	<i>toshko'mir, asalari, gulibeor, belkurak, bodomqovoq, har qancha, bir nima, olib kelmoq, kirib chiqmoq</i>
So'z qo'shilmasi	So'z qo'shilmasida so'zlar o'zaro teng bog'lanadi va qo'shilma tarkibidagi har bir so'z ma'no mustaqilligini, alohida narsalarni nomlab kelish xususiyatini saqlab qoladi	<i>uy va tom, kuldi-yu indamadi, pista bilan bodom, o'g'il-u qiz</i>
Ibora (turg'un bog'lanma)	Turg'un bog'lanma (ibora)larda so'zlar ma'noviy butunlik uchun birlashgan – yaxlitlangan bo'ladi va bir leksik ma'no anglatadi. Shuning uchun turg'un bog'lanmaga bir so'z sifatida qaraladi	<i>qo'li ochiq, qulog'iga quymoq, to'nini teskari kiymoq, kapalagi uchmoq</i>
Gap	Gap ham so'zlarning grammatik birikuvidan hosil bo'ladi va ma'lum bir fikrni, tasdiq va inkor hukmni ifodalaydi	1. <i>Sinovdan o'tdim.</i> 2. <i>Sizga amad yor bo'lsin!</i> 3. <i>Bu kitobni o'qimangansiz.</i>

So'z birikmasining tarkibiy qismlari

Qism nomi	Izohi	Misollar
Hokim so'z	So'z birikmasidagi so'zlarning o'zaro aloqasida sintaktik jihatdan tobe bo'lmagan, tobe qismni ergashtiruvchi, ifodalayanotgan tushunchada asosiy ma'noni ifodalovchi so'z. So'z birikmasida hokim so'z, asosan, tobe so'zdan <i>keyin keladi</i>	<i>ishonchli do'st, g'oyat qiziqarli, qi-yinchillikni yengmoq, hovlining o'rtasi</i>
Tobe so'z	So'z birikmasidagi so'zlarning o'zaro aloqasida sintaktik jihatdan tobe bo'lgan, hokim qismning ma'nosini turli nuqtayi nazardan aniqlaydigan, to'ldiradigan, izohlaydigan so'z. So'z birikmasida tobe so'z, asosan, hokim so'zdan <i>oldin keladi</i>	<i>oq kabutar, do'stona munosabat, qushning qanoti</i>

So'z birikmasining grammatik ma'no turlari

Grammatik ma'no turlari	Hokim so'zning ifodalanishi	Misollar
Fe'lli so'z birikmasi	Fe'l, sifatdosh va ravishdosh bilan	<i>xatni yozmoq, yaxshi o'qigan, kitobni o'qib</i>
Otli so'z birikmasi	Ot, sifat, son, olmosh, harakat nomi, modal so'z va otlashgan so'zlar bilan	<i>oq bino, guldun nozik, bolalarning uchasi, Lolaning o'zi, she'rni yodlash, olamda yo'q, askarlarning urasi, otlarning dukur-dukuri</i>
Ravishli so'z birikmasi	Ravish bilan	<i>ovozdan tez, nokdan ko'p</i>
Izofali birikma (hokim so'z tobe so'zdan oldin keladi va -l, -yi qo'shimchalari yordamida birikadi)	Izofali birikma qismlari, asosan, ot va sifat turkumidagi fors-tojikcha hamda arabcha so'zlardan iborat bo'ladi	<i>ahli suhbat, daryoyi azim, atoyi xudo, huzuri jon, baloyi nafs, bazmi jamshid, ro'yi jahon, nuri diyda, ayni zamon, suhbat chor, sadqayi sar, kurrayi zamin, devonayi mashrab, baholi qudrat, tarjimayi hol</i>

Teng bog'lanish va tobe bog'lanish

Bog'lanish turlari	Misollar	Izohi
Teng bog'lanish	<i>olma, o'rik va shaftoli; yer-u osmon; Sarvinoz yoki Di-yora; ba'zan qor; ba'zan yomg'ir; na kitob, na daf-tar; ko'z hamda quloq</i>	Teng bog'lanishda ikki so'z teng huquqli, biri ikkinchisiga bo'ysunmay bog'lanadi. So'zlarning teng bog'lanishi <i>so'z qo'shilmalarini hosil qiladi</i>
Tobe bog'lanish	<i>Karimjonning akasi; tilla tish; masalani yechmoq; o'rtog'lar bilan suhbatlashmoq; shahrimiz ko'chalari; uyda o'tirmoq; maktabga bormoq</i>	Tobe bog'lanishda bir so'z (tobe so'z) boshqa bir so'z (hokim so'z)ga bo'ysunadi. So'zlarning biri ikkinchisiga tobelanib bog'lanishi <i>so'z birikmasini hosil qiladi</i>

Teng bog'lanish

Hosil qilinadigan birlik	Misollar	Bog'lovchi vositalari
So'z qo'shilmasi	<i>Karimjon va akasi; aytdi. chiqdi; men bilan otam; oy-u quyosh</i>	Teng bog'lovchilar yoki sanash, tenglashish ohangi orqali, ba'zan yuklamalar (-u, -yu, -da), ko'makchilar (<i>bilan</i>) vositasida bog'lanadi
Uyushiq bo'lak	<i>Bog'da bodomlar, o'riklar va shaftolilar gulladi.</i>	
Bog'langan qo'shma gap	<i>Tig' yarasi tuzaladi-yu, til yarasi tuzalmaydi.</i>	

Tobe bog'lanish

Bog'lanish usullari	Bog'lovchi vositalari	Misollar
Yitishuv	Tartib va ohang, ya'ni grammatik vositalarsiz	<i>katta choynak, shu odam, tez yurmoq</i>
Boshqaruv	Tushum, jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishigi qo'shimchalari yoki ko'makchilar	<i>choynakdan kattaroq, qalam bilan chizmoq</i>
Moslashuv	Tobe so'z hokim so'zga qaratqich kelishigi qo'shimchasi vositasida, hokim so'z esa tobe so'zga egalik qo'shimchasi yordamida shaxs va sonda moslashib bog'lanadi	<i>kitobning muqovasi, o'quvchining sovg'alari</i>

So'z birikmasining tuzilishiga ko'ra turlari

Birikma turi	Misollar	Xususiyati
Sodda birikmalar	<i>farzand burchi, uydan olib chiqmoq, ko'cha-ko'cha yigit-qiz</i>	Tobe va hokim so'zda bittadan lug'aviy birlik bo'ladi
Murakkab birikmalar	<i>mevali ko'chat o'tqazmoq, qi-zga jilmayib gapirmoq</i>	Tobe yoki hokim so'z kamida ikkita lug'aviy birlikdan tarkib topadi

So'z birikmalari zanjiri

Izohi	Misol
Gap tarkibida bir so'z birikmadagi hokim so'z boshqa bir so'zga tobelangan, bitta yoki bir necha tobe so'z shuncha hokim so'zga aloqador bo'lgan hollarda so'z birikmalari zanjiri hosil bo'ladi. So'z birikmadagi tobe va hokim so'zlar orasida bir necha boshqa so'zlar, hatto so'z birikmalari kelishi mumkin	<p><i>O'z Vatanini sevgan kishini shu Vatanning ravnaqi uchun kurashadi.</i> Ushbu gapda 6 ta so'z birikmasi bor va ular so'z birikmalari zanjirini hosil qilgan:</p> <p><i>1) o'z Vatani; 2) Vatanini sevgan; 3) sevgan kishi; 4) shu Vatan; 5) Vatanning ravnaqi; 6) ravnaqi uchun kurashadi.</i></p>

GAP

Gapning tuzilishiga ko'ra turlari

Tuzilishi	Izohi	Misollar
So'z-gap	Bir so'zdan iborat bo'lib, tarkibga ajralmaydigan, boshqa so'zlar bilan kengaya olish imkoniyatiga deyarli ega bo'lmagan gaplar	– <i>Sog'lig'ingiz yaxshimi?</i> – <i>Rahmat. Tuzukman.</i>
Sodda gap	<i>Grammatik asosi</i> bitta bo'lib, ma'lum bir fikrni (ba'zan unga qo'shimcha ravishda his-hayajonni) ifodalovchi gaplar	<i>Qimirlagan qir oshar.</i>
Qo'shma gap	<i>Ikki va undan ortiq grammatik asosdan</i> tashkil topib, murakkabroq fikr anglatuvchi gaplar	<i>Mard bir o'lar. nomard yuz o'lar.</i>

Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari

Turlari	Izohi	Misollar
Darak gaplar	So'zlovchi biror narsa, voqea-hodisa haqida xabar qiladi. Bunday gapning kesimi xabar maylidagi fe'l bo'ladi	<i>Men akademik litseyini shu yil tugataman.</i>
So'roq gaplar	So'zlovchining o'ziga no-ma'lum bo'lgan biror narsa, voqea-hodisa haqida ma'lumot olishini ifodalaydi	<i>Siz qayerga o'qishga kirmoqchsiz?</i>
Buyruq gaplar	So'zlovchining iltimosi, maslahati, buyruq-xitobi kabilarni ifodalaydi	1. <i>Abror, kel shu kitobni birga o'qiylik.</i> 2. <i>Tez gapir.</i>
Istak gaplar	So'zlovchning xohish-istagi va niyatini ifodalaydi	<i>Qani, hamma bola senday bo'lsaydi.</i>

Gapning his-hayajonga ko'ra turlari

Turlari	Izohi	Misollar
His-hayajonsiz gap	Darak, so'roq va buyruq gaplar his-hayajonsiz gaplardir	1. <i>Ilm yo'li nihoyatda keng va chuqur.</i> 2. <i>Shu kitobni o'qigin.</i>
His-hayajonli gap (undov gap)	Darak, so'roq va buyruq gaplar nutqda kuchli his-hayajon bilan ifodalansa, kuchli ohang bilan aytilsa his-hayajon (undov) gaplarga aylanadi. Undov gap so'roq gap hosil bo'lsa, oldin <i>so'roq</i> , keyin <i>undov qo'yiladi</i>	1. <i>Zap semiribdi-da, jonivor!</i> 2. <i>Qadamlaringizga hasanot!</i> 3. <i>O'n yil!! O'n yildan beri kasal ekanmi?!</i>

SODDA GAP SINTAKSISI

GAPNING BO'LAKLARGA AJRATILISHI

Guruhlanishi	Gap bo'laklari	Ichki bo'linishi	Turlari
Bosh bo'laklar	Kesim	Ifodalanishiga ko'ra	Fe'l kesim
			Ot kesim
	Ega	—	—
Ikkinchi darajali bo'laklar	Hol	Ma'no munosabatiga ko'ra	Payt holi
			O'rin holi
			Ravish holi
			Daraja-miqdor holi
			Sabab holi
			Maqsad holi
	To'ldiruvchi	Grammatik shakliga ko'ra	Vositasiz to'ldiruvchi
			Vositali to'ldiruvchi
	Aniqlovchi	Ma'no munosabati va grammatik shakliga ko'ra	Sifatlovchi aniqlovchi
			Qaratqich aniqlovchi
Izohlovchi aniqlovchi			

BOSH BO'LAKLAR

KESIM

Ta'rifi	Ifodalanishi	So'roqlari
Kesim hukmni ifodalovchi, gapning asosiy belgilari (tasdiq-inkor, zamon, mayl, shaxs-son) ni ko'rsatuvchi hokim bo'lak bo'lib, hukmni ifodalaydi va gapning boshqa bo'laklarini o'z atrofida birlashtiruvchi gap markazi hisoblanadi	1) sof fe'l; 2) ravishdosh; 3) sifatdosh; 4) ot; 5) sifat; 6) son; 7) olmosh; 8) ravish; 9) harakat nomi; 10) undovlar; 11) taqlid va modal so'zlar; 13) otli birikma (so'z birikmasi va ibora)lari	Kesimning so'rog'i uning qaysi so'z turkumi bilan ifodalanishiga bog'liq. Asosan, <i>nima qildi (-yapti? -adi?)</i> , <i>qanday? nima? qancha?</i> so'roqlariga javob bo'ladi

Kesim orqali ifodalanadigan hukm turlari

Hukm turlari	Xususiyati	Misollar
Tasdiq hukmi	Kesim orqali ifodalangan belgining mavjudligini bildiradi	<i>Aytgan kitobingizni bugun olib o'qiyman.</i>
Inkor hukmi	Kesim orqali ifodalangan belgining mavjud emasligini bildiradi. Inkor hukmini ifodalovchi kesim <i>-ma</i> bo'lishsizlik qo'shimchasi, <i>emas. yo 'q</i> so'zlari va boshqa vositalar yodmida hosil qilinadi	1. <i>U kishi bu uyda yashamaydi.</i> 2. <i>Anvar bizning kolleжда o'qigan emas.</i> 3. <i>Uni hech kim darsda ko'rgani yo'q.</i>

Kesimning ifodalanishiga ko'ra turlari

Fe'l kesim	Ot kesim
Sodda gaplarda tushunishli fe'l shakli bilan ifodalangan kesim: <i>E'zozxon Oumriga yoshli ko'zlar bilan tikildi.</i>	Fe'ldan boshqa so'z turkumlari, shuningdek, harakat nomi va otlashgan sifat-dosh shakllari orqali ifodalangan kesim: 1. <i>Hammasiga sababchi – akam.</i> 2. <i>Ot kimniki – minganniki.</i>

Fe'l kesim

Tuzilishi	Ifodalanishi	Misollar
Sodda fe'l kesim	1) sof fe'l bilan	<i>Universitetda o'qiyman.</i>
	2) ravishdosh bilan (<i>qo'shma gaplarda</i>)	<i>Siz kelgach, suhbatni boshlaymiz.</i>
	3) sifatdosh bilan	<i>Do'stim bu ishni qilmagan.</i>
Murakkab fe'l kesim	1) ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi bilan	<i>Hamma gapni eshitib turibman.</i>
	2) fe'lli birikma (so'z birikmasi yoki ibora) bilan	1. <i>Bizning burchimiz – o'tmishni unutmaslik.</i> 2. <i>U to'nini teskari kiyib oldi.</i>

Ot kesim

Tuzilishi	Ifodalanishi	Misolalar
Sodda ot kesim	1) ot bilan	<i>Yaxshi do'st – qarindosh.</i>
	2) sifat bilan	<i>Akbarning gapi to'g'ri.</i>
	3) son bilan	<i>Bugun siz birinchisiz.</i>
	4) olmosh bilan	<i>Fikr-u zikrim senda.</i>
	5) ravish bilan	<i>Bu dalaning hosili ozroq.</i>
	6) harakat nomi bilan	<i>Maqsadim – o'qimoq.</i>
	7) undov so'z bilan	<i>Barchasi uchun rahmat.</i>
	8) modal soz bilan	<i>Bugun vaqtim yo'q.</i>
Murakkab ot kesim	1) ot, otlashgan so'zlar + <i>edi</i> (<i>ekan, emish</i>) to'liqsiz fe'li bilan	1. <i>Havo juda sovuq edi.</i> 2. <i>Qudug suvi oz emish.</i>
	2) ot, otlashgan so'zlar + <i>bo'lmoq, hisoblanmoq, sanalmoq, atalmoq, tuyilmoq</i> kabi bog'lamalar bilan	1. <i>Qizning xonasi doim ozoda bo'ladi.</i> 2. <i>Bugundan u ham g'olib sanaladi.</i>
	3) ot, otlashgan so'zlar (+ <i>-dan</i>) + <i>iborat</i> so'zi bilan	<i>Jamoamiz o'n kishidan iborat.</i>
	4) harakat nomi (+ <i>egalik qo'shimchasi</i>) + <i>kerak, zarur, lozim, darkor, mumkin, shart</i> kabi so'zlar bilan	1. <i>Tanlovda siz g'olib bo'lishingiz kerak.</i> 2. <i>Bugun biznikiga Norboy akam kelishi mumkin.</i>
	5) otli birikma bilan	<i>Bosvoldi asalday shirin.</i>

Mustaqil va nomustaqil kesim

Mustaqil kesim	Nomustaqil kesim
<p>Shaxs-son va zamon shakllaridagi fe'l kesimlar hamda bog'lamasiz va bog'lamali ot kesimlar mustaqil kesimlardir:</p> <p>1. <i>Qalb salomat bo'lsa, aql ham, fikr ham salomat bo'ladi.</i></p> <p>2. <i>Aravalar bugun yetib borishsa, ular ertaga qaytib kelishlari mumkin.</i></p>	<p>Shart mayli shakli (istak gaplar bundan mustasno) nomustaqil kesim shaklini yasaydi. Bunday kesim shart mayli vositasida ergashgan qo'shma gapda ergash gapning kesimi bo'lib keladi:</p> <p>1. <i>Agar shu ko'rganlarini hikoya qilib bersa, ular ishonmaydilar.</i> 2. <i>Mehmon kelsa eshikdan, rizqi kirar teshikdan.</i></p>

EGA

Ta'rifi	Ifodalanishi	Misollar
Ega gap-ning nima haqida aytilganini, fikrining nima to'g'rida bayon etilganini ko'rsatuvchi bosh bo'lakdir. So'roqlari: kim? nima? qayer?	1) ot bilan	<i>Kamtarlik kishiga zeh-ziynatdir.</i>
	2) sifat bilan	<i>Yaxshi qand, yomon pand yedirar.</i>
	3) son bilan	<i>Ikkalasi hozir chiqib ketdi.</i>
	4) olmosh bilan	<i>Hamma hasharga to'plandi.</i>
	5) ravish bilan	<i>Ko'p so'zning ozi yaxshi, oz so'zning o'zi yaxshi.</i>
	6) harakat nomi	<i>Yugurish sportning bir turidir.</i>
	7) sifatdosh bilan	<i>Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar.</i>
	8) taqlid so'z bilan	<i>Taq-tuq ham uni ovuta olmadi.</i>
	9) modal so'z bilan	<i>Bor so'zlaydi, yo'q o'ylaydi.</i>
	10) ibora bilan	<i>Kattalar yuziga oyoq qo'yish bizning axloqimizda yo'q.</i>
	11) so'z birlikmasi bilan	<i>Ikki dugona qo'lni qo'lga berib quvnah yurishibdi.</i>

Eganing ishtirokiga ko'ra gap turlari

Turlari	Bo'linishi	Misollar
Egali gaplar	Shaxsli gaplar	<i>Men shu vazifani bajarishim mumkin.</i>
Egasiz gap	Egasi (shaxsi) ma'lum gaplar	<i>Sermanzara bog'ni tomosha qilib yurgan edim.</i>
	Egasi (shaxsi) umumlashgan gaplar	<i>Mama, uy ham qurildi, suv quvurlari o'tkazildi, elektrlashtirish va gazlashtirish ishlari bitkazildi.</i>
	Shaxsi noma'lum gaplar	<i>Ko'ngilda armon qolmasin deb, chilyosin qilishga ham to'g'ri keldi.</i>
	Atov gaplar	<i>Bahor: Kunlar iliqlashgan. Bodom qiyg'os gullagan.</i>
	So'z-gaplar	<i>- Ertalab uchrashamiz-da... - Albatta. Bekatda. Soat 8 da.</i>

Egali (shaxsli) gaplar

Xususiyati	Misollar
Egasi mavjud bo'lgan gaplar shaxsli gaplardir	1. <i>Mastura Mashrabning ko'zlariga qadalib qaradi.</i> 2. <i>U birdaniga to'nini teskari kiyib oldi.</i> 3. <i>Bolalar yo'g'on archa yonida to'xtadilar.</i>

Egasi (shaxsi) ma'lum gaplar

Xususiyati	Misollar
Gapning egasi matndan, nutq sharoitidan, kesimning shaxs-son shakllaridan ma'lum bo'lib turadi. Bunday gaplarning kesimi, odatda, I va II shaxs shaklida bo'ladi	1. <i>Topshiriqni o'z vaqtida bajar-ing.</i> 2. <i>So'zinning ustidan chiqaman.</i> 3. <i>Yaqin kumlarda yakuniy test sinovlaridan o'tamiz.</i> 4. «Masalani yechdingizmi?» – so'radi Tursunoy.

Egasi (shaxsi) umumlashgan gaplar

Xususiyati	Misollar
Gapning umumiy mazmuni barcha shaxslarga aloqador bo'ladi. Bunday gaplarning kesimi II va III shaxs shakllarida keladi. Maqol va matallar, hikmatli so'zlar, odat tusiga kirgan rasm-rusumlarni bayon etuvchi gaplarda ega, asosan, umumlashgan bo'ladi	1. <i>Sog'liq tilasang, ko'p yema.</i> 2. <i>Yaxshilikni minnat uchun qilmaydilar.</i> 3. <i>Xonaga kirgan avval salom beradi.</i> 4. <i>Murojaat matni yozildi, imzolar chekildi, elektrostansiya muddatidan 3 oy oldin ishga tushirish majburiyati bir ovozdan ma'qullandi.</i>

Egasi (shaxsi) noma'lum gaplar

Xususiyati	Misollar
Shaxsi noma'lum gaplarda kesim fe'l bilan ifodalanadi va ish-harakatni bajarishga imkoniyat, zaruriyat, shart, tilak, istak kabi ma'nolarni ifodalab keladi. Bunday gaplar kesimining eng muhim belgisi – uning tarkibida egalik qo'shimchasining yo'qligidir. Bu gaplar shaxssiz emas, harakatni kimdir bajaradi, lekin uni gapda ifodalab bo'lmaydi	1. <i>Vazifani bajarish kerak.</i> 2. <i>Yo'lda hiroz to'xtashga to'g'ri kelib qoldi</i> 3. <i>To'garakka borish kerak.</i> 4. <i>Bu yerda o'rtoq Ergashevning hushyorligiga tan berish kerak</i>

ATOV GAPLAR

Xususiyyati	Tuzilishi	Misollar
Atov gaplar biror voqea-hodisani, narsa-buyum yoki davrni jonli gavdalantirish, so'zlovchi xayolida bularga aloqador bo'lgan voqealarni tiklashga xizmat qiluvchi muhim tasviriy vositadir. Atov gaplar, asosan, xabar maylining hozirgi-kelasi, ba'zan o'tgan zamon shakllarida keladi. Atov gaplar bitta so'zdan iborat bo'lishi, aniqlovchilar bilan kengayib kelishi ham mumkin	Yig'iq atov gaplar	1. <i>Maktab. Yoshligimning oltin davri shu dargohda o'tdi.</i> 2. <i>Chovchi kuchli issiqdan nafas bo'g'iladi.</i> 3. <i>May... Ajoyib so'lim bahor.</i>
	Yoyiq atov gaplar	1. <i>Sentabrning boshlari edi. Talabalikning ilk kunlari edi. Men, qishloqi yigit uchun Samarqandning gavjum ko'chalari bayram kunlaridagi sayilni eslatadi.</i> 2. <i>Hamon yodimdadir: gul chog'i erdi.</i>

SO'Z - GAPLAR

Xususiyyati	Tuzilishi	Misollar
Bir so'zdan iborat bo'ladi, boshqa so'zlar bilan kengaya olish imkoniyatiga deyarli ega bo'lmaydi. Ular tasdiq, inkor, so'roq, taajjub, his-hayajon kabilarni ifodalab, matn bilan bog'liq bo'ladi. So'z-gaplar, asosan, modal va his-hayajon munosabatlarni ifoda etgani uchun ham ular ko'proq dialogik va ba'zan monologik nutqqa xos. So'z gapning kengayishi o'ta chegaralangan. Ba'zan so'z-gaplar takrorlanib qo'llaniladi	Yig'iq so'z-gaplar	– <i>Qabulga birga kiramizmi?</i> – <i>Yo'q. Avval siz kiring.</i> – <i>Bo'пти. Ma'qul.</i> – <i>Oh-o! Savollaringiz tugamaydi-ku. Mayli. marhamat.</i>
	Yoyiq so'z-gaplar	– <i>Qani, ayt-chi, darsni tinglamay nimani o'vlayotgan eding?</i> – <i>Xokkeyni.</i> – <i>Yana xokkey! Hovlida ham xokkey. darsda ham...</i>

SODDA GAPNING TURLARI

Turlari	Bo'linishi	Misollar
Bosh bo'laklar ishtirokiga ko'ra	Yig'iq (faqat ega va kesimdan iborat) gap	1. <i>Sen yozding.</i> 2. <i>Bu – katta yutuq.</i>
	Bir bosh bo'lakli gaplar (eganing ishtirokiga ko'ra)	<i>Ko'chamizga chiroqlar o'rnatildi.</i>
Ikkinchi darajali bo'laklar ishtirokiga ko'ra	Yoyiq (ega yoki kesim hamda ikkinchi darajali bo'laklardan kamida biri qatnashadigan) gap	1. <i>Abror sizga aytganmi?</i> 2. <i>Qizil pufakdan bitta bearing.</i> 3. <i>Hayotingiz haqida qisqa hikoya yozmoqchiman.</i>
Zaruriy bo'laklar ishtirokiga ko'ra	To'liq gaplar	<i>Lobar sovg'a oldi.</i>
	To'liqsiz gaplar (faqat dialogik nutqqa xos)	– <i>Buni sizga kim berdi?</i> – <i>Ahror.</i>

IKKINCHI DARAJALI BO'LAKLAR

HOL

Ta'rifi	Ifodalanishi	Misollar
Asosan, kesimga bog'lanib, undan anglashilgan ish-harakatning o'rni, payti, holati, bajarilish sabab-maqsa-di, daraja-miqdori-ni bildiradigan ikkinchi darajali bo'lak hol hisoblanadi	1) ravish bilan	<i>Uyga qarab sekin yurdim.</i>
	2) fe'l bilan	<i>Nega unga jilmayib gapirdingiz?</i>
	3) ot bilan	<i>Buxoroda muzeylar ko'p.</i>
	4) sifat bilan	<i>Osmonda yulduzlar xira miltirar edi.</i>
	5) son bilan	<i>Bu gapni ikkinchi ayta ko'rma.</i>
	6) olmosh bilan	<i>Akbar, tarvuzni qachon ekasan?'</i>
	7) taqlid so'z bilan	<i>Suv shildir-shildir oqmoqda.</i>
	9) so'z birik-masi bilan	<i>Ayol sochlari parishon holda ko'chaga otildi.</i>
	10) ibora bilan	<i>Dunyodan ko'zi ochiq ketdi.</i>

Payt holi

Xususiyati va ifodalanishi	Misollar
<p>Payt holi harakat-holatning ro'y berish vaqtini bildiradi. Payt holi ko'pincha ot yoki payt ravishi bilan, shuningdek, son birikmalari bilan ifodalanadi. So'roqlari: <i>qachon? qachongacha? qachondan beri? qay vaqt?</i></p>	<p>1. <i>Ertalab shu joyda ko'rishamiz.</i> 2. <i>Uyiga uch oyda qaytdi.</i> 3. <i>Yuvingandan so'ng ovqatlaning.</i> 4. <i>Ishni kechga qadar tugatamiz.</i> 5. <i>Har yili 1-sentabrda Mustaqillik bayramini nishonlaymiz.</i> 6. <i>Allaqachon bu yerdan ketibdi.</i></p>

O'rin holi

Xususiyati va ifodalanishi	Misollar
<p>O'rin holi harakat-holatning ro'y berish, boshlanish, yo'nalish o'rnini va bu yo'nalishdagi oxirgi chegarani bildiradi. O'rin holi o'zi ergashgan so'zga boshqaruv yo'li bilan bog'lanadi. O'rin holi makonzamon (<i>jo'nalish, o'rin-payt, chiqish</i>) kelishiklaridagi so'zlar yoki ko'makchili otlar va o'rin ravishlari bilan ifodalanadi. So'roqlari: <i>qayerga? qayerdan? qayerda?</i></p>	<p>1. <i>Yo'lakda o'ng tomondan yuring.</i> 2. <i>Mashinatol tagiga to'xtadi.</i> 3. <i>Uy ichida odam ko'p edi.</i> 4. <i>Ko'cha devori yonida o'tirgan ammakidan manzilni so'radik.</i> 5. <i>Siz ham o'sha yerlarda bo'lganmisiz?</i></p>

Ravish holi

Xususiyati va ifodalanishi	Misollar
<p>Ravish holi ish-harakatning bajarilish holati, usuli va sifatini bildiradi. Ravish holi ravish, fe'l va ko'makchili otlar bilan ifodalanadi. Ravish holi kesimga bitishuv yo'li bilan bog'lanadi. Demak, u ko'pincha o'zi ergashgan so'zdan oldin keladi. So'roqlar: <i>qanday? qanday qilib? qanday ahvolda?</i></p>	<p>1. <i>Ota hassaga tayanib, zo'rg'a kir-di.</i> 2. <i>Mehribon xola uning yelkasi-ga qoqib omonlashdi.</i> 3. <i>Suhbatni maroq bilan eshitdik.</i> 4. <i>Qizcha piq-piq yig'ladi.</i></p>

Daraja-miqdor holi

Xususiyati va ifodalanishi	Misollar
<p>Daraja-miqdor holi ish-harakatning bajarilish darajasini, shu bajarilish bilan bog'liq bo'lgan miqdorni bildiradi. Daraja-miqdor hollari sonlar bilan, miqdor ravishlari bilan, <i>marta</i> so'zi qatnashgan birikmalar bilan ifodalanadi. So'roqlari: <i>qancha? nechta? necha marta? qay darajada?</i></p>	<p>1. <i>Ustoz she'rni ikki marta o'qib berdilar.</i> 2. <i>Yoshlar haqida ko'p yozdi.</i> 3. <i>Bu voqeadan beri oradan o'n besh yil o'tdi.</i></p>

Sabab holi

Xususiyati va ifodalanishi	Misollar
<p>Sabab holi harakat-holat yoki belgining ro'y berish sababini bildiradi. Sabab holi fe'l bilan ifodalangan bo'lakka ham, ot bilan (keng ma'noda) ifodalangan bo'lakka ham bog'lanadi. Sabab holi <i>-lik</i>, <i>-sahib</i> qo'shimchalarini olgan otlar, <i>-gani</i> qo'shimchali ravishdoshlar (ba'zan <i>tu-fayli</i>, <i>uchun</i>, <i>sababli</i> ko'makchilari bilan birga keladi) va <i>shu sababli</i>, <i>shuning uchun</i> kabi ko'makchili qurilmalar bilan ifodalanadi. So'roqlari: <i>nimaga? nima sababdan? nima sababli?</i></p>	<p>1. <i>U shodligidan haqirib yubordi.</i> 2. <i>Ko'p bilgani uchun sinovdan yuqori ball oldi.</i> 3. <i>Yo'l charchatgani sababli darrov uxlab qoldi.</i> 4. <i>inchilik tufayli yurtimiz obod.</i></p>

Maqsad holi

Xususiyati va ifodalanishi	Misollar
<p>Maqsad holi harakat-holat yoki belgining ro'y berishidagi maqsadni anglatadi. Maqsad holi maqsad ravishdoshlaridan, ot yoki fe'llardan keyin <i>uchun</i>, <i>deb</i>, <i>maqsadda</i>, <i>maqsadi bilan</i> kabi so'zlarni keltirish orqali, shuningdek, jo'nalish kelishigi qo'shimchasini olgan harakat nomlari orqali ifodalanadi. So'roqlari: <i>nima uchun? nima maqsadda? nima qilgani?</i></p>	<p>1. <i>Aziz o'qigani shaharga ketdi.</i> 2. <i>Sizni ko'rish uchun keldik.</i> 3. <i>Oling, ataylab siz uchun pishirdi.</i> 4. <i>Dehqonlar dam olishga shiyponga yig'ilishdi.</i> 5. <i>Shoir bilan uchrashish maqsadida shu saroyga to'plandik.</i></p>

TO'LDIRUVCHI

Ta'rif	Ifodalanishi	Misollar
To'ldiruvchi gapning biror bo'lagiga (asosan, kesimga) boshqaruv yo'li bilan bog'lanib, harakatni o'z ustiga olgan, harakat yo'nalgan, umuman, harakat yoki belgining ta'siriga o'tgan ikkinchi darajali bo'lakdir. To'ldiruvchi qanday grammatik shakllar bilan ifodalanishiga ko'ra vositasiz va vositali to'ldiruvchiga ajratiladi	1) ot bilan	<i>U xatni opamga berganman.</i>
	2) olmosh bilan	<i>Sizdan bir gap so'rayman.</i>
	3) otlashgan sifat bilan	<i>Yaxshidan nom qolar, yomondan dod.</i>
	4) otlashgan son bilan	<i>Ikkovimizga katta ishonch bildirishdi.</i>
	5) sifatdosh bilan	<i>Bilmagandan bilgan yaxshi.</i>
	6) harakat nomi bilan	<i>Do'stingizni yo'qotib qo'yishdan qo'rqingiz.</i>
	7) otlashgan ravish bilan	<i>Birni birov, ko'pni mehnat beradi.</i>
	8) taqlid so'z bilan	<i>Bolalarning qiy-chuviga ko'nikdingizmi?</i>
	10) birikma bilan	<i>Ustoz mahorati shogirdlarining bilimdonligi bilan o'lchanadi.</i>

To'ldiruvchining turlari

Turlari	Misollar	Xususiyati
Vositasiz to'ldiruvchi	1. <i>Onalarning mehr-muhabbatini unutish og'ir gunohdir.</i> (belgili) 2. <i>Yashashni istasang, ishlashni o'rgan.</i> (belgili) 3. <i>Yurgan darvo, o'tirgan bo'yra.</i> (belgisiz) 4. <i>deydilar.</i> (belgisiz)	Harakatni o'ziga qabul qilgan, harakat o'ziga bevosita o'tgan predmetni bildiradi va u, odatda, o'timli fe'l bilan birikadi. Vositasiz to'ldiruvchi -ni tushum kelishigidagi so'z bilan ifodalanib, belgili va belgisiz ko'rinishda kela oladi. So'roqlari: <i>kimni? nimani?</i>

Turlari	Misollar	Xususiyati
Vositali to'ldiruvchi	1. <i>Hunar o'rganishga harakat qil.</i> 2. <i>So'ragandan uyalma. bilmaslikdan uyal.</i> 3. <i>Xat qizil qalam bilan yozilgan ekan.</i> 4. <i>Kechada o'tmish voqealari haqida bahs ketdi.</i>	Jo'nalish, chiqish, ba'zan o'rin-payt kelishiklari qo'shimchalarini yoki uchun, bilan, orqali, xususida, to'g'risida kabi ko'makchilarni olgan so'zlar bilan ifodalanib, harakat-holat bevosita yo'nalmagan obyektini ko'rsatadi. So'roqlari: <i>kinga? nimaga? kimdan? nimadan? kim uchun? nima uchun? kim haqida? nima haqida? kim bilan? nima bilan?</i>

ANIQLOVCHI

Ta'rifi	Ifodalanishi	Misollar
Aniqlovchi gapning biror bo'lagini aniqlab, narsa-buyumning rang-tusi, mazasi, hajmi, kim yoki nimagaga qarashligini bildiradi. Aniqlovchi ega, ot, to'ldiruvchi kesim va holga bog'lanadi. Ular m'anosi va grammatik shakliga ko'ra qaratqich va sifatlovchi aniqlovchilarga bo'linadi	1) sifat bilan	<i>Soydan ko'm-ko'k suv oqadi.</i>
	2) son bilan	<i>Besh-olti kekxa maslahat qilishdi.</i>
	3) ravish bilan	<i>Ular uzoq-yaqin yerlardan kelishdi.</i>
	4) olmosh bilan	<i>Menga ana shu gullardan bering.</i>
	5) ot bilan	<i>Oltin yaproqlar shivirlar mayin.</i>
	6) sifatdosh bilan	<i>Kecha kelgan usta yana keldi.</i>
	8) modal so'zlar bilan	<i>Zarur ishlaringni bitirgin.</i>
	9) taqlid so'zlar bilan	<i>Ichkaridan ship-ship qadam tovushi eshitildi.</i>
	11) so'z birikmasi bilan	<i>Uning egnida oq shoyi kitel, boshida chust do'ppi bor edi.</i>

Sifatlovchi aniqlovchi

Xususiyati	Misollar
<p>Sifatlovchi aniqlovchi gapda shaxs yoki narsa-buyumning belgi-xususiyati, hajmi, shakli, maza-ta'mi, rang-tusi, miqdori, tartibi kabi ma'nolarni anglatadi. Hokim so'zga <i>bitishuv yo'li</i> bilan birikadi. U bog'lanib kelgan so'z sifatlanmishdir. Bunday aniqlovchilar o'ziga qarashli so'zlar bilan birikma holida qo'llansa, <i>sifatdosh qurilmani</i> tashkil qiladi. So'roqlari: <i>qanday? qaysi? nechanchi? qancha? nechta?</i></p>	<ol style="list-style-type: none"> 1. <i>Aytilgan so'z – otilgan o'q.</i> 2. <i>Yaxshi o'g'il otga mindirar, yomon o'g'il otdan indirar.</i> 3. <i>Katta to'garak ikki guruhdan iborat.</i> 4. <i>Qizil gulli oppoq ko'ylak unga juda yarashibdi.</i> 5. <i>Issiqqina mazali sho'rva ichdik.</i> 6. <i>Beshta insho tanlovga qo'yiladi.</i> 7. <i>Bu qiz ikkinchi yil o'qishga kirishga harakat qilyapti.</i>

Qaratqich aniqlovchi

Xususiyati	Misollar
<p>Qaratqich aniqlovchi biror narsa-buyum tegishli, qarashli bo'lgan shaxs yoki narsa-buyumni bildiradi va qaratqich kelishigidagi so'zlar bilan ifodalanadi. Ular tobelangan so'z <i>qaralmish</i> hisoblanadi. Bunday birikmada qaralmish, hokim so'z egalik qo'shimchasining III shaxs birlik shakli (<i>-i, -si</i>)ni oladi. Qaratqichli aniqlovchilar quyidagicha shakllanadi: 1) qaratqich va qaralmish belgili; 2) qaratqich belgisiz, qaralmish belgili; 3) qaratqich va qaralmish belgisiz.</p> <p>So'roqlari: <i>kimning? nimanig?</i></p>	<ol style="list-style-type: none"> 1. <i>Atirgulning hidi menga yoqadi.</i> 2. <i>Fidoyilarning g'ayrati bilan mahalla obod bo'ldi.</i> 3. <i>Ikkovining fikri bir yerdan chiqdi.</i> 4. <i>Uchashuvga kelganlarning savollari yangi asar haqida bo'ldi.</i> 5. <i>Uztozlar mehnatini qadrlash shogirdlarning burchidir.</i> 6. <i>Inson qalbi bilan hazillashmang siz – unda millat yashar, xalq yashar.</i>

Izohlovchi aniqllovchi

Xususiyati	Misollar
Shaxsning unvonini bildiradi	<i>Professor Alimov ma'ruza qildi.</i>
Shaxsning amalini bildiradi	<i>Bizni mahalla oqsoqoli Orif Xolbo'tayev qarshi oldi.</i>
Shaxsning kasbi, mashg'ulotini bildiradi	<i>Holvapaz Oygul opaga buyurtma berdim.</i>
Qarindoshlikni bildiradi	<i>Abdurasul amakim maslahat berdilar.</i>
Shaxsning jinsini bildiradi	<i>Qiz bola saranjom-sarishtalikni yoqtiradi.</i>
Shaxsning yoshini bildiradi	<i>Anzirat kampir sumalakka tosh soldi.</i>
Laqabni bildiradi	<i>Ahmad qaysarga bu haqda gapirmang.</i>
Taxallusni bildiradi	<i>Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy 1809- yilda tug'ilgan.</i>

UYUSHIQ BO'LAKLI GAPLAR

Uyushiq bo'laklar	Misollar	Xususiyati
Uyushiq kesim	<i>1. Gapingizni tingladim va tushundim. 2. Abdulla Qahhorning ijodi xalq hayoti bilan birga ko'tarilib, birga ulg'aydi.</i>	Bunday gapda kesimi shakllantiruvchi vositalar faqat keyingi kesim tapkibida keladi
Uyushiq ega	<i>Siz bilan biz ulug' ishlarga qodirmiz.</i>	Uyushiq egalar o'zaro sanash ohangi yoki teng bog'lovchilar bilan bog'lanadi
Uyushiq hol	<i>1. U hayajon bilan, tez-tez, bo'g'ilib so'zlar edi. 2. Podshoh goh kulib, goh jiddiy o'y bilan quloq soldi.</i>	Bir xil masmundagi bir necha hollar sanash ohangi bilan uyushib kelsa, orasiga vergul qo'yiladi yo teng bog'lovchilar bilan ajratiladi

Uyushiq bo'laklar	Misollar	Xususiyati
Uyushiq to'ldiruvchi	<i>Hulkar bir otasiga, bir Avazga, bir onasiga qarab qo'yardi.</i>	Bular bir xildagi kelishik shakllari yoki ko'makchilar orqali bog'lanadi
Uyushiq aniqlovchi	1. <i>Lola, Ozoda va Nodiraning bolalari birga o'ynashyapti.</i> 2. <i>Quyosh yorug'ida ko'k, sariq, qizg'ish qum zarra-chalari yaltirardi.</i>	Qaratqich aniqlovchilar uyushganda <i>-ning</i> qo'shimchasi barcha bo'laklarga yoki faqat oxirgisiga qo'shiladi

Uyushiq bo'laklarda umumlashtiruvchi so'z

Umumlashtiruvchi so'z-ning o'rni	Misollar	Ishlatiladigan tinish belgilari
Uyushiq bo'lakdan oldin kelishi	<i>Tubiat hodisalari: shamol, qor, do'l, yomg'ir o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi.</i>	Ikki nuqta (·)
Uyushiq bo'lakdan keyin kelishi	<i>Samarqandlik, bag'dodlik, misrlik, va xitoylik – hamma sayyohlarga bu shahar manzur bo'ldi.</i>	Tire (–)

AJRATILGAN BO'LAKLI GAPLAR

Turlari	Misollar	Ishlatiladigan tinish belgilari
Ajratilgan hol	<i>Cho'pon otadan bir chaqirimcha pastlikda, Bo'zsuarning naq bo'yida, uchto'rt tup jiyda o'sgan joy bor.</i>	Vergul (·)
Ajratilgan to'ldiruvchi	<i>Unsin uchun, bechora qiz uchun, bu ganday mudhish motam!</i>	Vergul (·)
Ajratilgan aniqlovchi	<i>Axir, uning, Vohidning ham, o'ziga yarasha obro'si, izzat-nafsi bor-ku!</i>	Vergul (·)
Ajratilgan izohlovchi	<i>Akam – Abror Rustamov – litseyda dars beradi.</i>	Tire (–)

**GAP BO'LAKLARI BILAN GRAMMATIK
BOG'LANMAYDIGAN «BO'LAKLAR»**

Turlari	Bo'linishi	Misollar	Qo'llanishi, ishlatiladigan tinish belgisi
Kiritmalar	Kirish so'z (kiritmalar)	1. <i>Ehtimol, bu ishni o'zing bajararsan.</i> 2. <i>Yaxshi hamki, kel-ding.</i>	Gapdagi bo'laklar bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi, undan <i>vergul bilan ajratiladi</i>
	Kiritma gap	1. <i>Tanlovida Ahror (siz uni taniysiz) g'olib bo'ldi.</i> 2. <i>Omon (o'qiydi): «Ketayotgan kunim...»</i>	Ko'proq dialoglarda qo'llaniladi va ular <i>qavsga olinadi</i>
Undalmalar	—	1. <i>Yurak, sensan mening sozim.</i> 2. <i>Jahonga yuz tutgan O'zbekistonim, sening har bir yutug'ing mening yutug'imdir.</i>	Undalmali gaplarning kesimi I va II shaxs-sonda bo'ladi. Qo'llanish o'rni erkindir, shunga ko'ra ular boshqa bo'laklardan <i>vergul bilan ajratiladi</i>

QO'SHMA GAP SINTAKSISI

Qo'shma gapning turlari

Turlari	Xususiyati	Misollar
Bog'langan qo'shma gaplar	Qismlari teng bog'lovchilar, <i>bo'lsa, esa</i> so'zlari, <i>-u (-yu), -da</i> yuklamalari yordamida bog'lanadi	<i>Hujrasiga qaytdiyu, o'ylay boshladi.</i>
Ergashgan qo'shma gaplar	Qismlari ergashtiruvchi bog'lovchilar yoki shunday bog'lovchi vazifasidagi so'zlar yordamida bog'lanadi	<i>Men bilgan yovuz kishilar u yerda bor, shuning uchun men bormayman.</i>
Bog'lovchisiz qo'shma gaplar	Tarkibidagi sodda gaplar mazmunan bir-biri bilan bog'liq bo'lib, maxsus bog'lovchi vositalarsiz, faqat ohang yordamida bog'lanadi	<i>Avval ular bizga yetib olishsin. keyin birga o'ynaymiz.</i>

Qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalar

Bog'lovchi vositalar	Turlari
Bog'lovchilar	Teng bog'lovchilar (<i>biriktiruv, zidlov, ayiruv bog'lovchilari</i>)
	Ergashtiruvchi bog'lovchilar (<i>sabab, maqsad, shart, qiyoslash-chog'ishtiruv bog'lovchilari</i>)
Bog'lovchi vazifasidagi so'zlar	<i>Bo'lsa, esa</i> so'zlari
	<i>Deb</i> so'zi
	<i>-u (-yu), -da, -ki</i> yuklamalari
	Nisbiy so'zlar (<i>kim – o'sha, nima – u, qanday – shunday, qayer – o'sha yer kabi</i>)
	Ko'makchili qurilmalar (<i>shuning uchun, shu tufayli, shu sababli kabi</i>)
	<i>-sa</i> shart mayli qo'shimchasi
Ohang	–

Bog'langan qo'shma gaplar

Turlari	Bog'lovchi vositalari va qolipi	Misollar
Biriktiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gap	<p>Biriktiruv bog'lovchisi, ba'zan -u (-yu), -da yuklamalari qo'shma gapning payt, sabab-natija munosabatlarida bo'lgan qismlarini bog'lab keladi. Qismlari orasida sabab-natija munosabati ifodalangan qo'shma gaplarda ikkinchi qism oldidan natijada so'zini qo'yish mumkin bo'ladi.</p> <p style="text-align: center;">□ ————— □ biriktiruv bog'lovchisi</p>	<p>1. <i>To'satdan eshik sharaqlab ochildi va ostonada Ertoyev paydo bo'ldi.</i> 2. <i>Gazlama ko'paydi-yu, ishimiz kasod bo'ldi.</i> 3. <i>Kuzning o'rtalarida havo bir-ikki ayniydida, vodiya qalin tuman tushadi.</i></p>
Zidlov bog'lovchili bog'langan qo'shma gap	<p>Zidlov bog'lovchilari, -u (-yu), -da yuklamalari bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'laydi va ular o'rtasida zidlash, ketma-ketlik munosabati mavjudligini ifodalaydi.</p> <p style="text-align: center;">□ ————— □ , zidlov bog'lovchisi</p>	<p>1. <i>Soni ko'p, lekin salmog'i yo'q.</i> 2. <i>Mayli, siz yashirdingiz, ammo men yashirmayman.</i> 3. <i>Har kimning zari bo'lmasa-da, hunari bo'lsin.</i></p>
Ayiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gap	<p>Ayiruv bog'lovchilari qo'shma gap qismlarini bog'laydi va ularda ifodalangan voqea-hodisalarning galma-gal ro'y berishini yoki ulardan faqat bittasining yuzaga chiqishini ta'kidlaydi.</p> <p style="text-align: center;"><i>Yo (yoki) bog'lovchilari yolg'iz holda ham qo'llanishi mumkin.</i></p> <p style="text-align: center;">□ ————— □ ayiruv bog'lovchisi</p>	<p>1. <i>Dam kun birdan qizib ketadi, dam bulut kelib, jalu quyadi.</i> 2. <i>Yo mehmon kelganini bilmaydi, yo o'zini bilmaslikka oladi.</i> 3. <i>Mashinaning nuqsoni bo'lsa, tuzatiladi yo yana yaxshirog'i vasaladi.</i></p>
Bo'lsa, esa so'zlari yordamida bog'langan qo'shma gap	<p><i>Bo'lsa, esa</i> so'zlari bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'laydi va ular o'rtasida qiyoslash va zidlash munosabati mavjudligini ifodalaydi. <i>Bo'lsa, esa</i> so'zlari qiyoslanuvchi bo'lakdan so'ng keladi.</p> <p style="text-align: center;">□ ————— □ , bo'lsa (esa) so'zi</p>	<p>1. <i>Dono aybni o'zidan axtaradi, ahmoq bo'lsa do'stini ayblaydi.</i> 2. <i>Yaxshilik qilmoglik ulug' fazilatdir. buning qadrriga yetmaslik esa illatdir.</i></p>

ERGASHGAN QO'SHMA GAPLAR

Ergashgan qo'shma gap qismlari

Oismlari	Xususiyati	Misollar
Hosh gap	<p>Bosh gap ergashgan qo'shma gap tarkibidagi hokim qism bo'lib, ergash gap tomonidan o'zi yoki uning biror bo'lagi izohlanadi. Bosh gap ergash gapdan oldin yoki keyin keladi. Bundan tashqari, bosh gap birdan ortiq bo'lishi mumkin.</p> <p>Shartli belgisi: <input type="checkbox"/></p>	<p>1. <i>Shuni mamnuniyat bilan ta'kidlayman</i>ki, mening kasb tanlashimga otamning do'mbirasi sababchi bo'lgan. 2. <i>Agar arqondan qo'llari chiqib ketsa, to tuman tarqaguncha yo'l topolmay sarson bo'lib yuraveradilar.</i></p>
Ergash gap	<p>Ergash gap ergashgan qo'shma gap tarkibida tobe qism bo'lib, bosh gapni yoki uning biror bo'lagini izohlaydi. Ergash gap hosh gapdan oldin yoki keyin keladi. Bundan tashqari, ergash gap birdan ortiq bo'lishi mumkin.</p> <p>Shartli belgisi: $\leftarrow \bigcirc$ yoki $\bigcirc \rightarrow$</p>	<p>1. <i>Birinchi qaldirg'och parvozini ko'rgan kishi qanday sevinsa, Avaz ham bundan shunday quvonadi.</i> 2. <i>Shuni bilingki, bitta so'zning tig'i yuzta shamshirdan o'tkirroqdir.</i></p>

Ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalar


Bog'lovchi vositalar	Misollar
Ergashtiruvchi bog'lovchilar	<i>Ular mening aytganimni qilishadi, chunki men oilamizning kenjatoviman.</i>
Ko'makchili qurilmalar	<i>Ikkinchi masala jiddiy, shuning uchun u maxsus o'rganishni talab qiladi.</i>
Yuklamalar	<i>Shuni bilingki, vaqtning qadriga yetish, uni behuda o'tkazmaslik lozim.</i>
Nisbiy so'zlar	<i>Shamol qay tarafga essa, maysa ham o'sha tomonga egiladi.</i>
Shart mayli shakli	<i>Kishida odob bo'lsa, ilm ham bo'lishi lozim.</i>
Deb so'zi	<i>Gul barglari uchishadi, tushmayin deb qo'lingga.</i>

Ergashgan qo'shma gaplarning turlari

Ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalariga ko'ra	Ergash gap bosh gapdagi qaysi bo'lakni izohlab kelishiga ko'ra
1. Ergashtiruvchi bog'lovchili ergashgan qo'shma gaplar. 2. Ko'makchili qurilmalar yordamida ergashgan qo'shma gap. 3. <i>Deb</i> so'zi yordamida ergashgan qo'shma gap. 4. Shart mayli vositasida ergashgan qo'shma gaplar. 5. Ko'rsatish olmoshili ergashgan qo'shma gaplar. 6. Nisbiy so'zli ergashgan qo'shma gaplar	1. Kesim ergash gapli qo'shma gaplar. 2. Ega ergash gapli qo'shma gaplar. 3. Hol ergash gapli qo'shma gaplar. 4. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplar. 5. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar

ERGASH GAPNI BOSH GAPGA BOG'LOVCHI VOSITALARIGA KO'RA ERGASHGAN QO'SHMA GAPLAR

Ergashtiruvchi bog'lovchili ergashgan qo'shma gaplar

Bog'lovchi vositalar	Qo'llanish o'rni va qolipi	Ergash gap orqali izohlangan mazmun	Misollar
Sabab, maqsad, qiyoslashchog'ishtiruvchi bog'lovchilari	Ergashtiruvchi bog'lovchi ergash gap boshida. 	Ergash gap bosh gapda ifodalangan mazmunning sababi, maqsadi, qiyosini izohlaydi	1. <i>Soliqni bermangiz demayman, chunki sizning itoatingiz menga bundog' to'nlqr berar.</i> 2. <i>Bu masalani sinfda keng muhokama qilamiz, toki boshqa qaytarilmasin.</i> 3. <i>Misralarda so'zlar gavhar kabi yonadi, go'yo yangi ranglar, yangi jilvalar bilan porlaydi.</i>
Shart ergashtiruvchi bog'lovchilari	Bog'lovchi ergash gap tarkibida. <i>(Erg. b.)</i> 	Ergash gap bosh gapda ifodalangan mazmunning shartini izohlaydi	1. <i>Agar boshingga qilich ketsa ham, to'g'ri gapir.</i> 2. <i>Dilda e'tiqod butun bo'lsa, also naslimiz yo'qolmagay.</i>

**Ko'makchili qurilmalar yordamida
ergashgan qo'shma gaplar**

Bog'lovchi vositalar	Qo'llanish o'rni va qolipi	Ergash gap orqali izohlana-digan mazmun	Misollar
<i>Shuning uc- kun, shu sababli, shu tufayli</i> kabi ko'makchili qu- rilmalar	Ko'makchili qurilma bosh gap tarkibida. ○ —————> □ <i>ko'm. qur.</i>	Ergash gap bosh gapda ifo- dalangan maz- munning sababi- ni izohlaydi	<i>O'zimiz juda cho'llab ketgan edik, shuning uchun kechidik.</i>


Deb so'zi yordamida ergashgan qo'shma gaplar

Bog'lovchi vosita	Qo'llanish o'rni va qolipi	Ergash gap orqali izohlana-digan mazmun	Misollar
<i>Deb so'- zi</i>	<i>Deb so'zi</i> er- gash gap tarki- bida. ○ —————> □ <i>deb,</i>	Ergash gap (kesimi III shaxs buyruq maylidagi fe'l) bosh gapda ifodalangan maz- munning sababini izohlaydi.	1. <i>Shu mo'jaz uyim- da yonsin deb chir- oq. Ne aziz zotlarga yondashdim gohi.</i> 2. <i>Yovlar yakson bo'lsin deb, yigitlar jang boshladi.</i>


Shart mayli shakli vositasida ergashgan qo'shma gaplar

Bog'lovchi vosita	Qo'llanish o'rni va qolipi	Ergash gap orqali izohlana-digan mazmun	Misollar
<i>Fe'lning shart mayli shak- li qo'shim- chasi</i>	<i>-sa</i> shart mayli shakli er- gash gap tarki- bida. ○ —————> □ <i>-sa,</i>	Ergash gap bosh gapda ifo- dalangan maz- munning yuzaga chiqish shartini, paytini bildiradi	1. <i>Yerga mehring- ni ber_{sa}ng, u sen- ga rizq beradi, seni to'ydiradi.</i> 2. <i>Qaldirg'och pastlab uch_{sa} yo- g'ingarchilik bo'- ladi.</i>

Ko'rsatish olmoshili ergashgan qo'shma gaplar


Bog'lovchi vosita	Qo'llanish o'rni va qolipi	Ergash gap orqali izohlana-digan mazmun	Misollar
<i>-ki</i> yuklamasi	<i>-ki</i> yuklamasi bosh gap tarkibida. 	Ergash gap bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshi ma'nosini izohlab keladi	1. <i>Shunday odamlar borki, ular bilan gaplashib bahara olasan.</i> 2. <i>Shunu bilingki, hech bir yangilik hexosiyat bo'lmaydi.</i>

Nisbiy so'zli ergashgan qo'shma gaplar



Bog'lovchi vositalar	Qo'llanish o'rni va qolipi	Ergash gap orqali izohlana-digan mazmun	Misollar
Nisbiy so'zlar: so'roq olmoshiko'rsatish olmoshi	So'roq olmoshlari ergash gap (kesimi shart maylidagi fe'l) tarkibida, ko'rsatish olmoshlari bosh gap tarkibida. <i>So'r. ol. ko'r. ol.</i> 	Ergash gap bosh gap tarkibidagi biror gap bo'lagi vazifasida kelgan ko'rsatish olmoshi ma'nosini izohlab keladi	1. <i>Kimki o'zining yaxshi ishidan quvonsa, yomon ishidan xafa bo'lsa, demak, u haqiqiy mo'mindir.</i> 2. <i>Qayerda ahillik bo'lsa, o'sha yerda yutuq bor.</i>

ERGASH GAP BOSH GAPDAGI QAYSI
BO'LAKNI IZOHLAB KELISHIGA KO'RA
ERGASHGAN QO'SHMA GAPLAR

Kesim ergash gapli qo'shma gaplar



Bog'lovchi vositasi	Qo'llanish o'ri va qolipi	Ergash gap orqali izohlana-digan bo'lak	Misollar
-ki yuklamasi	-ki yuklamasi bosh gapning kesimi vazifa-sida qo'llangan ko'rsatish olmoshi tarkibida. 	Ergash gap bosh gap tarki-bida kesim vazifa-sida qo'llangan ko'rsatish olmo-shi ma'nosini izohlab keladi	1. <i>Endi sizlarga muborak topshiriq shuki, har biringiz alohida-alohida ketasiz.</i> 2. <i>Toleyim shulki, jahonda bir guliston tanladim.</i>

Ega ergash gapli qo'shma gaplar

Bog'lovchi vositalari	Qo'llanish o'ri va qolipi	Ergash gap orqali izohlanadigan bo'lak	Misollar
Nisbiy so'zlar: so'roq olmoshi - ko'rsatish olmoshi	So'roq olmoshi ergash gap tarki-bida, ko'rsatish olmoshi bosh gap tarkibida. Ba'zan ko'rsatish olmoshi qo'llanmasligi mumkin <i>So'roq ol. ko'rsatish ol.</i> 	Ergash gap bosh gapda ega vazifasi-da qo'llangan ko'rsatish olmo-shi ma'nosini izohlaydi. Ba'zan ko'rsatish olmoshi qo'llanmaydi	1. <i>Kimkirostgo'y, samimiy bo'lsa, u el o'rtasida qadr topadi.</i> 2. <i>Har kimki vajo qilsa, vajo topqusidir.</i>
-ki yuklamasi	-ki yuklamasi bosh gap tarkibida. 	Ergash gap bosh gapdagi eganing ma'nosini izohlaydi	<i>Shu narsa qiziqki, uyquda ham miya o'z faoliyatini to'xtatmaydi.</i>

Hol ergash gapli qo'shma gaplar

Bog'lovchi vositalari	Qo'llanish o'рни va qolipi	Ergash gap orqali izohlanadigan bo'lak	Misollar
<p>N i s b i y so'zlar: <i>so'roq olmoshi – ko'rsatish olmoshi</i></p>	<p>So'roq olmoshi ergash gap tarkibida, ko'rsatish olmoshi bosh gap tarkibida.</p> <p><i>So'r. ol. ko'r. ol.</i></p> 	<p>Ergash gap <i>bosh gapdagi hol vazifasida qo'llangan ko'rsatish olmoshi</i> ma'nosini izohlaydi</p>	<p>1. <i>Oqsoqol qayerda bo'lsa, o'sha joyda ish tartibda borardi.</i> 2. <i>Tog'asi qancha qizishsa, Oygiz o'zini shuncha og'irlikka soladi.</i></p>
<p>S a b a b , m a q s a d , q i y o s l a s h - c h o g ' i s h t i r u v bog'lovchilari</p>	<p>Ergashtiruvchi bog'lovchi ergash gap boshida.</p> 	<p>Ergash gap <i>bosh gapdagi holning ma'nosini</i> izohlaydi</p>	<p><i>Oyna opa xatni oxirigacha o'qiy olmadi, chunki hovlining eshigini kimdir taqillata boshladi.</i></p>
<p>Shart ergashtiruvchi bog'lovchilari</p>	<p>Ergashtiruvchi bog'lovchi ergash gap tarkibida. Shart bog'lovchilari qo'llanmasa ham, shart mayli shakli qo'shma gap qismlarini bog'layveradi.</p> <p><i>(Erg. b.)</i></p> 	<p>Ergash gap <i>bosh gapdagi holning ma'nosini</i> izohlaydi</p>	<p>1. <i>Agar siz, haqiqatan, yersiz bo'lsangiz, tez kun ichida yer sizniki bo'ladi.</i> 2. <i>(Agar) Boshingga tashvish tushmasa, qaytib kelmasding.</i></p>
<p>Deh so'zi</p>	<p>Deh so'zi ergash gap tarkibida.</p> 	<p>Ergash gap <i>bosh gapdagi holning ma'nosini</i> izohlaydi</p>	<p><i>Sizni qo'rqib ketmasin deb, kechqurun bezovta qilmadik.</i></p>



Hog'lovchi vositalari	Qo'llanish o'rnini va qolipi	Ergash gap orqali izohlanadigan bo'lak	Misollar
shart mayli shakli	-sa shart mayli shakli ergash gap tarkibida. 	Ergash gap bosh gapdagi holning ma'nosini izohlaydi	<i>Dutor chalib o'tirsam, tori uzilib ketdi.</i>
shuning uchun, shu sababli, shu tayoqli kabi ko'makchili qurilmalar	Ko'makchili qurilma bosh gap tarkibida. 	Ergash gap bosh gapda hol vazifasidagi ko'makchili qurilmaning ma'nosini izohlaydi	<i>Bizning turmushimiz unga yoqmadimi, shuning uchun men rozi bo'lmayman.</i>

Hol ergash gapli qo'shma gaplarning ma'no turlari


Ma'no turlari	Ergash gapning ma'nosi	Misollar
Ravish ergash gaplar	Bosh gapda ifodalangan mazmunning qay vaziyatda, qay holda yuzaga kelishini bildiradi	<i>Naimiyning biror ishi o'ngidan kelmasdan, biror maqsadi yuzaga chiqmasdan, umri bekorga o'tib ketdi.</i>
Miqdor-daraja ergash gaplar	Bosh gapda ifodalangan mazmunning darajasini, miqdorini bildiradi	<i>Mumis qanday mayin qiz bo'lsa, uning ashulasi ham shunday mayin edi.</i>
Qiyoslash-chog'ishtirish ergash gaplar	Bosh gapda ifodalangan mazmun chog'ishtiriladi yoki o'xshatiladi	<i>Qo'ydek bo'lib ming yil yashaguncha, sherday bo'lib bir kun yashamoq yaxshi.</i>
Payt ergash gaplar	Bosh gapda ifodalangan mazmunning yuzaga kelish paytini bildiradi	<i>Onaxon gap boshlaganda, shovqin yana tindi.</i>
O'rin ergash gaplar	Bosh gapda ifodalangan mazmunning yuzaga kelish o'rnini bildiradi	<i>Qayerda o'qishga talab ko'paysa, u yerda yangi maktab solish hech gap emas.</i>


Ma'no turlari	Ergash gapning ma'nosi	Misollar
Sabab ergash gaplar	Bosh gapda ifodalangan mazmunning yuzaga kelish sababini bildiradi	<i>Shoshish kerak emas, chunki bu yil toshqin xavfi yo'q.</i>
Maqsad ergash gaplar	Bosh gapda ifodalangan mazmunning yuzaga kelish maqsadini bildiradi	<i>Zora xo'jayinning ko'ngli bir oz yozilsa deb, mehmon gaplashadi, hasratlashadi.</i>
Shart ergash gaplar	Bosh gapda ifodalangan mazmunning yuzaga kelish shartini bildiradi	<i>Istasang, shu soatning o'zida yuguramiz.</i>
To'siqsiz ergash gaplar	Bosh gapda ifodalangan mazmunning yuzaga kelishida to'siq bo'lgan yoki to'siq bo'lmagan shartni bildiradi	<i>Undagi bu o'zgarishdan Rahmat xabarsiz bo'lsa ham, ammo Hamid uni yer ostidan ta'qib etar edi.</i>
Natija ergah gaplar	Bosh gapda ifodalangan mazmundan yuzaga kelgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan natijani bildiradi	1. <i>Shunday qattiq uribmanki, o'zimning ham ko'zim tinib ketdi.</i> 2. <i>Azimboy shunday zulm o'tkazdiki, oqibatda xalqning sabr kosasi to'ldi.</i>

To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplar



Bog'lovchi vositalari	Qo'llanish o'rni va qolipi	Ergash gap orqali izohlanadigan bo'lak	Misollar
Nisbiy so'zlar: so'roq olmoshi - ko'rsatish olmoshi	So'roq olmoshi ergash gap tarkibida, ko'rsatish olmoshi bosh gap tarkibida. Ba'zan bosh gapdagi ko'rsatish olmoshi qo'llanmasligi mumkin. <i>So'r. ol. ko'r. ol.</i> 	Ergash gap bosh gapdagi to'ldiruvchi vazifasida qo'llangan ko'rsatish olmoshi ma'nosini izohlaydi	1. <i>Qalbingiz nimani buyursa, siz menga shuni buyuring.</i> 2. <i>Kimdan so'ramang, unga fikr berishga to'g'ri keladi.</i>
-ki yuklamasi	-ki yuklamasi bosh gap tarkibida. 	Ergash gap bosh gapning to'ldiruvchisi ma'nosini izohlaydi	<i>Shuni bilib qo'yginki, sen suyangan tog'ning tagi nurab qolgan.</i>

Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar

Bog'lovchi vositalari	Qo'llanish o'rni va qolipi	Ergash gap orqali izohlanadigan bo'lak	Misollar
Nisbiy so'zlar: so'roq olmoshi - ko'rsatish olmoshi	So'roq olmoshi ergash gap tarkibida, ko'rsatish olmoshi bosh gap tarkibida. Ba'zan bosh gapdagi ko'rsatish olmoshi qo'llanmasligi mumkin. <i>So'r. ol. ko'r. ol.</i> 	Ergash gap bosh gapdagi aniqlovchi vazifasida qo'llangan ko'rsatish olmoshi ma'nosini izohlaydi	1. <i>Katta arava qaysi yo'ldan yursa, kichik arava ham shu yo'ldan yuradi.</i> 2. <i>Kim yalqov bo'lsa, uning qo'lida obod yer ham xarob bo'ladi.</i>

Bog'lovchi vositalari	Qo'llanish o'rni va qolipi	Ergash gap orqali izohlanadigan bo'lak	Misollar
<i>-ki</i> yuklama-si	<i>-ki</i> yuklamasi bosh gap tarkibida. 	Ergash gap bosh gapning aniqlovchisi ma'nosini izohlaydi	<i>Men senga shunday narsalar keltirayki, ularni tushingda ham ko'rmagansan.</i>

ERGASHGAN QO'SHMA GAPLARDA QISMLARINING O'RNI

Bog'lovchi vositalar	Bosh va ergash gapning o'rni	Ergashgan qo'shma gaplar
1) <i>-ki</i> yuklamasi; 2) sabab (<i>chunki, negaki</i>), maqsad (<i>toki</i>), qiyoslashchog'ishtiruv (<i>go'yo, go'yoki</i>) ergashtiruvchi bog'lovchilari	<i>Bosh gap</i> ergash gapdan <i>oldin keladi</i> . 	1) kesim ergash gapli; 2) ega ergash gapli; 3) hol ergash gapli 4) to'ldiruvchi ergash gapli; 5) aniqlovchi ergash gapli
1) <i>-sa</i> shart mayli; 2) shart (<i>agar, agarda, ba-sharti, garchi</i>) ergashtiruvchi bog'lovchilari <i>-sa</i> shart mayli shakli bilan birga; 3) ko'makchili qurilmalar (<i>shuning uchun, shu tufayli, shu sababli</i>) <i>-sa</i> shart mayli shakli bilan birga; 4) nisbiy so'zlar (<i>so'roq olmoshi</i> (ergash gap tarkibida) – <i>ko'rsatish olmoshi</i> (bosh gap tarkibida)) <i>-sa</i> shart mayli shakli bilan birga; 5) <i>deb</i> so'zi	<i>Ergash gap</i> bosh gapdan <i>oldin keladi</i> . Bunda ergash gapning kesimi, asosan, <i>-sa</i> shart mayli shaklida bo'ladi. 	1) ega ergash gapli; 2) hol ergash gapli; 3) to'ldiruvchi ergash gapli; 4) aniqlovchi ergash gapli




BOG'LOVCHISIZ QO'SHMA GAPLAR

Qismlarining mazmun munosabatiga ko'ra turlari	Qolipi va ishlatiladigan tinish belgisi	Misollar
Poyt munosabatli bog'lovchisiz qo'shma gaplar	□ — □	1. <i>Avval ular bizga yetib olishsin keyin birga jo'naymiz.</i> 2. <i>Bulbul sayrar chumchuq chiqirar.</i>
O'zlashtirish munosabatli bog'lovchisiz qo'shma gaplar	□ — □	1. <i>Yaxshi o'g'il — el obro'si, yaxshi qiz — uy obro'si.</i> 2. <i>Suv keldi — nur keldi.</i>
Tayinlash munosabatli bog'lovchisiz qo'shma gaplar	□ — □	1. <i>Ehtimol, sizda shunday hol-lar bo'lgandir: tun yarmidan og'ganda birdan uyg'onib ketasiz.</i> 2. <i>Qarorimiz shu: hasharda hammamiz qatnashamiz.</i>
Ziddlash munosabatli bog'lovchisiz qo'shma gaplar	□ — □	1. <i>Yulduzlarni xayolida har xil rangga bo'yab ko'rdi — yulduzlar o'z rangida xira miltirab turaverdi.</i> 2. <i>Havo bulut bo'ldi — yomg'ir yog'madi.</i>
Siltatish munosabatli bog'lovchisiz qo'shma gaplar	□ — □	1. <i>Dangasa bo'lmang — baxtsiz bo'lmaysiz.</i> 2. <i>Yurt tinch — sen tinch.</i>
Siyosiy munosabatli bog'lovchisiz qo'shma gaplar	□ — □	1. <i>Bitta beretka olib yuboring — shaharda qizlarning hammasiga beretka kiyish rasm bo'lib ketgan.</i> 2. <i>Siddiqjon to'xtadi — orqasidan kimdir kelayotgan edi.</i>
Saratilgan munosabatli bog'lovchisiz qo'shma gaplar	□ — □	1. <i>O'tirganlar qistalong qildirishulachi torni qo'lga oldi.</i> 2. <i>Haydovchi tormoz berdi — mashina sirpanib ketdi.</i>

QO'SHMA GAP TURLARINING MA'NODOSHLIGI

Ma'nodoshlik	Qo'shma gap turlari	Misollar
Zidlik munosabatida	Bog'lovchisiz qo'shma gap	<i>Yurgan daryo – o'tirgan bo'ya.</i>
	Bog'langan qo'shma gap	<i>Yurgan daryo_{–yiti} o'tirgan bo'ya.</i>
	Ergashgan qo'shma gap	<i>Yurgan daryo bo'lsa, o'tirgan boya.</i>
Sabab munosabatida	Bog'lovchisiz qo'shma gap	<i>Sir ko'p olam qa'rida, Mo'jizaga kon olam.</i>
	Bog'langan qo'shma gap	<i>Olam qa'rida sir ko'p, chunki olam mo'jizaga kon.</i>
	Ergashgan qo'shma gap	<i>Olam qa'rida sir ko'p, shuning uchun olam mo'jizaga kon.</i>
Shart munosabatida	Bog'lovchisiz qo'shma gap	<i>Saxovatsiz kishi mevasiz daraxtdir, mevasiz daraxtni kesib yondirgin.</i>
	Bog'langan qo'shma gap	<i>Saxovatsiz kishi mevasiz daraxtdir, mevasiz daraxtni bo'lsa kesib yondirgin.</i>
	Ergashgan qo'shma gap	<i>Saxovatsiz kishi mevasiz daraxtdir, shuning uchun mevasiz daraxtni kesib yondirgin.</i>
Payt munosabatida	Bog'lovchisiz qo'shma gap	<i>Bir kishi ariq ochadi, ming kishi suv ichadi.</i>
	Bog'langan qo'shma gap	<i>Bir kishi ariq ochadi va ming kishi suv ichadi.</i>
	Ergashgan qo'shma gap	<i>Bir kishi ariq ochsa, ming kishi suv ichadi.</i>

MURAKKAB QO'SHMA GAPLAR

Turlari	Xususiyati	Misollar va qolipi
Bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gaplar	Ikki va undan ortiq ergash gap bitta bosh gapga tobelanib keladi	<p><i>Xalqimiz shuni istaydiki, yurtimiz tinch bo'lsin, turmushimiz farovon bo'lsin, mustaqilligimiz barqaror bo'lsin.</i></p> 
Bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gaplar	Ikki va undan ortiq bosh gapga bitta ergash gap tobelanib keladi	<p><i>Butun dunyoga ma'lumki, siz ham shuni unutmangki, Orolni saqlab qolish ham-mamimizning burchimizdir.</i></p> 
Aralash murakkab qo'shma gaplar	Tarkibi kamida ikki turdagi qo'shma gap (bog'langan, ergashgan yoki bog'lovchisiz)lardan iborat bo'ladi	<p><i>Akang armiyadan kelsa, issiqxonani ishga solamiz, lekin sen akangga yordamchilik qilasan.</i></p> 
Qismlari uyushgan murakkab qo'shma gaplar	Qismlari bir turdagi uch va undan ortiq gaplardan tahlil topadi. Odatda, bunday gaplarning kesimi bir xil shakllangan bo'ladi	<p><i>Yer shivirlaydi, yulduz jivirlaydi, bahordan darak keladi.</i></p> 

KO'CHIRMA GAPLI QO'SHMA GAPLAR

Izohi	Misollar
Muallif gapi va ko'chirma gapdan tashkil topgan qo'shma gap ko'chirma gapli qo'shma gap hisoblanadi	1. <i>Bir kishi ko'p gapirdi va: «Ko'p so'zladim. Endi so'zlashni has qilay», – dedi.</i> 2. <i>Hakim unga e'tiroz bildirdi: «Yo'q, sen hali so'z so'zlaganing yo'q!»</i>

Ko'chirma gapli qo'shma gapning tuzilishi

<i>Qiz ajablanib qaradi: «Non yerga tushsa uvol bo'ladi. Katta buvim aytganlar». Qolipi: M: «K».</i>	
Muallif gapi (M yoki m)	Ko'chirma gap (K yoki k)
So'zlovchining o'zi aytgan gap: <i>Qiz ajablanib qaradi.</i>	So'zlovchi tomonidan bironing aynan keltirilgan gapi: <i>Non yerga tushsa uvol bo'ladi. Katta buvim aytganlar.</i>

Qo'shma gapda ko'chirma gapning o'rni

Ko'chirma gapning o'rni	Tinish belgisi va qolipi	Misollar
Muallif gapidan so'ng	1. M: «K». 2. M: «K?» 3. M: «K!»	1. <i>Dedi: «Bu ishda yo'q sendin yiroq qatl». Dedi: «Bu so'zlardin yaxshiroq qatl».</i> 2. <i>Payg'ambardan (s. a. v.) bir kishi so'rabdi: «Ey Rasululloh, men kimni hurmat qilay?»</i> 3. <i>Kampir oyoq ostida o'sgan o'tdan yuli, kiyik tomon yura boshladi: «Ma. jonivor. ma!»</i>
Muallif gapining o'rtasida	1. M: «K», – m. 2. M: «K?» – m. 3. M: «K!» – m.	1. <i>Mahmud Koshg'ariy: «Botir jangda, donomajlisda sinaladi», – deb aytgandi.</i> 2. <i>U: «Seni ilgari ko'rmagan edim-ku, qayerlik-san?» – deb so'radi.</i> 3. <i>Onam: «Sizlar doimo ahil bo'linglar!» – deb uqtirardilar.</i>

Ko'chirma gapning o'rni	Tinish belgisi va qolipi	Misollar
Muallif gapidan oldin	1. «K», – m. 2. «K?» – m. 3. «K!» – m.	1. «Rahmat, ona qizim», – dedi muharrir mehri tovlanib. 2. «Imtihonlar qachon boshlanadi?» – deb so'radi Akbar. 3. «Baxtingiz hech qachon zavol topmasin!» – dedi otasi.
Muallif gapining ikki tomonida	«K, – m, – k».	«So'z san'atining qudrati shundaki, – deydi Asqad Muxtor, – u hayotda aynan bo'lmagan narsalarga, hodisalarga jon kiritib yuboradi.

KO'CHIRMA VA O'ZLASHTIRMA GAPLAR

Ko'chirma gap	O'zlashtirma gapga aylantirish vositasi	O'zlashtirma gap
1. «Yoshlarimiz istiqboli porloq», – dedi muallimimiz. 2. «Qizim, umring tezroq bo'lsin», – dedi qizning otasi.	Darak gap mazmunli ko'chirmaning kesimi tushum keli-shigidagi sifatdosh yo harakat nomiga, egasi qaratqich aniqlovchi yo vositali to'ldiruv-chiga aylanadi	1. Ustozimiz yoshlari miz istiqboli porloqli-gini aytdi. 2. Yo'lovchi qizga umri uzoq bo'lishini tiladi.
1. «Aytadigan gaping shuni?» – so'radi Ab-bas. 2. Abas: «Tezroq uyga bor!» – deb baqirdi.	So'roq, buyruq mazmunli ko'chirma-lar darak gapga ayla-nadi	1. Abror undan ayta-digan gapi nimaligini so'radi. 2. Akam tezroq uyga borishimni buyurdi
1. «To'g'ri, or-nomus uchun kurash bolala-likdan boshlanadi», – deydi donolar. 2. «Lobar, menga yor-damlashgin», – dedi onasi.	Ko'chirma gapdagi kirish so'z, undovlar tushib qoldiriladi, undalmalar chiqish keli-shigidagi to'ldiruv-chiga aylanadi	1. Donolar or-nomus uchun kurash bolalik dan boshlanishini ayt-ganlar. 2. Onasi Lobardan unga yordamlashishini so'radi.

USLUBIYAT (STILISTIKA)

NUTQ USLUBLARI

Turlari	Xususiyati
So'zlashuv	Til birliklarini tanlash va qo'llashda nisbatan erkin uslubdir. Bu uslubda oila, ko'cha-ko'yda o'zaro fikr almashiladi. Nutqda adabiy so'zlashuv bilan oddiy so'zlashuv uslubi bir-biridan farqlanadi. Adabiy so'zlashuvda adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilinsa, oddiy so'zlashuvda sheva va boshqa til birliklaridan erkin foydalaniladi
Publitsistik	Bu uslubda ijtimoiy hayotning turli masalalari ommaviy axborot vositalari va nashrlar orqali aks ettiriladi. U yozma va og'zaki ko'rinishga ega bo'lib, uning tilida ham yozma, ham badiiy nutqqa xos xususiyatlar uyg'unlashadi
Badiiy	Biror voqelikni badiiy tasvir vositalari orqali obrazli ifodalab, tinglovchiga estetik ta'sir etushga xizmat qiladi. Bu uslub keng qamrovli bo'lib, unda barcha uslublarga xos til imkoniyatlaridan foydalaniladi
Ilmiy	Voqea-hodisalar haqida aniq, dalillarga asoslangan, izchil ma'lumotlar beruvchi nutq uslubi bo'lib, unda har sohaning maxsus atamaları ishtirokida majhul va murakkab qurilishli gaplar qo'llaniladi
Rasmiy	Jamiyatdagi ijtimoiy-huquqiy munosabatlar, davlat va davlatlararo rasmiy, siyosiy-ijtimoiy, madaniy aloqalar uchun xizmat qiladi. Bu uslubdagi hujjatlar tilida aniqlik, ixchamlik, nutqiy qoliblar, atamalar, tayor sintaktik qurilmalar faol qo'llaniladi

MATN TURLARI

Turlari	Tuzilishi	Qo'llanilishi
Dialogli matn	<p>Dialogli matn ikki va undan ortiq suhbatdoshning turli mazmundagi fikr-axborot almashinuvini ifodalaydi. Bunday matnda so'roq olmoshlari, muomala odobiga oid so'z-iboralar, yuklama, undov va kirish so'zlar; sodda, to'liqsiz va so'z-gaplar keng qo'llaniladi</p>	<p>Bunday matnlar so'zlashuv va badiiy uslubga xos bo'lib, savol-javob, taklif, xabar-ma'lumot, da'vat, iltimos kabi muloqot mazmunini ifodalashga xizmat qiladi</p>
Tavsifiy (monologli) matn	<p>Tavsifiy matnda so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan ifodalangan voqea-hodisa, narsa-shaxs tasviri, tavsifi yoki xabar, ma'lumot bayoni beriladi. Matnda belgi-xususiyat ifodalovchi so'zlar, atama va modal so'zlar, fe'lining xoslangan shakllari, uyushiq hamda ajratilgan gap bo'laklari, atov va qo'shma gaplar faol ishlatiladi</p>	<p>Tavsifiy matnlar ilmiy, publitsistik, rasmiy-idoraviy va badiiy uslubda qo'llanadi. Ma'lum voqea-hodisa, narsa-shaxslarga oid fikr-mulohaza bildirish, ularni dalillar yoki badiiy vositalar bilan ta'riflash, izohlash, asoslashga xizmat qiladi</p>

TINISH BELGILARINING ISHLATLISHI (PUNKTUATSIYA)

TINISH BELGILARINING TURLARI

Tinisch belgilarining nomi	Nuqta	Soʻroq	Undov	Koʻp nuqta	Ikki nuqta	Vergul	Nuqtali vergul	Tire	Qavs	Qoʻshirmoq
Tinisch belgilarining yozuvdagi ifodasi	.	?	!	...	::	,	;	-	()	«»

TINISH BELGILARINING ISHLATILISHI

Nuqta

Ishlatilishi	Oʻrni	Misollar
Darak gaplarda	Oxirida	<i>Havo sof va salqin.</i>
Buyruq gaplarda	Oxirida	<i>Onangning aytganlariga quloq sol.</i>
Bosh harflar yoki boʻgʻinlar bilan koʻrsatilgan shartli qisqartmalarda	Har bir qisqartma dan soʻng	<i>M. Ism. (Mirzakalon Ismoilij), sh. k. (shu kabilar), va b. (va boshqalar), va h. k. (va hokazo)</i>
Raqamlar yoki harflar bilan ifodalangan tartib soʻzlarda	Tartib soʻzlardan soʻng	<i>Mustaqil soʻz turkumlari: 1. Feʼl. 2. Ot. 3. Sifat. 4. Son. 5. Ravish. 6. Olmosh.</i>
Oy, kun, yil raqamlar bilan yozilganda	Raqamlardan soʻng	<i>01. 12. 1986- yil</i>
Soʻroq maʼnosi ergash gap orqali ifodalangan ergashgan qoʻshma gaplarda	Ergashgan qoʻshma gap oxirida	<i>Men bilmadim, u uyga qachon qaytar ekan.</i>

Birinchi qismi ko'p nuqta, undov, so'roq belgisi bilan tugagan ko'chirma gap o'rtasida muallif gapi kelganda	M u a l - l i f g a p i d a n s o ' n g	«Ishning ko'zini bil! – maslahat berdi u – Dala ham obod, choyxonana ham...»
--	---	--

So'roq

Ishlatilishi	O'rni	Misollar
Sof so'roq gaplarda	So'roq gap oxirida	<i>Jaloliddin Manguberdi kim bo'lgan?</i>
Taajjub, taxmin, ahama, buyruq ma'nolari ifodalangan so'roq gaplarda	So'roq gap oxirida	<i>Tezroq yurmaysanmi.</i>
Ritorik so'roq gaplarda	So'roq gap oxirida	<i>Bolani kim sevmaydi?!</i>
Matn tahririda	Noaniqlik, gumon, anglashilmovchilik bo'lgan jumla yoki so'zga	Ovqatga tajavvuz (?) qilindandan so'ng, mehmonlar qo'llarini dasturxonga (?) artdilar.
So'roq ma'nosida ishlatilgan so'zlar ish-tirok etgan gaplarda	So'roq so'z-lardan keyin	<i>Ega kim? nima? qayer? so'roqlariga javob bo'ladi.</i>

Undov

Ishlatilishi	O'rni	Misollar
Undov gaplarda	Undov gap oxirida	<i>Oh, naqadar go'zal hayot!</i>
His-hayajon bilan aytilgan buyruq gaplarda	Gap oxirida	<i>Ket! Yo'qol! Mal'un, kaso-fat!</i>
His-hayajonga ega bo'lgan undalmalarda	Undalmadan so'ng	<i>Yo'lechiboy! Og'ang o'lsin! Voy qadrdon jigirim!</i>

Kuchli his-hayajon bilan aytilgan soʻz-gaplarda	Soʻz gaplar oxirida	<i>Balli! Ofarin!</i>
Taajjub, tashakkur, ragʻbatlantirish, hayratlanish, zavqlanish, shodlik, mamnunlik, achinish, gʻazab, norozilik, nafrat, qoʻrqish maʼnolari kuchli his-hayajon bilan aytilgan gaplarda	Gap oxirida	<i>Tirik ekansan! Xayriyat!</i>
His-hayajon bilan aytilgan undov soʻzlarda	Undov soʻzlardan soʻng	<i>Voy-voy!.. Hali andishani ham bilasizmi?</i>

Koʻp nuqta

Ishlatilishi	Oʻrni	Misollar
Tugallanmagan fikr ifodalangan gaplarda	Gap oxirida	«Agar sevsang...» «Agar chindan ham sevsang», – dedi yigit uning soʻzini.
Berilishi mumkin boʻlmagan soʻz tushirib qoldirilgan yozma nutqda	Berilishi mumkin boʻlmagan soʻz oʻrnida	<i>Qani endi... boʻgʻa boshlasam!</i>
Gapda soʻzlovchining oʻylanish, mulohaza qilish oʻrinlari boʻlganda	Asosan, gap oxirida	<i>Uydagi ishlarining hammasini oʻzi qilsa, oʻzi tartibga solib, oʻzi bezasa...</i>
Kuchli his-hayajonni bildirgan soʻzlarda	Kuchli his-hayajon bildirgan soʻzdan keyin	<i>Suv... Oh, suv bersalaring-chi...</i>
Dialoglarda savol javobsiz qoldirilganda	Suhbatdoshning javobi oʻrnida	– <i>Qayerdan kelding?</i> – ...

Ikki nuqta

Ishlatilishi	O'ri	Misollar
Keyingi qismi oldingi qismining mazmunini izohlagan bog'lovchisiz qo'shma gaplarda	Izohlanadigan qismdan keyin, izohlayotgan qismdan oldin	<i>Qosim mirob aytardi: agar qo'rqmasang, eng odamxo'r daryo hech nima qilolmaydi – suvning o'zi qirg'oqqa chiqarib qo'yadi.</i>
Oldingi qismining kesimi <i>qaramoq, diqqat qilmoq, ta'kid-ladi, yakunlamoq</i> kabi fe'llar bilan ifodalangan bog'lovchisiz qo'shma gaplarda	Oldingi qism-dan keyin	<i>Yakun qildim: ko'z yosh-lariga ikki bois bir ekan asli.</i>
Keyingi qismi oldingi qismining xulosasini, natijasini ifodalagan bog'lovchisiz qo'shma gaplarda	Oldingi qism-dan keyin, keyingi qismdan oldin	<i>U ketmon uradi: yuziga, ko'ziga suyuq loy sachray-di.</i>
Umumlashtiruvchi ko'z uyushiq bo'lak-lardan oldin kelgan gaplarda	Umumlashti-ruvchi so'zdan ke-yin	<i>Akbarning do'stlari: Beh-zod, Alisher, Bobomurod qaytib kelishdi.</i>
Muallif gapi ko'chirma gapdan oldin kelgan hollarda	Muallif gapi-dan keyin	<i>Donolar deydi: «Vaqtning ketdi – baxting ketdi».</i>
<i>Misol, masalan, shunonchi, qaror, vaqf, mavzu, maqsad, sabab, sababi</i> kabi so'zlarning ma'nosi izohlangan gaplarda	Ma'nosi izohla-nayotgan so'zdan keyin	<i>Mavzu: «Islamlarning munosabat shakllari».</i>

Vergul

Ishlatilishi	O'rni	Misollar
Bog'lovchi vositalar bilan birikmagan uyushiq bo'lakli gaplarda	Uyushib kelgan so'zlar orasida	<i>Nilufar atirgul, lola, binafshani yoqtiradi.</i>
Undalmali gaplarda	Undalmadan keyin	<i>Salim, kitobingni berib tur.</i>
Kiritmalar ishtirok etgan gaplarda	Kiritmalar gap boshida kelganda, ulardan keyin, gap o'rtasida ikki tomonidan, gap oxirida kelganda, kiritmalardan oldin	<i>«Ko'nglingizga kelmasin-ku, izvoshi-ga eshak qo'shib bo'lmaydi».</i>
Undov so'zli gaplarda	Undov so'z gap boshida kelsa, undan keyin, gap o'rtasida kelsa, ikki tomonidan, gap oxirida undov so'zdan oldin. Agar undov so'zdan keyin undalma bo'lsa, vergul faqat undal-madan keyin qo'yiladi	<i>Baribir kechikdim, eh!</i>
Takrorlangan so'zlar ishtirok etgan gaplarda	Takrorlangan so'zlar orasida	<i>Bas, bas! Etar!</i>
Ajratilgan bo'lakli gaplarda	Gap boshida kelsa, ajratilgan gapdan keyin, gap o'rtasida ikki tomonidan, gap oxirida kelsa, undan oldin	<i>Ustaning shogirdi, o'n to'rt yashar Yo'ldosh, deraza oldida o'tirardi.</i>
Qo'shma gaplarda (biriktiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gapdan tashqari)	Qo'shma gap qismlari orasida	<i>Nigora o'qidi. lekin yozmadi.</i>

Ko'chirma gapli qo'shma gaplarda	Muallif gapining o'rtasida yoki undan oldin kelgan, oxirida so'roq, undov, ko'p nuqta bo'lmagan ko'chirma gaplardan keyin. Ko'chirma gapning o'rtasida kelgan muallif gapidan keyin	– <i>To'g'ri, qoloqlan cho'loq yaxshi. – dedi qovog'ini solib Dilshod.</i>
Takror bog'lovchilar yordamida birikkan uyushiq bo'lakli va bo'g'langan qo'shma gaplarda	Takror bog'lovchilarning ikkinchi va undan keyingi qismlaridan oldin	<i>Tog'lar goh chap tomondu, goh o'ng tomonda paydo bo'lib qoladi.</i>

Nuqtali vergul

Ishlatilishi	O'rni	Misollar
Qismlari ma'no jihatdan bir-biriga yaqin bo'lmagan bog'lovchisiz qo'shma gaplarda	Qo'shma gap qismlari orasida	<i>Qalandarovning taklifi, shubhasiz, o'tmaydi; unda raisning obro'yi tushadi.</i>
O'z ichida vergul bo'lgan, ma'lum guruhlariga ajratiluvchi yoyiq murakkab uyushiq bo'lakli gaplarda	Guruhlarga ajratilgan uyushiq bo'laklar orasida	<i>Mehnat, ijod, odam sharafi; Dil yorug'i, hayot quvonchi – Hammasining asli, manbavi – Sen, Vatanim – tinchlik tayanchi.</i>
Raqam, harf yoki shartli belgilar bilan ajratilgan birikmalar yoki gaplar ishtirok etgan yozma nutqda	Qavs, raqam yoki harflar bilan ajratilgan birikmalar yoki gaplardan so'ng	<i>So'z birikmalari quyidagi turlarga ajratiladi: 1) Erkin birikmalar; 2) Turg'un birikmalar.</i>

Tire		
Ishlatilishi	O'rne	Misollar
Bog'lamasiz ot, olmosh, son va harakat nomi bilan ifodalangan ot kesim va ega bog'lamasiz bo'lishi ishtirok etgan gaplarda	Ega va ot kesim orasida. Bunda ot kesim kelishiklarsiz va bog'lamasiz bo'lishi kerak	<i>Xat – asil, sevishgan yurakning sasi.</i>
Umumlashtiruvchi so'zdan oldin kelgan uyushiq bo'lakli gaplarda	Umumlashtiruvchi so'zdan oldin	<i>Aziza, Nilufar va Mohira – a'lochi o'quvchilar</i>
Tarkibi keng bo'lgan yoki ichida verguli bo'lgan ajratilgan bo'lakli gaplarda	Ajratilgan bo'lak gap boshida kelganda undan keyin, o'rtasida kelganda ikki tomonida, oxirida kelsa, ajratilgan bo'lakdan oldin	<i>«Ularning hammasi – xoh yosh, xoh qari – firibgar, zolim».</i>
Zidlov, qiyoslashchog'ishtirish, shart, sabab munosabatlil bog'lovchisiz qo'shma gaplarda	Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasida	<i>Kechasi sovuq – kunduzi issiq</i>
Ko'chirma gapli qo'shma gaplarda	Ko'chirma gap muallif gapining o'rtasida kelganda ko'chirma gapning ikki tomonida, muallif gapidan oldin kelganda ko'chirma gapdan keyin. Muallif gapi ko'chirma gapning o'rtasida kelsa, muallif gapining ikki tomonida	<i>«Hamma gap mehnatda va tajribada», – dedi Mohinur.</i>
Dialogli gaplarda	Har bir so'zlovchining gapidan oldin	<i>– Ertaga kelasizmi? – Yoq</i>

Ikki atoqli otdan tuzilgan narsa-hodisa nomlari ishtirok etgan gaplarda	Bitta narsa-hodisa nomini atab kelgan atoqli otlar o'rasida	<i>Toshkent Samarqand poyezdiga chipta oldik.</i>
Raqam bilan ifodalangan «...dan ...gacha» grammatik shakllari qatnashgan gaplarda	Raqamlar o'rtasida «...dan ...-gacha» shakli o'rnida	<i>80-90- yillar (80- yildan 90- yilgacha); XX-XXI asrlar (XX asrdan XXI asrgacha)</i>
Nazmda	Sintaktik butunlik bo'linganda ular orasida	<i>Tushunchasi qop-qora bulut - Kabi borgan sari quyular.</i>
Badiiy adabiyotda	His-hayajon oshirib ko'rsatilishi kerak bo'lgan o'rinlarda	<i>Ko'zlarimni yummasman aslo - Daryo kabi uyg'oq o'tarman!</i>
Qo'shma gaplarda	Tushib qolgan bo'lak o'rnida	<i>Yaxshidan ot qolar, yomondan - dod.</i>

Qavs

Ishlatilishi	O'rni	Misollar
Kiritmalar ishtirok etgan gaplarda	Kiritmaning ikki tomonida	<i>Kampir paranjini boshga ilib, Nurini mashhur «Qo'ng'iroq» folbinga... (ha'zilar «rost folbin» ham deyishadi) sudradi.</i>
Sitata yoki misolning qayerdan olinganligini ko'rsatuvchi manbalar ishtirok etgan gaplarda	Manbani ko'rsatuvchi jumlaning ikki tomonida	<i>Endi qizlar charchashib, terlashib... tog'ning ustiga chiqib olishdi. («Gulnor pari»)</i>
Remarkalar berilgan gaplarda	Remarkalarning ikki tomonida	<i>Imon bilan barisiga qasam ichaman, Bu gaplar haq... Mana, o'laman. (O'ladi.</i>

Tushuntirish, izoh, uqtirish ma'nosidagi so'zlar, iboralar, gaplar keltirilgan matnda	Tushuntirish, izoh, uqtirish ma'nosidagi so'zlar, iboralar, gaplarning ikki tomonida	«So'g'ingan bo'lsang» yorning maktubi: «Javo qilma» qo'shiq.
---	--	--

Qo'shtirnoq

Ishlatilishi	O'ru	Misollar
Ko'chirma gapli qo'shma gaplarda	Ko'chirma gapni muallif gapidan ajratish uchun ko'chirma gapning ikki tomonida	«Ot o'rnini toy bosar, — deydi dono xalqimiz.
Ko'chma ma'noda, kinoya, kesatish, kamситish ma'nolarida qo'llangan so'zlar ish-tirok etgan gaplarda	Ko'chma ma'noda, kinoya, kesatish, kamситish ma'nolarida qo'llangan so'zlarning ikki tomonida	Bizni homiy lardan himoya qilg'il, Degan sharq xalqida pi-ching — duo bor.
Shartli nomlar ish-tirok etgan gaplarda	Shartli nomlarning ikki tomonida	Endi Zebi «Yor-yor»ni yolg'iz o'zi aytardi.
Mahsulot nomlari, muassasa, tashkilot va turli korxonalar nom-larida	Mahsulot nomlari, muassasa, tashkilot va turli korxonalar nom-larining ikki tomonida	Buni muallif «Xam-sa»ning bir necha o'rnida ochiq-oydin ta'kidlaydi.
Sinflar, buyruqlar, qarorlarning ayrim bandlariga qo'shib yoziladigan harflar, baho ballari ishtirok etgan gaplarda	Sinflar, buyruqlar, qarorlarning ayrim bandlariga qo'shib yoziladigan harflar, baho ballarining ikki tomonida	9- «A» sinf. 150- «A» sonli qaror. 20- mod-daning «B» bandi, «besh» yoki «5», «a'lo» kabi
Ichki monolog ish-tirok etgan gaplarda	Ichki monologning ikki tomonida	«Bugun buvim juda ham mehribon!» deb o'yladi ichida, sevin-ganidan uning oldiga tushib yuguradi.

A

Adabiy me'yor. Til birliklarining adabiy til qoida-talablariga mos holda, namunali tarzda qo'llanishini, tilning adabiyiligini ta'minlovchi vositalarni belgilovchi me'yor.

Aferezis (*yun.* aph-airexis). Oldingi so'zning so'nggi tovushi (yoki tovushlari) ta'sirida keyingi so'z boshidagi tovush (yoki tovushlar)ning tushishi. Masalan, *aytar edi > aytardikabi*.

Affiks (*lot.* affixus – birlashtirilgan, biriktirilgan). So'zga (leksemaga) zid qo'yiladigan (leksik ma'noga ega bo'lmagan), o'zi qo'shiladigan asosning lug'aviy yoki grammatik ma'nolarining shakllanishiga xizmat qiladigan morfema; qo'shimcha. Masalan, *ish-chi-lar-imiz-ni* kabi.

Affiksatsiya. Asosga qo'shimcha qo'shish, qo'shimcha yordamida so'z yoki shakl yasalishi: *so'roq (so'ra + -q)* – so'z yasalishi; *so'radi (so'ra + -di)* – shakl yasalishi.

Affiksoid (*lot.* affixus – birlashtirilgan, biriktirilgan, *yun.* eidos – tur). Qo'shimcha vazifasida qo'llanuvchi so'z (morfema): *ishxona, darsxona* kabi so'zlardagi *xona*.

Agglutinatsiya (*lot.* agglutinare – yopishtirmoq). 1. So'z yasaliş yoki shakl yasaliş asosi o'zgarmagan holda yangi so'z yoki so'z shakli hosil bo'lishi. Bunda har bir qo'shimcha ma'lum bir ma'no, vazifa bilan qatnashadi. Masalan, turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida yasama so'zlar va so'z shakllari asosga ma'lum izchillik bilan qo'shimchalar qo'shish orqali hosil qilinadi: *ter-im-chi-lar-i-miz-ga*.

2. Ikki so'z (asos)ning bir so'zga, bir so'z shakliga aylanishidan iborat morfologik jarayon. Masalan, *echkini emar > echki emar > echkemar*.

Akkomodatsiya (*lot.* accomodatio – muvofiqlashuv). Yonma-yon kelgan undosh va unli tovushlar talaffuzining bir-biriga uyg'unlashuvi. Masalan, *i, u* unilari *k, g* gundoshlari bilan yondosh kelganda, ularga moslashib, oldingi qator unli sifatida talaffuz etiladi: *kiyik, sigir, bugun, gul* Xuddi shu unililar chuqur til orqa *q, g'* undoshlari bilan yonma-yon kelganda, ularga moslashib, ma'lum darajada til orqa unlisi kabi talaffuz etiladi: *qi-
im, quyuyq, g'ujum, g'ijim* va b.

Allegoriya (*lot.* allegoria – o‘zgacha ifodalash, boshqacha gapirish; majoz). Mavhum tushuncha yoki g‘oyalarni aniq obraz orqali ifodalash. Masalan, *ho‘ri* so‘zining yomonlik (yovuzlik), ochko‘zlik ifodasi uchun, *tulki* so‘zining ayyorlik ifodasi uchun qo‘llanishi.

Allomorfa (*yun.* allos – boshqa; morphe – shakl). Morfemaning (tilning ma‘noli, boshqa ma‘noli qismlarga bo‘linmaydigan eng kichik birligi) biri o‘rnida ikkinchisining ishlatib bo‘lmaydigan, qurshov, sharoitga qarab tanlab qo‘yiladigan morf(a)lari. Masalan, *-gi, -qi, -ki* morfemalari o‘zaro allomorfem(a) holatida, chunki har biri ma‘lum fonetik sharoitga ko‘ra tanlab qo‘shiladi, biri o‘rniga ikkinchisini ishlatib bo‘lmaydi: *kuzgi, kechki, tashqi*.

Amorf tillar (*yun.* amorphos – shaklsiz, shaklga ega bo‘lmagan). Qo‘shimchalarga ega bo‘lmagan, so‘zlar orasidagi grammatik aloqalar bitishuv yo‘li bilan yoki yordamchi so‘zlar vositasida ifodalanadigan tillar. Masalan, *xitoy tili*.

Analitik tillar (*yun.* analytikos – yoyiq, yoyilgan). Grammatik ma‘nolar (gapda so‘zlarning o‘zaro munosabati) so‘z shakllari (shakl yasovchi qo‘shimchalar) vositasida emas, balki yordamchi so‘zlar, so‘z tartibi, ohang yordamida ifodalanadigan tillar. Masalan, *ingliz, fransuz, ispan tillari* analitik tillar guruhiga kiradi.

Arxaizm (*yun.* archios – qadimgi). Ma‘lum davr uchun eskirgan, iste‘moldan chiqq boshlagan til birligi (so‘z, ibora va boshqalar). Masalan, *surur* (sevinch), *hayon* (foyda) va b.

Assanans (*fran.* assonance – ohangdoshlik). Aynan yoki yaqin unli-larning takrorlanishi natijasida yuzaga keladigan ohangdoshlik. Masalan, quyidagi misolda assonans o‘, o‘ unililari asosida yuzaga kelgan: *ko‘m-ko‘k, ko‘m-ko‘k, ko‘k-ko‘k...* Ko‘klam quyoshidan ko‘kargan qirlar.

Assimilatsiya (*lot.* assimilatio – o‘xshatish, qiyos, tenglashtirish). Bir tovushning boshqa bir tovush ta‘sirida o‘xshashlik (bir xillik) tomon o‘zgarishi. Masalan: *oshshi < oshni, tussiz < tuzsiz* kabi.

B

Betaraf so‘zlar. Uslublarning biror turiga berkitilmagan, uslubiy ma‘nodoshlariga ega bo‘lib, o‘zi uslubiy jihatdan betaraf bo‘lgan so‘zlar. Masalan, *sovg‘a, armug‘on, tuhfa* ma‘nodoshlaridan *sovg‘a* so‘zi betaraf,

uning *tuhfa, armug'on* ma'nodoshlari esa kitobiy uslubga xos; *o'pich* be-
taraf so'zining *bo'sa* ma'nodoshi poetik uslubga xos va b.

Bir bo'g'inlilik. Muayyan tilda so'zlarning (leksemalarning) bir bo'g'inli bo'lishi. Qadimgi turkiy tilda, to'liq bo'lmasa-da, bir bo'g'inlilik kuzatiladi.

Birgalikda ergashish. Ergash gaplarning bosh gapga alohida-alohida bog'lanishi: *Kimning bilagida kuchi bo'lsa, kim ishning havosini olsa, o'sha zarbdor bo'ladi.* (A. Qahhor)

Bir ma'nodlilik. Til birliklarining faqat bir ma'noga ega bo'lishi.

Bobo til. Genetik jihatdan o'zaro bog'liq tillarning kelib chiqishi, taraqqiy etish manbayi (asosi) deb qaraladigan til; qiyosiy-tahliliy usul bilan tiklanadigan mavhum tilshunoslik modeli.

Bosh ma'no. Ko'p ma'noli birlik (so'z, ibora va b.) ma'nolari tizimida markaziy o'rinda turadigan, boshqa ma'nolar unga to'g'ridan-to'g'ri yoki biror ma'no orqali bog'lanadigan ma'no. Masalan, *ko'z* so'zining *odamning ko'zi, derazaning ko'zi, uzukning ko'zi, buloqning ko'zi, yog'ochning ko'zi* birikmalaridagi ma'nosi boshqa-boshqa (mustaqil) ma'nolar bo'lib, bulardan *odamning ko'zi* birikmasidagi ma'no, ya'ni «ko'rish a'zosi» ma'nosi bosh ma'nodir. Keyingi birikmalardagi ma'nolar esa keyin yuzaga kelgan ma'nolardir.

D

Dialekt (*yun.* dialektos – sheva, lahja). Umumxalq tilining son jihatdan nisbatan kam bo'lgan, biroq hududiy, kasb-hunar va boshqa jihatdan umumiylikka ega bo'lgan kishilar tomonidan qo'llanadigan ko'rinishi: *qipchoq lahjasi, qarluq lahjasi, o'g'uz lahjasi.*

Dialektologiya (*yun.* dialektos – sheva, lahja + logos – tushuncha, ta'limot). Tilshunoslikning dialekt, lahja va shevalarni o'rganuvchi bo'limi.

Dialog (*yun.* dialogos – suhbat). Suhbatdoshlarning bevosita bir-biriga qaratilgan nutqi. Nutqning bu turi o'ziga xos bir qator belgi-xususiyatlar-ga ega. Masalan, uning sintaktik qurilishi nisbatan sodda bo'ladi, har bir shaxsning gapi, odatda, qisqa bo'ladi va hokazo.

Dissimilatsiya (*lot.* dissimilis – noo'xshash). So'zdagi bir xil yoki bir-biriga qisman o'xshash tovushlardan birining talaffuz jihatdan farq qiladigan boshqa tovush tomon o'zgarishi. Dissimilatsiya juda kam uchraydigan

hodisa bo'lib, asosan, so'zlashuv nutqida yuz beradi: *tranvay* (*tramvay* o'rniga), *zarar* (*zarar* o'rniga) va hokazo.

Dominanta (*lot.* dominans, dominantis – hokim). Ma'nodosh so'zlar qatoridagi bosh so'z; bu so'z ma'nodoshlar qatoridagi so'zlar uchun umumiy bo'lgan asosiy, bosh ma'noni ifodalaydi. Masalan: *yuz – bet – aft – bashara – chehra – jamol – diydor – oraz – uzor – ruxsor* ma'nodosh so'zlar qatorida *yuz* so'zi dominanta hisoblanadi.

E

Epitet (*yun.* epitheton – ilova, qo'shimcha). Predmetning sifatini tasvirlil, obrazli ifodalash uchun ishlatiladigan so'z, ko'chimning bir turi: *oltin vodi*, *zumrad boshq* kabi.

Eponim (*yun.* eponymos – o'z ismini beruvchi). Ismi (familiyasi) xalq, joy va boshqalarga qo'yilgan, ularning atamasiga aylangan shaxs. *Kolumb* (Kolumbiya), *Jambul* va boshqalar.

Etimologiya (*yun.* etymologia < etymon – haqiqat, so'zning haqiqiy ma'nosi + + logos – tushuncha, ta'limot). Tilshunoslikning so'z va morfemalarning kelib chiqishi va tarixini o'rganuvchi bo'limi.

F

Fonema (*yun.* phonema – tovush). Til moddiy tomonining eng kichik birligi, farqlovchi fonologik belgilarning barqaror yig'indisi.

Fonetika (*yun.* phonetike – tovushga oid). Tilshunoslikning nutq tovushlarining hosil bo'lish usullarini va akustik xususiyatlarini; bo'g'in, nutqning qisqa to'xtam bilan ajraluvchi qismlari va shu kabilarni o'rganuvchi bo'limi.

Frazeologiya (*yun.* phrasis – ibora + logos – tushuncha, ta'limot). Tilshunoslikning frazeologik birliklarini – iboralarni o'rganuvchi bo'limi.

G

Gallitsizm (*lot.* gallicus). Fransuz tilidan o'zlashgan, lekin yot element ekani sezilib turadigan so'z yoki ibora: *mersi*, *pardon* kabi.

Gaplologiya (*yun.* gaplos – oddiy + logos – tushuncha, ta’limot). Ya’ni sama soʻzlarda qator kelgan bir xil yoki bir-biriga oʻxshash boʻlmalardan birining tushishi: *mineralologiya* (*mineralologiya* oʻrniga); *qayna* < *qaynana* < *qaynona*; *qayni* < *qaynini* < *qaynini* kabi.

Germanizm (*lot.* germanus – german). German tillaridan oʻzlashgan, lekin yot unsurlar ekanligi sezilib turadigan soʻz yoki ibora: *dendi*, *miss* va b.

Gidronim (*yun.* hydor – suv; onyma – nom). Daryo, suv havzalari kabilarning nomlari.

Giperbola (*yun.* hyperbole – mubolagʻa). Narsa, hodisa, jarayonlarning belgi-xususiyatini, holatini oʻta boʻrttirib tasvirlash: *Oil ustida turibdi. Sariq chaqaga olmaydi. Sarhovuzdan katta edi kosasi.* (Folklordan)

Grafika (*yun.* graphike – yozma). 1. Nutq tovushlarini yozib ifodalash vositalarining muayyan tizimi: *lotin grafikasi*, *arab grafikasi*.

2. Tilshunoslikning alifbodagi harflar tarkibini, shaklini, harf va nutq tovushlari orasidagi munosabatni belgilash bilan shugʻullanuvchi amaliy sohasi.

Grammatika (*yun.* grammatike – harf oʻqish va yozish sanʼati). 1. Tilshunoslikning soʻz shakllari (shakl yasalishi), soʻz birikmalarining turlari, gap turlari (tilning grammatik qurilishi) haqidagi boʻlimi.

2. Soʻz shakllari, ularning soʻz birikmasi va gapdagi oʻzaro bogʻlanishi haqidagi qoidalar majmuyi.

H

Hikmatli soʻz. Aniq va ixcham shaklli, chuqur mazmunli. muallifi aniq gap: *Oz demak hikmatga bois, oz yemak sihatga bois.* (A. Navoiy)

Husnixat. Aniq va chiroyli yozish sanʼati; shunday yozuv.

I

Ierogliflar (*yun.* hieroglyphoi – muqaddas yozuvlar). Butun bir soʻz, boʻgʻin yoki tovushni ifodalash uchun xizmat qiladigan grafik ifodalar. Masalan, *xitoy ierogliflari*.

Imlo. Soʻz va uning maʼnoli qismlarini yozish (qoʻshib yozish, ajratib yozish, chiziqcha bilan yozish), bosh va kichik harflarni ishlatish, shuning-

dek, bo'g'in ko'chirish qoidalari tizimi. So'z va uning ma'noli qismlarining yozilishi bir necha tamoyil asosida qoidalashtiriladi. Masalan: fonetik yozuv tamoyili, morfologik yozuv tamoyili, shakliy yozuv tamoyili, tarixiy-an'anaviy yozuv tamoyili, farqlash yozuvi tamoyili.

Imo-ishora tili. Turli imo-ishora, tana a'zolari harakatidan aloqa vositasi sifatida foydalanish; shunday vazifani bajaruvchi imo-ishora, xatti-harakatlar.

Izofa. Fors va boshqa ba'zi tillarda aniqlovchi va aniqlanmish munosabatini ifodalovchi vositalardan biri. Masalan: *tarjimayi hol*, *dardi bedavo*, *baloyi nafs* kabi birikmalardagi tartib va *-i*, *-yi* izofani ta'minlovchi vositalar hisoblanadi. Bu turdagi birikmalar o'zbek tiliga fors-tojik tillaridan o'tgan.

J

Jargon (*fran.* jargon). Biror guruh vakillarining, o'z nutqi bilan ko'pchilikdan ajralib turish maqsadida, o'zicha mazmun berib ishlatadigan so'z va iboralari. Masalan: *yarimta* (aroq), *qizil* (vino) – ichuvchilar nutqiga xos; *tog'arning o'g'li* (yo'l harakati xavfsizligi xizmati xodimi) – haydovchilar nutqida.

Jonlantirish. Jonsiz predmet, mavhum narsalarga jonli predmetlarga, insonga xos xususiyatlar berib tasvirlashdan iborat usul: *Bunda qorning taglarida qish. Bahor uchun so'zlaydi olqish.* (H. Olimjon)

Jonli til. 1. Biror xalqning aloqa quroli sifatida xizmat qilib turgan tili.
2. Oddiy so'zlashuv.

K

Kinesika. Kishilarning fikr almashuvida nutq a'zolaridan tashqari barcha tana a'zolarining harakatini, imo-ishora harakatlarini o'rganuvchi fan.

Kommunikatsiya (*lot.* communicatio – xabar, aloqa). Biror mazmunning til vositalari bilan berilishi, xabar qilinishi.

Konversiya (*lot.* conversio – aylanish, o'zgarish). So'zning fonetik va morfologik jihatdan o'zgarmay, bir so'z turkumidan boshqa bir so'z turkumiga o'tishi, shu yo'l bilan yangi so'z hosil bo'lishi.

Kriptografiya (*yun.* kryptos – maxfiy, yashirin + grapho – yozaman) Maxfiy xat turlaridan biri (shifr qo‘llashga asoslangan yozuv turi).

Kriptologiya (*yun.* kryptos – maxfiy, yashirin + logos – tushuncha, ta‘limot). Maxfiy tillar, ularni tuzish qonuniyatlarini, o‘qib tushuntirib berish usullarini o‘rganuvchi fan.

L

Lahja. Mahalliy dialektning bir necha shevadan iborat guruhi.

Leksema (*yun.* lexis – ibora, nutq o‘rami). Tilning lug‘at tarkibiga xos birlik; til qurilishining lug‘aviy ma‘no anglatuvchi unsuri.

Leksika (*yun.* lexikos – so‘zga oid, lug‘aviy). 1. Tilning lug‘at tarkibi: o‘zbek tili leksikasi.

2. Lug‘at tarkibining qo‘llanish sohasi, uslubiy belgisi, kelib chiqishi kabi turli jihatlardan yondashib ajratiladigan guruhlari.

Leksikologiya (*yun.* lexikos – lug‘atga, so‘zga oid, lug‘at haqida + logos – ta‘limot). Tilshunoslikning tilning lug‘at tarkibini o‘rganuvchi bo‘limi.

Lingvistika (*fran.* linguistique < *lot.* lingua – til). Til haqidagi, uning ijtimoiy tabiati, vazifasi, ichki tuzilishi, tasnifi haqidagi; muayyan tillarning ish ko‘rish (faoliyat) qonunlari va tarixiy taraqqiyoti haqidagi fan.

M

Metafora (*yun.* metaphora – ko‘chirish). Bir predmetning boshqa bir predmetga bir tomondan o‘xshashligirni e‘tiborga olib ko‘chirish. Metafora so‘zning yangi ma‘nolari hosil bo‘lishida qatnashadigan omillardan biridir. Masalan: *qanot, kosa, arafa* so‘zlarining *samolyotning qanoti, tarvuzning kosasi, bayram arafasi* birikmalaridagi ma‘nosi metafora asosida hosil bo‘lgan.

Metateza (*yun.* metathesis – o‘rin almashtirish). So‘zdagi tovushlarning o‘rin almashuvi. Masalan: *da_ryo > day_ro, mi_zo_j > mi_jo_z, to‘g‘_ramoq > to‘rg‘amoq, o‘g‘_rilamoq > o‘g‘_ilamoq, to‘g‘_rilamoq > to‘g‘_ilamoq* kabi.

Metonimiya (*yun.* metonymia – qayta nomlash). Bir predmet, belgi, harakat nomini o‘zaro tashqi yoki ichki bog‘liqlik asosida boshqa predmet, belgi yoki harakatga nisbatan qo‘llash; shunday qo‘llash asosida bir

predmet, harakat, belgi nomining boshqa predmet, harakat yoki belgiga ko'chishi. Metonimiya so'zning yangi ma'nolari hosil bo'lishida muhim vazifani bajaradi. Masalan, *kulgi* so'zining «mazax», «masxara» ma'nosi, *somavar* so'zining «choyxona» ma'nosi metonimiya asosida hosil bo'lgan ma'nolaridir.

Milliy til. Millat bo'lib shakllangan jamoaning umumiy tili.

Morfema (*yun.* morphe – shakl). Tilning ma'noli, boshqa qismlarga bo'linmaydigan eng kichik birligi. Asosiy xususiyatiga ko'ra, morfemalar ikki turga bo'linadi: 1) leksik morfema; 2) qo'shimcha (affiks) morfema. Masalan, *ishchi* so'zida ikki morfema bor: *ish* (leksik morfema) va *-chi* (qo'shimcha morfema).

Morfologiya (*yun.* morphe – shakl + logos – ta'limot). So'z shakllari haqidagi grammatik ta'limot. Morfologiya sintaksis bilan birga grammatikani tashkil etadi.

Murakkab gap. Uyushiq bo'lak, ajratilgan bo'lak, undalma va kiritmalar ishtiroki bilan murakkablashgan sodda gap: *Hoy qizi tushmagur, nima deb aljirayapsan?* (A. Qahhor)

N

Nutq madaniyati. 1. Filologiya fanining jamiyat taraqqiyotining ma'lum davrida nutqdan foydalanish jarayonini o'rganish, kishilar orasidagi aloqa vositasi bo'lgan tildan foydalanish qoidalarini ilmiy asosda belgilash bilan shug'ullanadigan bo'limi.

2. Nutqning me'yoriyligi, uning ma'lum tarixiy taraqqiyot davrida shu tilda so'zlashuvchi jamoa tomonidan qo'yiladigan talablarga mosligi; talaffuz, urg'u, so'z qo'llash, so'z yasalishi, shakl yasalishi, so'z birikmasi va gap tuzish me'yorlariga amal qilish. Nutqning me'yoriyligi fikrning aniq, ravshan va sofligini ham o'z ichiga oladi.

O

Obyekt (*lot.* object). 1. Nutq mavzusi qaratilgan shaxs, narsa, voqea-hodisa.

2. To'ldiruvchi.

Omofonlar (*yun.* homos – bir xil + phone – tovush, ovoz). Talaffuzi bir xil, lekin yozilishi har xil boʻlgan soʻzlar: *bod* – *bot*, *bob* – *bop*, *ma* d – *ma* t

Omograflar (*yun.* homos – bir xil + grapho – yozaman). Talaffuzi farqli, yozilishi bir xil boʻlgan birdan ortiq soʻzlar: *tok* (uzum butasi) – *tok* (elektr quvvati).

Omomorfemalar (*yun.* homos – bir xil + morphe – shakl). Maʼnosi boshqa-boshqa, tovush tomoni oʻxshash boʻlgan birdan ortiq morfema. Masalan: *-ma* boʻlishsiz shakl yasovchi qoʻshimcha (*uxlama*); *-ma* ot yasovchi qoʻshimcha (*suzma* – sut mahsuloti) va *-ma* sifat yasovchi qoʻshimcha (*yasama*: *yasama* soʻz).

Ona tili. Bolaning yoshlikdan atrofdagi kattalarga taqlid qilish yoʻli bilan oʻrgangan tili. Milliy qadriyat, davlatning rasmiy tili.

Orfoepiya (*yun.* orthos – toʻgʻri + epos – nutq). Tilshunoslikning meʼyoriy adabiy talaffuzini oʻrganuvchi boʻlimi.

Orfografiya (*yun.* orthos – toʻgʻri + grapho – yozaman). Tilshunoslikning imlo qoidalarini oʻrganuvchi boʻlimi.

P

Paleografiya (*yun.* palaios – qadimgi + grapho – yozaman). Qadimgi qoʻlyozmalarning tashqi tomonini, qanday narsaga yozilganini, yozuv usulini, harflarning yozilish shakllarini oʻrganish orqali qoʻlyozmaning yozilish payti va oʻrmini belgilash bilan shugʻullanuvchi fan.

Parafraza (*yun.* paraphrasis – tasviriy ifoda, tasvir). Narsa-hodisani oʻz nomi bilan emas, ularni xarakterli belgi-xususiyatlari asosida tasviriy usul bilan ifodalash; shunday ifoda. Masalan: *kumush choyshab* (qor), *zangori olov* (gaz) kabi.

Predikativ aloqa. Ega va kesim oʻrtasidagi aloqa.

Punktuatsiya (*lot.* punctuatio < punctum – nuqta). Tinish belgilarini qoʻllash qoidalari toʻplami.

Q

Qisqarish. Qisqartirish yoʻli bilan yangi soʻz yoki soʻz shakli hosil boʻlishi. Masalan, *kilogramm* soʻzidan *kilo* soʻzi hosil boʻlishi.

R

Replika (*fran.* *replique*). Dialogik nutqda har bir suhbatdoshning gapi.

Ritorika (*yun.* *rhetorike*). Notiqlik san'ati nazariyasi va notiqlik san'ati haqidagi fan.

Ritorik so'roq. Faqat so'roq shaklida ifodalanib, kuchaytirishdan iborat uslubiy san'at; javob talab qilmaydigan so'roq: *Aytib ber-chi, shuncha sevganlar Bo'lganmikan mencha baxtiyor?*

S

Semantika (*fran.* *semantique* < *yun.* *semantikos* – ifodalovchi). Til birliklarining mazmun, ma'no tomoni.

Sinekdoxa (*yun.* *synekdoche* – birga nazarda tutmoq). Bir predmet nomining boshqa predmetga betun va qism munosabati asosida ko'chishi, butunning nomi qismning nomi va aksincha bo'lib qolishi. Masalan, *olma*: 1) mevaning bir turi; 2) shu mevaning daraxti. Yoki *besh qo'l baravar emas* jumlasida *qo'l* so'zi «barmoq» ma'nosidadir.

Sintaksis (*yun.* *syntaxis* – tuzish). 1. Grammatikaning o'zaro bog'lanishli nutq qurilishini o'rganuvchi bo'limi. Bu bo'lim ikki asosiy qismdan iborat: 1) so'z birikmalari sintaksisi; 2) gap sintaksisi.

2. So'z turkumlarining nutqdagi vazifalari haqidagi ta'limot (fe'l sintaksisi).

Sintagma (*yun.* *syntagma* – birlashgan narsa). Nutqning mazmun va ohang jihatdan bir butunlikni tashkil etuvchi semantik-sintaktik birligi. Sintagma bir yoki undan ortiq so'zdan iborat bo'lishi, hatto gapga teng bo'lishi mumkin: *Fermerlarimiz / paxta rejasini / muddatidan ilgari / oshirib bajaradi.*

Sintetik tillar (*yun.* *synthetikos* – biriktirilgan, qo'shilgan). Grammatik ma'nolar (gapda so'zlarning o'zaro munosabati) shakl yasovchi qo'shimchalar vositasida ifodalanadigan tillar. Masalan, *rus* va *nemis* tillari sintetik tillar jumlasidandir.

Subyekt (*lot.* *subjectum*). Hukum predmeti, mantiqiy ega.

T

Tabu. Diniy e'tiqod, irim, qo'rqish va shu kabilar ta'sirida so'zning ishlatilishini cheklash yoki man etish; ishlatilishida shunday cheklangan, man etilgan so'z. Masalan, *chayon* so'zi o'rnida *eshak, oti (nomi) vo'q* so'zlarining ishlatilishi.

U

Uslubiyat. Til birliklarining uslubiy imkoniyat va xususiyatlari, vazifa-uslubiy, hissiy-ta'siriy bo'yog'i, shuningdek, nutqda til vositalarini maqsadga muvofiq tarzda tanlash va qo'llash haqidagi ta'limot.

V

Varvarizm (*yun.* barbarismos – «kelgindi» so'zidan). Ona tiliga o'zlashmagan, o'zga til hodisasi sifatida qo'llangan so'z yoki ibora. Varvarizmlardan, odatda, o'zga yerga xos rasm-odatlarni tasvirlashda, mahalliy koloritni yaratishda foydalaniladi: *madam, misis* va b.: *Ich, madam, potom gulyat boramiz.* (Oybek)

Vulgarizmlar (*lot.* vulgaris – oddiy, sodda; odatiy). Adabiy til, odatdagi (maqbul) muomala uchun xos bo'lmagan, qo'pol munosabatni ifodalovchi so'z yoki ibora: Masalan, *emoq, chaynamoq* so'zlari o'rnida qo'llanuvchi *kavshamoq, g'ajinoq* so'zlari yoki *quyushqondan chiqmoq, dumiga chelak bog'lamoq* kabi iboralar.

X

Xatboshi. Matnni yangi yo'ldan bir oz o'rin (uch harf o'rni) qoldirib boshlash.

Y

Yordamchi fe'l. Yordamchi vazifasida qo'llanib, qo'shma fe'l, ko'makchi fe'lli so'z qo'shimasini hosil qiluvchi, shuningdek, bog'lama vazifasini bajaruvchi fe'llar. Ular o'z vazifasiga ko'ra uch turga bo'linadi: 1) qo'shma fe'l hosil qiluvchi yordamchi fe'llar: *qil, ayla, et, bo'l; qabul*

qilmoq, ruxsat etmoq kabi; 2) ko‘makchi fe‘lli so‘z qo‘shilmasini hosil qiluvchi yordamchi fe‘llar (bular, odatda, ko‘makchi fe‘llar deb yuritiladi): *boshla, yot, tur, yur, o‘tir, bor, kel, bo‘l, bit (bitir), chiq, yet, o‘t, ol, ber, qol, qo‘y, ket, yubor, tashla, sol, tush, ko‘r, qara, boq, bil* kabi; *kela boshladi, o‘qib chiqdim, so‘rab ko‘r, yiqitib yubordi* kabi; 3) bog‘lama vazifasini bajaruvchi, ya‘ni ismlarni kesimga xoslovchi to‘liqsiz fe‘llar: *ekan, emish: yaxshi ekan, to‘y emish, borgan emas:* kabi.

O‘

O‘lik til. Jonli iste‘moldan chiqqan (tabiiy so‘zlashuv tili bo‘lmagan), yozma yodgorliklarda saqlangan til. Masalan, *lotin tili*.

O‘z so‘z. Tilning aslida o‘ziga mansub bo‘lgan (boshqa tildan o‘zlashmagan), tilning o‘z qatlami asosida yasalgan so‘z: *bosh, besh, qush, o‘n, o‘t, boshla, bugun, bog‘la, so‘zla* va boshqalar.

Sh

Sheva. Mahalliy lahjaning fonetik, lug‘aviy, grammatik umumiylikka ega bo‘lgan, bir yoki bir necha qishloqni o‘z ichiga oluvchi kichik bir qismi, guruhi. Masalan, *Forish shevasi*.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- N. Mahmudov va boshqalar. Ona tili: Umumta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – T.: Ma'naviyat, 2011. – 224 b.
- N. Mahmudov va boshqalar. Ona tili: Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. – T.: Tasvir, 2009. – 176 b.
- N. Mahmudov va boshqalar. Ona tili: Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. – T.: Ma'naviyat, 2009. – 128 b.
- M. Qodirov va boshqalar. Ona tili: Umumta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. – T.: Ma'naviyat, 2010. – 144 b.
- N. Mahmudov va boshqalar. Ona tili: Umumta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. – T.: Tasvir, 2009. – 128 b.
- A. Rafiyev, N. G'ulomova. Ona tili va adabiyot: Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – T.: Sharq, 2006. – 304 b.
- N. Mahmudov va boshqalar. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish: akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – T.: Cho'lpon nashriyot-matbaa uyi, 2011. – 144 b.
- R. Sayfullayeva va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili: oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – 416 b.
- Sh. Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili: oliy o'quv yurtlari uchun darslik. II jildlik. – T.: Mumtoz so'z, 2010.
- O'zbek tili grammatikasi. II tom. Sintaksis. – T.: Fan, 1976. – 560 b.
- A. Nurmonov, R. Rasulov. O'zbek tili jadvallarda. – T.: O'qituvchi, 1991. – 184 b.
- A. Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – 168 b.
- O'zbek tilining imlo lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1995. – 288 b.
- O'zbek tilining izohli lug'ati: 60 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. II jildlik. – M.: Русский язык, 1981.
- O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. V jildlik. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.

Abduroziq Rafiyev
Jahongir Qo'nishev

Hozirgi o'zbek adabiy tili

O'qituvchi-filologlar, o'quvchi va talabalar
hamda abituriyentlar uchun qo'llanma

Muharrir *Bahodir Jovliyev*
Badiiy muharrir *Alimardon Aqilov*
Texnik muharrir *Ulyana Kim*
Musahhah *Asqar Qo'nishev*
Sahifalovchi *Nurjahon Rahmonova*

Lits. AI № 111. Bosishga 16. 04. 2012- yilda ruxsat etildi.
Bichimi 60 x 84 $\frac{1}{16}$. Hajmi 10,25 b. t.
Adadi 1000 nusxa. Buyurtma № 11.

«YANGI NASHR» nashriyoti

«MEDIANASHR» MCHJ bosmaxonasi.
Toshkent, Chilonzor ko'chasi, 1- uy.

YANGI NASHR

ISBN-978-9943-22-056-0



9 789943 220560